

ISSN: 2181-4147

*Scientific Journal*

# *Scholar*

*Volume 1, Issue 13*



*2023/13*

*May*

TOGETHER WE REACH THE GOAL

ISSN 2181-4147  
VOLUME 1, ISSUE 13  
MAY 2023



<https://researchedu.org/index.php/openscholar>

**“SCHOLAR” SCIENTIFIC JOURNAL**  
**VOLUME 1, ISSUE 13, MAY, 2023**

**EDITORIAL BOARD**

**G. Kholmurodova**

*Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University*

**A. Madaliev**

*Professor, Doctor of Economics, Tashkent State Agrarian University*

**G. Sotiboldieva**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University*

**U. Rashidova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Philological Sciences, Samarkand State University*

**D. Darmonov**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University*

**X. Abduxakimova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University*

**U. Ruzmetov**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Chemical Sciences, National University of Uzbekistan*

**M. Yusupova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University*

**M. Kambarov**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, Namangan State University*

**S. Sadaddinova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Physics and Mathematics Sciences, Tashkent University of  
Information Technologies*

**M. Fayzullaev**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) Geographical Sciences, Karshi State University*

**Z. Muminova**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine*

**B. Kuldashov**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine*

**Kh. Askarov**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Fergana Polytechnic Institute*

**S. Nazarova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Bukhara State University*

**O. Rahmonov**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Technical Sciences, Fergana Polytechnic Institute*

**G. Tangirova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University*

**Z. Koryogdiev**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Historical Sciences, Bukhara State University*

**S. Ubaydullaev**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnology*

**R. Yuldasheva**

*Associate Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University*

**M. Yuldashova**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Namangan State University*

*Editorial Secretary: J. Eshonkulov*

## TO‘GARAK MASHG‘ULOTLARIDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH

**O‘ Sultonova.**

Termiz muxandislik – texnologiya instituti p.f.d prof

**B.Soqieva,** katta o‘qituvchi

**M.Qodirova,** 2-kurs talabasi

***Annotatsiya.** Maqolada o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, ularni aqliy qobiliyatlarini o‘stirish, fizika fanining o‘qitishdagi eng muhim psixologik va pedagogik muammo. Buning uchun o‘qitishning faol metodlaridan, ta‘lim va tarbiyaning oan‘anaviy shakl va usullaridan keng miqyosida foydalanish, jism va hodisalarning ularning o‘zaro aloqadorligi, harakati va rivojlanib borishi asosida o‘rganish taqazo etiladi.*

***Kalit so‘zlar:** musobaqa, tafakkur, psixiologik, shakl, fizik olimlar, fizik kattaliklar, jarayonlar, samaradorlik, didaktik, topishmoqlar, chizmalar, asboblar.*

**Kirish** Bunda, ayniqsa, o‘quvchilarning o‘yin faolligini oshirish, yangi bilimlarni izlashtirishi, ularda o‘quv va ko‘nikmalarini shakllantirishi hamda rivojlantirishi, umuman fizikani o‘rganish jarayonining samaradorligini oshirishi katta ahamiyat kasb etadi. Didaktik o‘yinlar davomida o‘quvchilarda hosil bo‘ladigan ijobiy his-hayajon tuyg‘usi ularni charchashdan asraydi. Ularning intellektual qobiliyatini oshiradi [1].

Didaktik o‘yinlardan fizika o‘qitish jarayonida foydalanishning umumiy masalalari, ilmiy metodik adabiyotlarda ancha keng yoritilgan bo‘lsa ham, ularda asosiy e‘tibor masalalar yechish va qonunlarga qaratilgan. Vaholangki, fizika fanini o‘zlashtirish o‘quvchilarga ancha qiyinchilik tug‘dirishi va uning ba‘zi masalalarini

yechishda noan'anaviy yondashuvlar talab etilishi tabiiydir. Buning bir qator ilmiy-nazariy, metodik va didaktik sabablari bor, ulardan har qanday mahoratli fizika o'qituvchisi ko'z yuma olmaydi. Shuning uchun fizika fanini o'qitishda, yangi pedagogik texnologiyalar, noan'anaviy usul va shakllardan foydalanish talab etiladi. Ayniqsa, didaktik o'yinlar o'quvchilarning mustaqil fikrlash, topqirlik, izlanuvchanlik, hozirjavoblik, mantiqiy xulosalar chiqara olish, o'z ustida ishlash ma'lum va noma'lum jihatlarni solishtira olish, mavjud bilimlarga tayanib mushohada yuritish kabi imkoniyatlarini ishga solishda yordam beradi.

Fizika fanini o'rganish jarayonida, o'quvchilarning dars va to'garak mashg'ulotlarda didaktik o'yinlardan namunalari keltiramiz. Bu didaktik o'yinlarda yuqori ko'rsatkichga erishish uchun darslik va qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Fizik lug'at o'yini: O'qituvchi bitta harfni doskaga yozadi, o'quvchilar esa, o'sha harf bilan boshlanadigan fizik termin, fizik kattalik, fizik asboblar, o'lchov birliklar va hokazolarni daftarlariga o'zlaricha yozadilar. Keyin qaysi o'quvchi nechta ibora-termin yozganini aytadi. O'qituvchi aylanib tekshirib yuradi, kim ko'p yozgan bo'lsa, u o'quvchi birinchilikni oladi. Keyin o'sha o'quvchining topgan so'zlari, orqada qolgan o'quvchilarda bo'lmagan so'zlari doskaga yoziladi va hamma o'quvchilar doskadan o'zlari topa olmagan so'zlarni ko'chirib oladilar. Masalan, T harfi tezlik, tovush, tabiat, tormoz, tebranish, temperatura, termodinamika, Tomson, Tesla, termoyadro, tezlatgich, takomak, tortilish, tranzistor, transuran, turbulent, tutun, to'lqin, tekis tezlanuvchan, tekis sekinlanuvchan kabi so'zlardir..

Akselereometr, amorf, atom, Avogadro, akustika, alfa, antimodda, atmosfera, astrofizika, alyuminiy, adiabatik, abadiy, asosli, angstrom, aneroid, areometr, ampermetr, absolyut uzayish, amorf, anizotrop, aylana va h.k.

Fizik formulalar bo'yicha damino o'yini quyidagicha davom etadi:

$$v = \frac{s}{t} \rightarrow t = \frac{s}{v} \rightarrow v = v_0 + at \rightarrow t = \frac{v - v_0}{a} \rightarrow a = \frac{v^2 - v_0^2}{2s} \rightarrow s = v_0 t + \frac{at^2}{2} \rightarrow t = \frac{A}{N} \rightarrow N = \frac{A}{t}$$

$$t = \frac{A}{IU} \rightarrow U = IR \rightarrow R = \rho \frac{l}{s} \rightarrow S = \frac{F}{P} \rightarrow P = nkT \rightarrow T = \frac{2E_k}{3K} \rightarrow k = \frac{R}{N_A} \rightarrow N_A = \frac{N}{V} \rightarrow v = \frac{m}{\mu} \rightarrow \mu = m_0 N_A \rightarrow$$

$$\rightarrow N_A = \frac{NRT}{PV} \rightarrow T = \frac{P}{nK} \rightarrow k = \frac{2E_k}{3T} \rightarrow T = \frac{P}{nK}; n = \frac{N}{V} \rightarrow V = \frac{m}{\rho} \rightarrow \rho = \frac{m}{V} \rightarrow V = Sh$$

### Fizik atamalardan tashkil topgan domino o'yini.

Tezlik → kuch → chastota → atom massa →  
 angestrum → meteor → richag → gigrometr →  
 reostat → tarozi → ish → shokul → litr →  
 radiy → yo'ldosh → Sharl → Lomonosov → vaqt →  
 Tomson → Nyuton → Nanometr → radius

sekund tartibda davom etdiriladi. Fizik so'zlardan tashkil topgan domino o'yinida o'qituvchi birinchi so'zni aytib doskaga yozadi, oxirgi harfidan fizik so'zlar bilan davom ettiriladi.

“Fizik lingvistika” Til qonunlari, nutq jozibalari bilan lingvistika shug'ullanadi. Fizika tili juda boy, uning imkoniyatlaridan o'rinli foydalanish o'quvchilarning bilim darajasini oshirishga katta xizmat qilishi mumkin. Turli fizik kattaliklar, qonunlar, birliklar bilan bog'liq boshqotirmalar o'quvchilarni so'zamolikka, topqirlikka va hozirjavoblikka o'rgatadi. Bu tadbir ham, eng avvalo, ularni mustaqil ishlashga, qo'shimcha bilim olishga, fizika fanining yozma va og'zaki til imkoniyatlaridan foydalanishga undaydi. Quyidagi savollarga to'g'ri javoblar topib, ularning bosh harflarini keltirilgan bo'sh kataklarga joylashtirilsa, hikmatli so'zlardan biri kelib chiqadi va u o'quvchilarda fizika fanining qudratli tabiiy fanlardan biri ekanligini uzoq vaqt esda saqlab turadi. Biz dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda lingvistik didaktik o'yinlardan namunalar keltirdik, bunda ham ma'nosini, ham topishmoq javobini topish talab etiladi.



1- topshiriq: Quyidagi savollarga to‘g‘ri javoblar topib, ularning bosh harflarini keltirishgan bo‘sh kataklarga joylashtirilsa, hikmatli so‘zlardan biri kelib chiqadi va u oquvchilarga fizika fanining qudratli tabiiy fanlardan ekanligini uzoq vaqt eslatib turadi.

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Ф	И	З	И	К	А	Ф	А	Н	И

11	12		13	14	15	16	17	18	19
М	У	Ъ	Ж	И	З	А	Л	А	Р

20	21	22	23	24	25	26
М	А	Й	Д	О	Н	И

1. Turli moddalardan tashkil topgan jismlarga ..... deb aytiladi. 2. Jism shunday harakat qilishi mumkinki, uning ixtiyoriy ikki nuqtasini tutashtiruvchi to‘g‘ri chiziq jism ko‘chganda ham, o‘z-o‘ziga paralelligicha qolishiga..... harakat deyiladi. 3. Moddaning hajm birligiga to‘g‘ri keladigan massasiga .....deyiladi.4. Bir jismga boshqa jismning ta’siri to‘xtagandan so‘ng jism tezligining o‘zgarmasligi .....deyiladi. 5. Bir jismning ikkinchi jismga ko‘rsatadigan ta’siriga .....deyiladi.6. Tezlanishni o‘lchaydigan asbob...7. Hodisalarni xarakterlovchi kattaliklar orasidagi miqdoriy bog‘lanishdan iborat bo‘lgan ifodaga ..... deyiladi. 8. Suyuqlik ichiga botirilgan jism o‘zining hajmicha og‘irlikdagi suyuqlikni siqib chiqaradi va unga shu kattalikdagi .....kuch ta’sir qiladi9. Kuch birligi.....10. Issiqlik almashinish natijasida jismga beriladigan energiya miqdori.....deyiladi.11. Jismlarning inertligini xarakterlovchi fizik kattalik 12. Linza markazidan o‘tuvchi .....optik .....deyiladi.13. Rus aviatsiyasining otasi .....14. Jismni tashkil

qilgan molekulalarning xaotik harakati va molekulalarning o'zaro ta'sir energiyalarining yig'indisiga ..... aytiladi.

15.  $\text{kg/m}^3$  qaysi fizik kattalikning birligi? 16. Zichlikni o'lchaydigan asbob..... 17. Hajm o'lchov birligi ..... 18. Suyuqlik yoki gaz ichiga botirilgan jismga ta'sir qiluvchi itarib chiqaruvchi kuch ..... 9. Ko'zg'almas tayanch atrofida aylana oladigan jism . 20. Optik asboblardan biri ... 21. Xususiyati jihatdan ham suyuq ham kattik jism ..... Trayektoriya uzunligiga teng bo'lgan kattalik 23. Kuch ta'sirida jismning shakli va hajmining o'zgarishi

.deyiladi. 24. Trayektoriyaning ma'lum paytdagi va ma'lum nuqtadagi tezligi ..... tezlik deyiladi. 25.  $1\text{kg}$  massali jismga  $1\text{ m/s}^2$  tezlanish bera oladigan kuch birligi .....

26. Bir jismning ikkinchi jism sirtida sirpanganda hosil bo'ladigan va harakatga qarama-qarshi yo'nalgan kuchga .....deyiladi.

**J a v o b l a r:**

1. Fizik jism. 2. Ilgarilanma harakat. 3. Zichlik. 4. Inersiya. 5. Kuch. 6. Akselereometr. 7. Fizik qonuniyat. 8. Arximed kuchi. 9. Nyuton. 10. Issiqlik miqdori. 11. Massa. 12. O'q. 13. Jukovskiy. 14. Ichki energiya. 15. Zichlik. 16. Areometr. 17. Litr. 18. Arximed kuchi. 19. Richag. 20. Mikroskop. 21. Amorf. 22. Yo'l. 23. Deformatsiya. 24. Oniy tezlik. 25 Nyuton. 26. Ishqalanish kuchi.

Xulosa qilib aytganda, darsda va to'garaklarda foydalaniladigan didaktik o'yinli mashg'ulotlarning quyidagi afzalliklari mavjud [2]:- o'quvchilarning bilish faoliyati oshadi;- eng dolzarb muammolarni hal qilish imkoniyatiga ega bo'ladi;- mashg'ulot davomida o'quvchilar o'rtasida o'zaro yordam, do'stona munozara hosil bo'lishiga olib keladi;- o'quvchilar tayyorgarlik davomida darslik, qo'shimcha adabiyotlardan mustaqil foydalanadilar;- o'quvchilar o'yin mashg'ulotiga katta qiziqish bilan tayyorgarlik ko'radilar, natijada mustaqil ravishda yangi bilimlarni egallash samaradorligi ortadi;



13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24

-o‘quvchilarning o‘z bilimini va iqtidorini sinab ko‘rishda, o‘z-o‘zini baholashda, kasb tanlashda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

-qonuni. 27. Impuls.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Султонова Ў.Н. Физикадан масалалар ечиш тўғарагини ташкил этиш. / Педагогик таълим. 2005. № 4. – Б. 24-26 Sultanova. O‘.N. “The Place of Competent Approach in Interdisciplinary Relations is a Guarantee of High Efficiency”. In IJICCE, Impact Factor -:7.488 Volume 9, Issue 5, May 2021.

<http://ijicce.com/admin/main/storage/app/pdf/Sx97XFNk9dc709DHPqRISxu4gNd3dfKKSZYTV5ug.pdf>

2. Sultanova O‘.N. “Based on students’ competency-based approach to physics solve experimental and graphical problems”. Impact Factor -7.472; In Volume 9, Issue 5, May, 2021. <https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/51/51>

3. Sultanova O‘.N. Technology for solving problems using graphical methods in mathematics lessons and circle lessons . Impact Factor -7.492; Vol. 10, Issue 11, November-.:2020й,2265-2275.Б

<https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=10&issue=11&type=toc>

4. Ў.Н.Султонова “утройство для контроля физико-химических параметров питьевой воды”. “техника ва технологик фанлар соҳаларининг инновацион масалалари” мавзусидаги халқаро илмий-техник анжумани.-.: 2020 йил 22 сентябрь. -с. 393-395 б.

5. Ў.Н.Султонова ў.н. .“физикани ўқитиш технологиялари ва лойиҳалаштириш”. “техника ва технологик фанлар соҳаларининг инновацион масала-лари” мавзусидаги халқаро илмий-техник анжумани. -:2020 йил 22 сентябрь. - 410-412. Б

6. Ў.Н.Султонова ў.н. Formation of basis competences for students bu solving problems in physics. Page-.:107-114 vol 7 no 11.2019.

7. Б.Тўраев, султонова ў.н. физикадан савол ва масалалар тўплами дарслик.- т.:2021. -365 бет.

8. Султонова ў.н., султонов с.н. автоматизация эксперимента в лабораторном комплексе по механике. //высшая школа.-.: 2018, 24 сон. 32-33.б

9. Султонова ў.н. кадилова н.т. султонов с.н. жиянова с.и. паянова с.к. “technology to improve the methods of teaching physics in higher education based on a competency approach (on the example of training technical engineers)” european journal of molekular & klinikal medicine issn 2515-8260 volume 7 issue -:2020 й, 365-374.б

Султонова ў.н. тўраев б.э. султонов с.н. “физика фанидан муаммоли масалалар ечишда компетенциявий ёндашув” выпуск 6 (50) f.a mamadaliev, egyptian triangle (books 1, 2,3) t/ “renessans press”-.: 2018 й, 144-149.б

<http://ijirce.com/admin/main/storage/app/pdf/Sx97XFNk9dc709DHPqRISxu4gNd3dfKKSZYTV5ug.pdf>

1. Sultanova O'.N. “Based on students’ competency-based approach to physics solve experimental and graphical problems”. Impact Factor -7.472; In Volume 9, Issue 5, May, 2021. <https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/51/51>

2. Sultanova O'.N. Technology for solving problems using graphical methods in mathematics lessons and circle lessons . Impact Factor -7.492; Vol. 10, Issue 11, November-.:2020й, 2265-2275.Б

<https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=10&issue=11&type=toc>

3. Ў.Н.Султонова “утройство для контроля физико-химических параметров питьевой воды”. “техника ва технологик фанлар соҳаларининг инновацион масалалари” мавзусидаги халқаро илмий-техник анжумани.-.: 2020 йил 22 сентябрь. -с. 393-395 б.

4. Ў.Н.Султонова ў.н. .“физикани ўқитиш технологиялари ва лойиҳалаштириш”. “техника ва технологик фанлар соҳаларининг инновацион масала-лари” мавзусидаги халқаро илмий-техник анжумани. -.:2020 йил 22 сентябрь. - 410-412. Б

5. Ў.Н.Султонова ў.н. Formation of basis competences for students bu solving problems in physics. Page-.:107-114 vol 7 no 11.2019.

6. Б.Тўраев, султонова ў.н. физикадан савол ва масалалар тўплами дарслик.- т.:2021. -365 бет.

7. Султонова ў.н., султонов с.н. автоматизация эксперимента в лабораторном комплексе по механике. //высшая школа.-.: 2018, 24 сон. 32-33.б

8. Султонова ў.н. кадилова н.т. султонов с.н. жиянова с.и. паянова с.к. “technology to improve the methods of teaching physics in higher education based on a competency approach (on the example of training technical engineers)” european journal of molekular & klinikal medicine issn 2515-8260 volume 7 issue -.:2020 й, 365-374.б

9.Султонова ў.н. тўраев б.э. султонов с.н. “физика фанидан муаммоли масалалар ечишда компетенциявий ёндашув” выпуск 6 (50) f.a mamadaliev, egyptian triangle (books 1, 2,3) t/ “renessans press”-.: 2018 й, 144-149.б

10..Султонова Ў.Н., Холмуродов М. Физика ўқитишда янги педагогик технологиянинг дидактик асослари. Услубий қўлланма. –Термиз, 2012. -64 б.

## SHREDINGER OPERATORI DISKRET SPEKTRINING XOS QIYMATLARI HAQIDA

Norqo‘ziyev Jahongir Sherali o‘g‘li

Termiz muhandislik-texnologiya instituti assistenti

[1] ishda  $d = 1, 2, \dots$  - o‘lchamli  $\mathbb{Z}^d$   $\mu > 0$  potentsialli ikkita bir xil zarrachali (bozon) sistema panjarada juft-jufti bilan kontakt ta’sirlashuvchi gamiltonianiga mos ikki zarrachali diskret Shredinger operatori  $h_\mu(k)$ ,  $k \in \mathbb{T}^d$ ,  $d = 1, 2$  qaralgan. Ushbu operator xos qiymati uchun muhim spektr tubidagi yoyilmalar olingan.

[2] ishda ixtiyoriy o‘lchamli panjarada qo‘shni tugunlarda ta’sirlashuvchi ikkita fermionli sistema gamiltonianiga mos  $h_\mu(k)$ ,  $k \in \mathbb{T}^d$  ikki zarrachali diskret Shredinger operatori qaralgan.  $h_\mu(k)$  ning zarrachalar ta’sirlashuv energiyasi  $\mu > 0$  va sistema kvaziimpul’si  $k \in \mathbb{T}^1$  ga bog‘liq muhim spektrdan o‘ngda yoki yagona xos qiymatga ega yoki xos qiymatga ega emasligi isbotlangan.

Ushbu ishda ikki o‘lchamli panjarada qo‘shni tugunlarda ta’sirlashuvchi ikkita fermionli sistema gamiltonianiga mos  $h_\mu(k)$ ,  $k \in \mathbb{T}^2$  ikki zarrachali diskret Shredinger operatori qaraladi.  $h_\mu(k)$  operatorning muhim spektrdan chapda xos qiymatga ega yoki xos qiymatga ega bo‘lmaydigan qiymatlari ajratib ko‘rsatiladi. Sistema kvaziimpulsining ba’zi qiymatlarining aniq ko‘rinishi topilgan.

Faraz qilaylik  $\mathbb{T}^2$  - ikki o‘lchamli tor, ya’ni qarama-qarshi tomonlari ayniy  $(-\pi, \pi]^2$  kvadrat bo‘lsin. Uni qo‘shish va songa ko‘paytirish amallari  $\mathbb{R}^2$  da  $(2\pi\mathbb{Z})^2$  modul bo‘yicha qo‘shish va songa ko‘paytirish amallari kabi kiritilgan abel guruhi deb qarash mumkin.

$L_2(\mathbb{T}^2)$  -orqali  $\mathbb{T}^2$  da aniqlangan kvadrati bilan integrallanuvchi funksiyalarning gilbert fazosini belgilaymiz.

$L_2^t(\mathbb{T}^2) = \{f \in L_2(\mathbb{T}^2) : f(-\mathbf{q}) = -f(\mathbf{q})\}$  – Hilbert fazosida quyidagicha aniqlangan  $h_\mu(k)$ ,  $k \in \mathbb{T}^2$ , operatorni qaraymiz

$$h_\mu(k) = h_0(k) - \mu v.$$

Qo'zg'almas  $h_0(k)$  operator  $E_k(q)$  funksiyaga ko'paytirish operatoridir, ya'ni

$$(h_0(k)f)(\mathbf{q}) = E_k(\mathbf{q})f(\mathbf{q}), \quad f \in L_2^t(\mathbb{T}^2),$$

bunda

$$E_k(\mathbf{q}) = \varepsilon\left(\frac{k}{2} + \mathbf{q}\right) + \varepsilon\left(\frac{k}{2} - \mathbf{q}\right),$$

$$\varepsilon(\mathbf{q}) = \sum_{i=1}^2 (1 - \cos q^{(i)}).$$

Ta'sir operatori (qo'zg'alish operatori)  $v - L_2^t(\mathbb{T}^2)$  Hilbert fazosida quyidagicha aniqlanadi:

$$(vf)(\mathbf{q}) = \frac{1}{(2\pi)^2} \sum_{i=1}^2 \sin q^{(i)} \int_{\mathbb{T}^2} \sin t^{(i)} f(\mathbf{t}) dt.$$

Ravshanki,  $v$ - integral operator bo'lib, rangi 2 - dan oshmaydi. Muhim spektr turg'unligi haqidagi Veyl teoremasiga ko'ra ([4] ga q.)  $h_\mu(k)$  operatorning muhim spektri  $\sigma_{ess}(h_\mu(k))$  berilgan  $\mu \geq 0$  parametrdan bog'liq emas va  $h_0$  operatorning spektri bilan ustma-ust tushadi. Shunday qilib

$$\sigma_{ess}(h_\mu(k)) = [\varepsilon_{min}(k), \varepsilon_{max}(k)]$$

tenglik o'rinli, bunda

$$\varepsilon_{min}(k) = \min_{\mathbf{q} \in \mathbb{T}^2} E_k(\mathbf{q}) = 2 \sum_{j=1}^2 \left(1 - \cos \frac{k^{(j)}}{2}\right) \geq 0,$$

$$\varepsilon_{\max}(k) = \max_{q \in \mathbb{T}^2} E_k(q) = 2 \sum_{j=1}^2 \left( 1 + \cos \frac{k^{(j)}}{2} \right) \leq 8$$

$\Pi$ – orqali  $(-\pi, \pi]^2$  kubning chegarasini belgilaymiz. Aniqlanishiga ko‘ra

$$\Pi = \{k = (k^{(1)}, k^{(2)}) \in \mathbb{T}^2: \text{birorta } j = 1, 2 \text{ uchun } k^{(j)} = \pi\}$$

Har bir  $k \in \mathbb{T}^2 \setminus \Pi$  uchun quyidagicha belgilashlarni kiritamiz:

$$v^{(i)}(k) = \frac{1}{(2\pi)^2} \int_{\mathbb{T}^2} \frac{\sin^2 q^{(i)} dq}{E_k(q) - \varepsilon_{\min}(k)}$$

va

$$\mu^{(i)}(k) = \frac{1}{v^{(i)}(k)} > 0.$$

Aytish joizki, har bir  $k \in \mathbb{T}^2 \setminus \Pi$  uchun

$$E_k(q) = 2 \sum_{j=1}^2 \left( 1 - \cos \frac{k^{(j)}}{2} \cos q^{(j)} \right)$$

funksiya  $q = (0, 0)$  nuqtada aynimagan minimumga ega bo‘lganligi uchun yuqoridagi integral chekli.

$\Pi_{k_1}$  – orqali quyidagi to‘plamni belgilaylik:

$$\Pi_{k_1} = \{k \in \mathbb{T}^2: k_2 = \pi\}$$



**Teorema.**  $k_1 = (k, \pi)$  bo'lsin, ya'ni  $k \in \Pi_{k_1}$ . U holda  $0 < \mu < 2 \cos \frac{k_1}{2}$  bo'lsa,

$h_\mu(k_1)$  operator muhim spektrdan chapda yagona xos qiymatga ega va  $\mu > 2 \cos \frac{k_1}{2}$  bo'lsa, muhim spektrdan chapda ikkita xos qiymati mavjud hamda ushbu xos qiymatlar quyidagi ko'rinishga ega:

$$z = 4 - \sqrt{4 \cos^2 \frac{k^{(2)}}{2} + \frac{\mu^2}{4}},$$

$$z = 4 - \left( \frac{2 \cos \frac{k_1}{2}}{\mu} + \frac{\mu}{2} \right).$$

Endi ishimizni ikkinchi qismiga o'tamiz.

Har bir  $k \in \mathbb{T}^2 \setminus \Pi$  uchun quyidagi to'plamni kiritamiz:

$$M_{>}(k) = \{\mu \in \mathbb{R}_+ : \mu > \mu_i(k), i = 1, 2\}$$

**Teorema.**  $\mu \in M_{>}(k), i = 1, 2, k \in \mathbb{T}^2$  bo'lsin. U holda  $h_\mu(k)$  operator muhim spektrdan chapda ikkita xos qiymatga ega.

**Eslatma.**  $k_1 = (\pi; 0)$  bo'lsin, ya'ni  $k_1 \in \Pi$ . U holda  $\mu_{(1)}(k_1) = 0$  va  $\mu_{(2)}(k_1) = 2$  tenglik o'rinli.

**Teorema.**  $k = k_1$  bo'lsin. U holda agar  $0 < \mu < 2$  bo'lsa,  $h_\mu(k_1)$  operator muhim spektrdan chapda yagona xos qiymatga ega va  $\mu > 2$  bo'lsa ikkita xos qiymati mavjud hamda ushbu xos qiymatlar quyidagi ko'rinishga ega:

$$z^{(1)}(\mu, k_1) = 4 - \sqrt{4 + \frac{1}{4}\mu^2},$$

$$z^{(2)}(\mu, k_1) = 4 - \left( \frac{\mu}{2} + \frac{2}{\mu} \right).$$

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. С.Н. Лакаев, А. М. Халхужаев, Ш. С. Лакаев. Разложение для собственных значений двухчастичного оператора Шрёдингера. ТМPh (2012).
2. С.Н. Лакаев. Об эффекте Ефимова в системе трёх одинаковых частиц. Функ. анализ и его пр. Т. 27. Вып. 3. 15-28. (1993).
3. S.N. Lakaev, A.M. Khalkhuzhaev. The number of eigenvalues of the twoparticle discrete Schroedinger Operator, Theoret.and Math. Physics, 158 (2): 220-231 (2009).
4. M. Reed and B. Simon: Methods of modern mathematical physics. IV: Analysis of operators. Academic Press, N.Y., 1978.

## ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ТАЛАБАЛАРНИНГ МУСТАҚИЛ ИЖОДИЙ ФАОЛИЯТИНИ КОМПЕТЕНЦИЯВИЙ ЁНДАШУВ АСОСИДА ТАШКИЛ ЭТИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ

**Паянова Ф.К.**

Термиз муҳандислик-технология институти ассистенти

***Аннотация.** Ҳозирги кунда таълим сифатини ошириши олий таълим тизимида энг муҳим вазифалардан бири бўлиб, касбий даражада таълим беришининг амалга оширилиши жаҳон талаблари даражасидаги рақобатбардош техник муҳандислар тайёрлашда талабаларнинг мустақил ижодий фаолиятини компетенциявий ёндашув асосида такомиллаштириши масаласи ҳозирда дунё олий таълимида қизгин муҳокама қилиниши мақолада ўз аксини топган.*

***Калит сўзлар.** Компетенция, фаолият, дидактика, метод, мустақил, тамойил, интерактив, ижодий фаолият.*

**Кириш.** Олий таълим муассасаларида умумий физика ва унинг бўлимларини ўрганиш жараёнида педагогиканинг муҳим тамойилларидан бири бўлган–изчиллик тамойилининг амалда қўлланилиши муҳим натижаларга олиб келишини назардан четда қолдирмаслик лозим.

**Мавзу баёни.** Компетенциявий ёндашув асосида талабаларнинг мустақил ижодий фаолиятини ривожлантиришда изчиллик тамойилини тўғри ташкил этиш натижасида, маънавий-ахлоқий жиҳатдан етук, мустақил дунёқарашга эга, ижодий фикрловчи, миллий кадриятларга садоқатли баркамол шахсни тарбиялаб, вояга етказишдек устувор вазифаларни адо этиш мумкин. Талабаларнинг мустақил ижодий фаолиятини ташкил этишда билиш

қонуниятларидан қандай фойдаланиш мумкинлигини ўрганиш учун педагогик-психологик тамойилларга амал қилиш таълимнинг янги -интерактив методларидан фойдаланиш зарур. Демак, олий таълимдаги ўқитиш назариясининг қонуниятлари ўқув жараёнини самарали ташкил этиш ва режалаштириш, ривожлантириш таълимда туб бурилиш қилиш лозимлигини кўрсатади. Компетенциявий ёндашув асосида талабаларнинг мустақил ижодий фаолиятини ривожлантиришда уларни жамият талаблари ва ривожланишига мувофиқ ўқитиш, таълим-тарбиянинг объектив қонуниятлари, ўқув жараёнидаги шароит муҳим аҳамиятга эгадир.

Педагогикада мустақил ижодий фаолиятини компетенциявий ёндашув асосида ўрганишда дидактика (юнонча «systema» – яхлит қисмлардан ташкил топган, бирлаштириш) – маълум мезонлари асосида таълим жараёнининг яхлит ҳолатини белгилаш, қисмларга ажратиб кўрсатиш демакдир. У таълимнинг мақсади, тамойиллари, мазмуни, шакли, метод ва воситаларининг бирлиги асосида ташкил этилган тузилмаларнинг ички яхлитлигини ифодалайди. Ўқитишнинг замонавий тамойилларини асослашда олий таълим муассасаларида дидактиканинг қуйидаги асосий тушунчаларни назарда тутати:

олий таълим муассасаларида талабаларнинг мустақил ижодий фаолияти жараёнининг ташкил этилишини илмий ишларга яқинлаштириш;

мустақил ўқиш-билиш фаолиятида талабаларнинг юқори фаоллиги интилувчанлиги, изланувчанлиги, тадқиқотчиликни таъминлаш;

Компетенциявий ёндашув асосида талабаларнинг мустақил ижодий фаолиятини ривожлантириш объектларига қуйидагилар киради:

1) таълим –тарбияга эътиборимизни қаратиб мустақил ижодий фаолиятини компетенциявий ёндашув асосида назарий билимларни пухта бериш асосида талабаларда амалий кўникма ва малакаларни шакллантириш, уларнинг билиш қобилиятларини ўстириш муҳандисликка бўлган қизиқишларини

ривожлантириб, такомиллаштириш, дунёқарашларини ўстиришга йўналтирилган жараён;

2) Машғулот- мустақил ижодий фаолиятини компетенциявий ёндашув асосида шакллантириш вақтида ўқитувчи раҳбарлигида олиб бориладиган таълим жараёнининг асосий шакли;

3) кўникма–талабанинг фанни ўрганишга бўлган қизиқишлари, малака-муайян ҳаракат ёки фаолиятни бажаришдаги тезкорлиги шакли;

4) билим олиш–диққат билан мустақил ишлаш тинглаш, тушунишга ҳаракат қилиш фикрлаш идрок этиш, ўрганиш, машқ қилиш ва муайян тажриба асосида хулқ-атвор ҳамда фаолият кўникма, малакаларининг мустаҳкамланиб, мавжуд билимларни мустақил равишда такомиллаштириб, бойитиб бориш жараёнидир;

5) таълим жараёни – мустақил ижодий фаолиятини компетенциявий ёндашув асосида ўргатувчи ва талабалар ўртасида ташкил этилувчи ҳамда илмий билимларни ўзлаштиришга йўналтирилган педагогик жараён;

6) ўқув фани – таълим муассасаларида ўқитилиши йўлга қўйилган ҳамда ўзида муайян фан соҳаси бўйича умумий ёки мутахассислик билим асосларини жамлаган мустақил равишда ўрганиладиган китоблар тўплами;

7) таълим методлари - таълим ва мустақил таълим жараёнида қўлланилиб, унинг самарасини таъминловчи методлар мажмуи;

8) таълим воситалари–таълим самарадорлигини таъминловчи объектив дарслик, ўқув қўлланмалари, ўқув қуроллари, харита, диаграмма, плакат, расм, чизма, диапроектор, магнитофон, видеомагнитофон, телевизор, радио, компьютер ва бошқалар ва субъектив (ўқитувчининг нутқи, намунаси, муайян шахс ҳаёти ва фаолиятига оид мисоллар ва ҳоказолар) ва бошқа омиллар мужассамлаштирилади.

9) таълим мазмуни – давлат таълим стандартлари асосида белгилаб берилган ҳамда маълум шароитда ўргатиладиган фанлар бўйича ўзлаштирилиши назарда тутилган илмий билимлар манбайи;

10) таълим мақсади - ўқиш, билим олиш – таълимнинг аниқ йўналишини белгилаб берувчи етакчи ҳисобланади;

11) таълим натижаси- таълим самараси, маҳсули бўлиб – ўқув жараёнининг маҳсули; белгиланган мақсадни амалга ошириш даражаси;

12) таълимни бошқариш – таълим муассасаларининг фаолиятини йўлга қўйиш, бошқариш, назорат қилиш ҳамда истиқболларини белгилаш ва такомиллаштириш;

13) таълим маскани- талабаларга таълим-тарбия бериш йўлида давлат тамойиллари асосида фаолият юритаётган барча турдаги ўқув-тарбия муассасалари жамланмаси;

Олий таълим муассасаларида талабаларнинг шахсий ривожланиши уларнинг ўз касбига бўлган қизиқишлари танлаган касбларини пухта ўрганишига йўналганлиги, мустақил фикрлашлари, фаол бўлишлари ҳамда дунёқарашлари шаклланганлиги ва ўзини ўзи тарбиялашга бўлган эҳтиёжларининг шаклланиши каби ҳолатлар билан тавсифланади. Талаба ижодий фаолиятини муваффақиятли амалга оширишда, бизнинг фикримизча касбий жиҳатдан аҳамиятли саналган сифат, билим, кўникма ва малакаларни шакллантириш, ривожлантириш ҳамда ўзини-ўзи такомиллаштириш ва энг муҳими мустақил ижодий фикрлашини оширишдир.

**Хулоса.** Сўнгги йилларда физиканинг инсоният жамияти ҳаётидаги аҳамияти ортиши баробарида юртимизда физика фанига бўлган эътибор ортиб бормокда. Физиканинг юқори даражада юксалиши, мустақил ижодий фаолиятни компетенциявий ёндашув асосида ривожлантириш бир қатор билим соҳаларининг юксалиши ва самарадорлигининг зарурий шартидир.



**Фойдаланилган адабиётлар.**

1. Усаров Ж.Э. Физика ўқитиш жараёнида ўқувчилар компетенция-ларини ривожлантиришнинг дидактик жиҳатлари. Монография. – Тошкент: «Mashhurpress», 2019. - 192 б.
2. Лернер И.Я. Дидактические основы методов обучения. -М.: Педагогика, 1981. – 186 с.
3. Султонова Ў.Н., Холмуродов М. Физика ўқитишда янги педагогик технологиянинг дидактик асослари. Услубий қўлланма. –Термиз, 2012. -64 б.
4. Паянова Ф.К.”Физика дарсларида талабалар мустақиллигига эътибор юксак самарадорлик гарови”Scientific Journal Scholar 2023 january 172-бет.

## INGLIZ TILIDA SO‘Z TURKUMLARI TASNIFI MASALALARI SHARHI

**Aliyeva Navruza (PhD)**, FarDU o‘qituvchi

**Shodiyeva Gulrux Nazir qizi**

FarDU magistranti

*Annotatsiya.* So‘zlar, eng avvalo, anglatgan tushunchalariga ko‘ra ma’lum turkumlarga bo‘linadi. Tildagi so‘zlar bir-biridan nafaqat anglatgan aniq ma’nolari bilan, grammatik xususiyatlari bilan ham farqlanadi. Umumiy semantik va grammatik xususiyatlari bilan ajralib turadigan so‘zlarning eng katta guruhlari so‘z turkumlari deyiladi.

*Kalit so‘zlar:* tilshunoslik, so‘z turkumlari, ingliz tili, morfologiya.

### KIRISH

So‘z turkumlari tilshunoslar tomonidan uzoq yillar davomida o‘rganib kelinayotgan bo‘lsa-da, ingliz tilida ham hamon aniq bir to‘xtamga kelinmagan. Bunday deyishimizga sabab leksemalarni ma’lum bir sinfini aniqlashda subyektiv usullar bo‘lib, biz bu borada turlicha tasniflarga duch kelishimiz mumkin.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Tilshunoslar so‘zlarni turkumlarga ajratuvchi mezonlar, belgilar to‘g‘risida ham turli qarashlarni bayon etganlar. Olimlar orasida asosan quyidagi savollar o‘zaro tortishuvlarga sabab bo‘lmoqda: a) so‘zlarni turkumlarga ajratish kerakmi yoki kerak emasmi? b) so‘z turkumlarining soni nechta? v) so‘z turkumlarining qaysilari asosiy (mustaqil) va qaysilari yordamchi? g) so‘zlarni turkumlarga ajratishda qaysi tamoyillarga tayanish kerak? Bunday savollarning tug‘ilishiga sabab: a) muayyan so‘z turkumlariga kiritish qiyin bo‘lgan so‘zlarning mavjudligi, masalan, sifatdosh bir

vaqtning o'zida ham fe'llik ham sifatlik xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirishi; b) so'zlarning bir turkumdan ikkinchi turkumga doimiy o'tib turishi; c) ayrim konstruksiya va iboralarda so'zlarning turkumiy belgilari qat'iy belgilanmasligi kabilardir.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Ingliz tilida so'z turkumlarining tasnifi uchta tamoyilga asoslanadi: ma'no, shakl va vazifa. *Ma'no deganda* har bir so'zning alohida ma'nosini emas, balki bir sinfga tegishli so'zlarning ma'nosini tushunamiz. Masalan, otning ma'nosi narsalik yoki predmetlik (thing - ness), shakl deganda esa biz so'z turning morfologik tasniflanishini tushunamiz. Masalan, otlar birlik va ko'plik kategoriyasi bilan tavsiflanadi, fe'llar esa zamon, nisbat, mayl kabilar orqali tavsiflanadi. Ba'zi so'z turkumlari (predloglar , bog'lovchilar) o'zgarmasligi bilan xarakterlanadi.

*Vazifa deganda* biz, so'zlarning sintaktik funksiyalarini tushunamiz. Masalan, boshqa so'zlar bilan birika olishi yoki uning gapdagi vazifasi. Tilshunoslar orasida so'z turkumlarining tasniflanishi turlichadir.

Ingliz tili ilmiy grammatikasining birinchi muallifi bo'lmish G.Suit so'z turkumlarini o'zgaradigan (declinable) va o'zgarmaydigan ( indeclinable) 2 asosiy guruhga ajratadi. Bu tasnifida u morfologik xususiyatlarni asosiy deb hisoblaydi. B.Ilyish so'z turkumlarini 12 ta turga ajratadi (6 ta mustaqil va 6 ta yordamchi – prepositions, conjunctions, particles, modal words, articles, interjections).

B.S.Xaymovich va B.I.Rogovskayalar so'z turkumlarini 14 taga bo'lib (6 ta mustaqil, 8 ta yordamchi-prepositions, conjunctions, particles, modal words, articles, interjections, response words, state words) leksemalarning quyidagi 5 xususiyatiga ko'ra turkumlarga ajratadi:

- 1) leksik-grammatik ma'nosiga ko'ra;
- 2) leksik-grammatik morfemalarga ko'ra;
- 3) grammatik kategoriyalariga ko'ra;
- 4) boshqa so'zlar bilan birikishiga ko'ra;

5) gapdagi vazifasiga ko'ra<sup>1</sup>.

Akademik A.A.Shaxmatovning fikricha, so'z turkumlari sintaksisda o'rganilishi kerak<sup>2</sup>. Tilshunos olim B.Ilyish so'z turkumlari nazariyasini ba'zi sintaktik jihatlarini ham o'z ichiga olgan holda morfologiyaning asosiy qismi deb qaraydi<sup>3</sup>. Tilshunos olim E.M.Gordon so'z turkumlariga quyidagicha to'xtalib o'tadi<sup>4</sup>: "Har bir tildagi mavjud so'zlar ma'lum so'z turkumlariga mansub bo'lib, har bir so'z turkumi o'z xususiyatiga ega. So'z turkumlari bir-biridan ma'nosi, shakli va gapdagi vazifasiga ko'ra farq qiladi". J.Bo'ronov, M.Bo'ronova<sup>5</sup>, M.Toshboyevalar tomonidan yozilgan "Ingliz tili grammatikasi" kitobida so'z turkumlari 14 da deb ko'rsatiladi:

1. Ot (Noun). 2. Sifat (The Adjective) 3. Olmosh (The Pronoun). 4. Son (The Numeral). 5. Fe'l (the Verb). 6. Ravish (The Adverb). 7. Holat kategoriyasi (The category of State). 8. Modal so'zlar (The Modal words). 9. Predlog (The Preposition). 10. Yuklama (The Particle). 11. Bog'lovchi (The Conjunction). 12. Undov so'zlar (The Interjection). 13. Artikl (The Article). 14. Javob so'zlar (The Response Words)<sup>6</sup>.

V.L.Kaushanskayaning "A Grammar of English language" asarida so'z turkumlari quyidagilarga ajratiladi: *ot, sifat, olmosh, son, fe'l, ravish, holat kategoriyasi, modal so'zlar, undov so'zlar*; yordamchi so'z turkumlari: *predlog, bog'lovchi, yuklama, artikl*.

Tilshunos olimlar K.N.Kachalova, E.E.Izrailevichlar 7 so'zlarni quyidagi belgilariga ko'ra turkumlarga ajratadilar:

---

1 O'.U. Usmonov, Sh.S. Ashurov "Ingliz tili nazariy grammatikasi", Samarqand, 2007, b.-20

2 A.A.Шахматов "Синтаксис русского языка" М., 1941.

3 B.Ilyish The structure of Modern English. Leningrad, 1971

4 E.M.Gordon, I.P.Krylova "A Grammar of Present – Day English" М., 1974

5 Bo'ronov J.B., M.Bo'ronova, M.Toshboyaev. "Ingliz tili Grammatikasi" T.1978, 5-bet.

6 Ganshina M.A. va Voselevskaya, "English Grammar", Higher School Publish House, M.,1964.

7 К.Н.Качалова, Е.Е.Израилевич "Практическая грамматика английского языка" М., 1996.

- 1) ma'nosiga ko'ra;
- 2) gapdagi vazifasiga ko'ra;
- 3) so'z yasash shakliga ko'ra;
- 4) so'z o'zgarish shakliga ko'ra.

Ingliz tilida so'z yasash shakli va so'z o'zgarishi bir so'z turkumini boshqa so'z turkumidan ajratishda unchalik ahamiyat kasb etmaydi. Tilshunos olim K.N.Kachalova<sup>8</sup> so'z turkumlarini quyidagi so'z turkumlariga ajratadi: ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish, predlog, bog'lovchi, undalma. Olim ot, sifat, son, olmosh, fe'l va ravishni ularning gapdagi predmetni, belgini, ish-harakatni va gapda ma'lum bir sintaktik vazifani bajarganligi uchun mustaqil so'z turkumlariga, predlog, bog'lovchi va artiklni yordamchi so'z turkumlariga ajratadi. Undalmani mustaqil so'z turkumiga ham, yordamchi so'z turkumiga ham kiritmaydi, chunki ular gapda hech qanday sintaktik vazifa bajarmaydi.

Bundan tashqari tilshunos olim E.M.Gordon<sup>9</sup> so'zlarni 3 asosiy guruhga bo'ladi: 1) mustaqil so'zlar 2) yordamchi so'zlar 3) mustaqil elementlar.

Mustaqil so'zlarning aniq leksik ma'nosi bo'lib, ular gapda mustaqil vazifa bajaradi. Ular gapda gapning bosh bo'laklari bo'lib kelishi mumkin. Mustaqil so'zlarga fe'l, ot, sifat, son, olmosh va ravish so'z turkumlariga kiruvchi so'zlar kiradi.

Yordamchi so'zlar mustaqil so'zlardan semantik jihatdan farq qiladi. Yordamchi so'zlar gapda biror bir funksiyani bajarmaydi. Lekin ular gapda so'zning ma'nosini aniqlaydi. Masalan, "the" yoki "a" artikllarini olib qaraydigan bo'lsak, A table- stol (noma'lum). Ingliz tilida artikl, yuklama, predlog va bog'lovchilar yordamchi so'z turkumlariga kiradi. Mustaqil elementlar turli ma'nolari bilan xarakterlanadi.

---

<sup>9</sup> E.M.Gordon, I.P.Krylova "A Grammar of Present – Day English" M., 1974

Mustaqil elementlar gapda hech qanday sintaktik vazifani bajarmaydi. Masalan, He **certainly** knows all about it. (U, **albatta**, buni biladi.)

Mustaqil elementlar ba'zan bitta gapni tashkil qilishi ham mumkin. Masalan, Yes. No. Alas.

Mustaqil elementlarga E.M.Gordon<sup>10</sup> quyidagilarni kiritadi:

1. Modal so'zlar (Modal words).
2. His-hayajon so'zlar (Exclamatory words).
3. Tasdiq va inkor so'zlar (Tag questions).

### **XULOSA VA MUNOZARA**

- Ingliz tilidagi so'z ko'pincha morfologik jihatdan belgilanmaydi va so'zlarning bir sinfdan ikkinchisiga o'tishi oson (ot, sifat, fe'l, predlog sifatida). Bunday so'zlar yo leksik-grammatik omonimlar yoki bir sinfga mansub so'zlar sifatida qaraladi.

- Ingliz tilshunosligida ham so'zlarni turkumlarga ajratishda affikslarning ham ahamiyati birmuncha muhim. Biroq, ingliz tilida bu mezon har doim ham e'tiborga olinmaydi, chunki ingliz tilidagi ko'p so'zlar o'zgarmasdir, shu bois anchagina so'zlarda hosila affikslari yo'q.

- Hozirgi ingliz tilida ichki fleksiya juda keng qo'llanmasa-da, hamon o'z ifodasini yo'qotgani yo'q. Bu xususiyat biz obyekt sifatida o'rganayotgan o'zbek tiliga xos emas.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'.U. Usmonov, Sh.S. Ashurov “ Ingliz tili nazariy grammatikasi ”, Samarqand, 2007, b.-20

2. Usmanova, M. (2016). SOME NOTE OF SIMPLIFICATION OF MORPHEMIC STRUCTURE OF THE UZBEK LANGUAGE. *Theoretical & Applied Science*, (11), 27-31.

---

<sup>10</sup> E.M.Gordon, I.P.Krylova “A Grammar of Present – Day English” M., 1974



3. Mohira, U. (2016). Units Completely Simplified on Morphemic Structure. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 3(3), 20-25.
4. Usmanova, M. (2023). SIMPLIFICATION COMPOUND WORDS IN UZBEK LANGUAGE. *Science and innovation*, 2(B2), 581-584.
5. qizi Barnoyeva, S. U. (2023). RUS VA O‘ZBEK POLISEMANTIK FITONIMLARINI LINGVOKULTUROLOGIK YO‘NALISHDA O‘RGANISH. “*TRENDS OF MODERN SCIENCE AND PRACTICE*”, 1(3), 74-78.
6. Saidova, N. (2023). DIFFERENT APPROACHES TO DETERMINE THE ESSENCE OF PROFESSIONAL COMPETENCES OF FUTURE TEACHERS. *Science and innovation*, 2(B2), 503-506.
7. Saidova, N. (2022). БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚИТУВЧИСИНИНГ АХБОРОТ–КОММУНИКАТИВ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНИШ КОМПОНЕНТЛАРИ. *Science and innovation*, 1(B6), 865-868.
8. qizi Xalilova, Z. M. (2022). ТОПОНИМЛАРНИ О‘RGANISH JARAYONIDAGI LINGVODIDAKTIK MUAMMOLAR VA ULARNING MUQOBIL YECHIMI. *INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING*, 1(8), 545-547.
9. Abdusattorovich AV. EXPRESSION OF THE CONCEPT OF FAMILY IN PROVERBS AND SAYINGS IN THE UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES. *IJODKOR O‘QITUVCHI*. 2022 Dec 2;2(24):286-9.
10. Xalilova, Z. (2023). OILA KONSEPTINING SEMANTIK-FRAMIK STRUKTURASI. *Talqin va tadqiqotlar*, 1(21).
11. Xalilova, Z. M. Q. (2022). Semantic-framic structure of family concept. *Science and Education*, 3(11), 1349-1352.

## ADABIY HIKOYALARDA SATIRANING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Rasulova Soxiba Ulug'bekovna

SamDCHTI o'qituvchisi

*Annotatsiya:* Maqolada satira va uning matnda qo'llanishi ma'no jihatdan o'rganiladi va misollar asosida tahlil qilinadi. Satira ijtimoiy kurashning eng muhim vositasi bo'lib, unga tarixiy sharoit, milliy va ijtimoiy taraqqiyotga faol ta'sir ko'rsatishi keng muhokama qilinadi. Muallif bu borada olib borgan izlanishlari asosida mavzuga chuquroq yondashadi.

*Kalit so'zlar:* Satira, mubolag'a, bo'rttirish, badiiy matn, yumor, kesatiq kulgi.

Adabiyotdagi satira - bu qoida tariqasida, grotesk yoki giperbolaga tayanadigan, tasvirlangan narsaning xususiyatlarini ataylab buzib ko'rsatadigan, bo'rttiradigan tasvir. Lekin u yoki bu kamchilikni masxara qilib, inkor etib, muallif estetik ideal nima ekanligini hamisha ochiq ko'rsatib beradi. Satira (lot. satira — qurama, har xil narsa) — komiklik turi bo'lib, tasvir ob'yektini ayovsiz kulgi vositasi orqali anglash. Voqelikni badiiy aks ettirishning o'ziga xos usuli bo'lib, unda jamiyatdagi bema'ni, asossiz, noto'g'ri hodisalar, illatlar fosh qilinadi. Voqealarning real ko'rinishini o'zgartirib, oshirib, borttirib, mubolag'a qilish, keskinlashtirish va shartlilikning boshqa ko'pgina turlari yordamida yaratilgan obraz orqali Satira. Ob'yektiga "ishlov" beriladi. Satira muallifi komiklikning boshqa turlaridan (*yumor, hikoyava* boshqalar) ham foydalanishi mumkin, biroq Satira uchun salbiy tuyg'u berib, keskin ifodalangan estetik obyekt xarakterli hisoblanadi. Satira *Qadimgi Rimda* lirikaning fosh qiluvchi janri sifatida tan olingan. Keyinchalik o'zining janriy xususiyatlarini yo'qota borib, ko'pgina janrlar (*masal, epigrama, burleska, pamflet, felyeton, komediya va satirik roman*)ning o'ziga xos xususiyatini belgilovchi adabiy jinsga o'xshab qoladi. Satira

ijtimoiy kurashning eng muhim vositasi bo'lib, unga tarixiy sharoit, milliy va ijtimoiy taraqqiyot faol ta'sir ko'rsatadi. Satiraning ma'naviy ta'sir kuchining o'tkirligi unda inkor qiluvchi kulgu orqali yaratilgan idealning umumxalq va universal bo'lishi bilan belgilanadi. Satiraning estetik vazifasi tubanlik, nodonlik va boshqa ijtimoiy illatlarga qarama-qarshi tarzda kishilarda yuksak insoniy tuyg'ularni uyg'otish va qayta tiklashdan iborat. Satirada muallifning individualligi kulgu ostiga olingan ob'yekt haqida murosasiz fikr aytish, unga aniq g'oyaviy munosabat bildirish orqali namoyon bo'ladi. Satirik an'analar *Sharq* xalqlari ijodida qadimdan mavjud. Jahon madaniyatiga hissa qo'shgan bo'lib qo'shilgan va *Sarq adabiyoti* shuhratini keng yoygan asarlar dastlab folklorda "*Ming bir kecha*" zaminida, sanskritcha "*Panchatantra*", forsha xalq qissalari, turkumi, Nasriddin haqidagi turk va o'zbek *latifalari* asosida yaratilgan. Kitobiy (yozma adabiyotdagi) Satiralar ham Sharqda ko'pdan mashhur. Uning g'oyalari *xitoy novellalari, fors adabiyoti ruboiylari* va *hind qissalari* motivlari bilan sug'orilgan. Rus adabiyotida N.V.Gogol, M.Ye. Saltikov-Shedrin va boshqalar Satirani yuksak bosqichga ko'tardilar. O'zbek adabiyotida Satiraning ilk namunalari dastlab xalq ijodida (terma va aytishuvlar, *Nasriddin Afandi*, Aldar ko'sa obrazlarida) yaratilgan, keyinchalik yozma adabiyotda taraqqiy etgan. *Navoiy*, Turdi, Maxmur, *Gulxaniy*, Hoziq, *Muqimiy, Zavqiylar* Satira janrida ijod qildilar. Satiraning keyingi taraqqiyoti Hamza, Qodiriy, G'ozzi Yunus, So'fizoda, *G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Said Ahmad*, N.Aminov, S. Siyoyev va boshqa nomi bilan bog'liq. Satira tasviriy san'atda ham qadimdan ma'lum. *Qadimgi Rim, Xitoyda* satirik terrakota haykallar, vazalarga satirik tasvirlar va boshqa ishlangan. Rassomlik san'ati (jumladan, *grafika*) da rivojlangan. F. Goyya, O. Domye, X. Bidstrup va boshqa rassomlar ijodi Satira rivojida muhim rol o'ynagan. O'zbekistonda Satira taraqqiyotiga "*Mushtum*" jurnali, "Jangovar qalam", "O'zTAG oynasi" katta hissa qo'shgan. Falsafiy va estetik toifa sifatida komik janr zamonaviy olimlar tomonidan deyarli har tomonlama o'rganib chiqilgan. Masalan YU. Borevning fikricha: «komik shakl real hayotdagi nomuvofiqlikning shunday shakli, u estetik ideallar nuqtai –

nazaridan alohida e'tiborga molik bo'lgan haqiqatning ob'ektiv rivojlanishi qarama-qarshiligidir (maqsadning - vositalarga, shaklning – mazmunga va hokazo)». San'atda komik janr - haqiqat qarama-qarshiligining tanqid estetik formasidir». Olimning fikricha, komik janr oliy kulguni keltirib chiqarib, u ijtimoiy jihatdan inson odatlarining bir – xillarini tanqid etib, boshqalarini estetik oliy toifa darajasiga ko'taradi. San'atning boshqa turlaridagi kabi, adabiyotda komik janr nozik kulgudan, satira, kinoya, sarkazm darajasigacha namoyon bo'lishi mumkin. Ilmiy dunyoda komik janr mavjudligi borasida olimlar tomonidan hanuz diskussiyalar olib borilmoqda. Satira esa ba'zi olimlar tomonidan alohida janr sifatida qabul qilinadi. Bizning fikrimizcha esa satira va yumor bir toifadagi tushunchalar bo'lib, demakki kulgu turlari va darajasi ham turlicha bo'lishi tabiiy. A. Makaryan fikricha, - agarda satira hayotdagi barcha holatlar ustidan kuladigan bo'lsa, demak u ijtimoiy –siyosiy, estetik va ma'naviy ideallarga mos kelmaydi, ya'ni kamchiliklarga nisbatan kulgu munosabatda bo'lish, haqiqatda insonlar kamchiliklarini bartaraf eta olmaydi. Satira va yumor yonma yon turishadi, demak yumor ham, satira kabi huquqlarga ega bo'ladi, demakki u janr sifatida qabul qilinishi mumkin. Yu. Borev aytganidek, «Yumor kulgili, kinoyali munosabat aksi bo'lsada, u qattiq chaqib olishga qodir emas». Yumor mavjud holatngi bartaraf etishga emas, kamchiliklarni bartaraf etish, holatlarni rivojlantirishi mumkin. Masalan Yu. Borev, satira va yumor orasidagi farqlarni quyidagicha belgilaydi: yumor ob'ekt ustidan faqatgina kulish emas, balki yumshoq tanqid hamdir. Ammo satira va yumor orasidagi keskin farq adabiyotshunoslar tomonidan qo'yilmaydi. V. Belinskiy ta'kidlaganidek, satira asosida oddiy kinoya yoki hazil emas, balki chuqur mazmun yotishi kerak, demakki yumor ham tarkibida satira ham yotishi kerak, - deb aytgan edi M. Kolsov ham. Hozirgi kunda ham, bu fikrlarga qarshiliklar keltirilmagan. Shunday qilib, bu tushunchalarga aniqlik kiritib shuni aytish mumkinki, satira va yumor asosida kulgu yotib, kulgu hodisalar emotsional tanqididir. Yumor va satira orasida hech qanaqa farq yo'q. Kulgu odatda ijtimoiy ahamiyatga ega. Kulgi ob'ekti ijtimoiy ahamiyati

darajasi kulgi turini belgilab beradi – satira, yumor, kinoya, sarkazm va hokazo. Aynan shu darajalar asosida, biz komik fikrlash darajasini belgilashga harakat qilgan edik. Shu bilan birgalikda, biz uning alohida asarlarini baholashga aynan shu darajalar vositasida harakat qildik. Shuni ta’kidlash joizki, komik asarlar tahlili ko‘plab olimlar e’tiborini jalb etgan. Turli davrlarda yashagan olimlar komik janr darajasi va chegaralarini aniqlashga harakat qilishgan. Platon davrlaridan beri, mazkur janr ko‘plab estetikaga bag‘ishlangan asarlar diqqat markazida turib, chunki komik janrlar doimiy ravishda ijtimoiy hayot ma’naviy qadriyatlari salbiy va ijobiy baholash darajasi sifatida qabul qilingan. Bizning tez rivojlanayotgan zamonamizda, komik janr tadqiq etilishi o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan bo‘lib, ko‘plab adabiyotshunoslik doirasidagi estetik va teoretik olimlar tadqiqoti ob’ektiga aylanib ulgurgan. Ma’lumki, estetikaning bu sohasi A. Loseva, Yu. Boreva, M. Baxtin kabi yirik olimlar asarlarida 1970 yillardan beri chuqur o‘rganilgan. [84, 31, 32, 25, 26]. Masalan, M. Baxtin, fanda ilk marotaba komik janrni kulgi xalq madaniyati turi sifatida ko‘rib chiqqan. Alohida e’tiborga uning kulgining dialektik tabiati haqidagi qarashlari molik, zero kulgi madaniyatning aksil va ijobiy taraflarini ko‘rib chiqishga qodir. Bu qonuniyat bugungi zamonaviy tez rivojlanish sharoitlarida dolzarb bo‘lib, aynan shu holat bizning ilmiy tadqiqotimiz ob’ektidir. Bu holat keyinchalik B. Dzemizokning «O komicheskom», G. Starikovning «Poetika buryatskoy satiry» , YU. Paxratdinovning «satira v karakalpaskoy proze» (1982) [104], A. Bergson «Smex», T. Kuznetsovaning «Komicheskoe v komicheskoy literature», N. Xanzafarovning «tatarskaya komediya», V. Dyominning «Mnogotsvetie smexa», P. Metinning «Komicheskoe v chuvashskoy literature» asarlarida ham namoyon bo‘ldi. 1990 yillarga kelib, mazkur muammo nafaqat umumiy nazariy asarlarda, balki milliy nuotai – nazarlardan ham ko‘rib chiqila boshlandi. Alohida ahamiyatga, alohida xalqlar adabiyotlari bazasi asosida yaratilgan ilmiy asarlar ega bo‘lib, bu holat uzoq yillar davomida sovet adabiyotshunoslik maktabi doirasidan tashqarida qolib ketgan. Tahlilimiz ko‘rsatishicha, har-bir muallif, milliy adabiyotlarda komik

janrni tadqiq etar ekan, asosan o'z millati adabiyoti materiallariga yondashgan. Kulgusiz yumor va satira rivojlanishi mumkin emas. Demakki, umuman olganda komik janrni kulgusiz tasavvur etish juda mushkul. Kulgu fikrlash formasi sifatida ko'plab janrlarni belgilab berishi mumkin. Shu sababli, biz, satira va yumor haqidagi ko'plab diskussiyalarni chetlab o'tgan holda, asarlarini yuqorida tilga olingan holatlar va kulgu adabiy – badiiy funksiyalari doirasida tahlil etishga harakat qildik. XX asrning boshida, ko'plab komik janrlar rivojlana boshladi. Jamiyat barcha sohalari yangilanish sarhadi bo'lgan inqilob va fuqarolar urushi, ijtimoiy – siyosiy kulgu rivojlanishi asosiga aylandi. Satira tig'i eski barcha ijtimoiy hodisalarga qaratildi, bunday o'zgarishlar tarafdori edi. Shunday qilib, tarixning o'zi tez rivojlanayotgan, kompromisslarga ega bo'lmagan satirik – yozuvchi ijodiyoti xususiyatlarini belgilab berdi. Tabiiyki mazkur tadqiqot asosiy yo'nalishlar ham, aynan shu xususiyatlardan kelib chiqqan. Dissertatsiya maqsadi va vazifalari. Mazkur asarimiz maqsadi satirik ijodiyoti butun va kompleks tadqiqotidan iborat bo'lib, satirik ijodiyoti badiiy tahlili asosida, qaxramonlar va davr konsepsiyasi doirasida oktyabr inqilobi va komizm mohiyati orasidagi ahamiyatni aniqlashdan iborat. Maqsadning qo'yilishi esa, quyidagi vazifalarni ko'zda tutadi: Sheridan g'oyaviy estetik qarashlarini shakllantiruvchi asosiy omillar manbalarini aniqlash; Sheridan ijodiyotida namoyon bo'layotgan estetik ideallarini ochib berish va yozuvchi estetik ideallari evolyusiyasini aniqlash; Yozuvchi qaxramonlarining oktyabr inqilobidan oldingi va keyingi o'zgarishi o'ziga xosligini aniqlash, Sheridan siyosiy satirasi ma'naviy motivlari ijtimoiy asosini belgilash; Yozuvchining ta'lim, din, til, adabiyot, teatrga nisbatan qarashlarini uning satirik ijodiyoti, publitshtikasi materiallari asosida ochib berish. Sheridan nosatirik asarlari materiallarida komik motivlarni tahlil etish; Progressiv tatar harakati tizimida Sheridan satira o'rnini va rolini aniqlash; Sheridan satira g'oyaviy – estetik aloqalarining boshqa adabiyot va san'at namoyandalari, shu jumladan rus ijodkorlari bilan umumiy aloqalarini aniqlash. Mazkur tadqiqotning aynan shu jihatlari aniq o'rganilmagan. Shu muammo echilishi



bilan tadqiqot dolzarbligi belgilanadi. Yozuvchining dav rva qaxramon aspektidagi satirik ijodiyoti monografik tadqiqoti tatar adabiyoti mumtoz namoyandasi ijodiyotining yangi qirralarini nafaqat ochib berishi, balki uning ijodiy potensialini toʻlaligicha ochib berishi mumkin.

### FOYDALANAGAN ADAQBIYOTLAR ROʻYXATI

1. Расулова С. *Вашингтон Ирвинг ижодида сатира ва юмор*. Сўз санъати халқаро журнали 4 (5), 97-106.
2. Rasulova Soxiba. Вашингтон Ирвинг ижодида шарқ мавзуси талқини. Сўз санъати халқаро журнали 4 (3-сон), 53-60
3. U Dusmuradova, F Abduolimjonova, S Rasulova. *The way of expressing conflicts in Mark Twain's writing*. Chet tillarni oʻqitishda dolzarb muammolar, innovatsiyalar, anʼanalar, yechimlar va badiiy adabiyotlar tahlili.
4. Келтуяла В. В. О переводе интернациональных слов // Тетради переводчика. - Вып.- 4. - М.: Международные отношения, 1973. - С. 47-55
5. Rasulova Soxiba. Новеллистическое мастерство Вашингтона. Сўз санъати халқаро журнали 3 (3 -махсус сон), 684-689 бетлар.
6. Комиссаров В. Н. Слово о переводе. М, 1973. – 148с.
7. Латышев Л. К. Технология перевода. М.: НВИ - Тезаурус, 2000. - 280 с.
8. Rasulova Soxiba. Вашингтон Ирвингнинг ҳикоянавислик маҳорати. Сўз санъати халқаро журнали 2 (2-махсус сон), 247-258 бетлар.
9. Bobonazarova Gulxayo. Jek London hayotining "Martin Iden" asarifagi aksi. scientific journal "Golden brain" ISSN 2181-4120. Volume 1, Issue 10. 2023 april. pages 280-284.

## TA'LIMDA KREATIVLIK VA UNI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI

**Babayeva Maxfuza Abduvaitovna, Samatova Muyassar Nabiyevna**

Termiz muhandislik texnologiya instituti

“Aniq va tabiiy fanlar” kafedrası assistentlari, Termiz (O‘zbekiston)

E-mail: [maxfuzabobyeva7961@gmail.com](mailto:maxfuzabobyeva7961@gmail.com)

***Annotasiya.** Zamonaviy maktab uchun o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish muammosi alohida ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda o‘quvchilarda kreativlikni tarbiyalash muhim vazifa sanaladi. Shu munosabat bilan faol, tashabbuskor, ijodiy fikrlaydigan, kreativ insonlarni tarbiyalashda maktabning o‘rni ortib bormoqda. Jamiyatning barcha qatlamlarining ijodiy faolligi oshgan, zamonaviy davrda o‘quvchilarni o‘qitishda kreativ fikrlashni kuchaytirish muammosi ayniqsa dolzarbdir. Bu shaxsning jamiyatdagi kelajagi ko‘p jihatdan maktabda kreativlik qobiliyatlarining qanday shakllanishiga bog‘liq.*

***Kalit so‘zlar.** Kreativlik, qobiliyat, layoqat, tadqiqotchilik, tahlil, intellektual, ravonlik, moslashuvchanlik, o‘ziga xoslik, yaratuvchanlik, yondashuv, metodlar, kreativ fikirlash.*

***Аннотация.** Проблема развития творческого мышления учащихся имеет особое значение для современной школы. Сегодня воспитание творческих и креативных способностей учащихся считается важной задачей. В связи с этим возрастает роль школы в воспитании активных, инициативных, творчески мыслящих, творческих людей. Проблема укрепления творческого мышления в воспитании школьников особенно актуальна в современную эпоху, когда возросла творческая активность всех слоев общества. Будущее этого*

человека в обществе во многом зависит от того, как в школе формируются креативные способности.

**Ключевые слова.** Креативность, способность, исследование, анализ, интеллектуальный, быстро мыслитель, гибкость, оригинальность, подход, методы, творческое мышление.

**Annotation.** The problem of developing students' creative thinking is of particular importance for a modern school. Today, the education of creative and creative abilities of students is considered an important task. In this regard, the role of the school in the education of active, initiative, creatively thinking, creative people is increasing. The problem of strengthening creative thinking in the education of schoolchildren is especially relevant in the modern era, when the creative activity of all strata of society has increased. The future of this person in society largely depends on how creative abilities are formed at school.

**Keywords.** Creativity, ability, research, analysis, intelligent, quick thinker, flexibility, originality, approach, methods, creative thinking.

Bugungi kun ta'lim tizimining maqsadi intellektual shaxsni tarbiyalashdan iborat bo'lib, bunda ta'lim mazmunini, o'qitish uslub va vositalarini yangilash ustida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ta'lim tizimi dunyo manzarasiga yaxlit nuqtai nazarga ega bo'lgan, bu manzarani ifodalovchi chuqur bog'liq hodisa va jarayonlarni tushunadigan yuksak rivojlangan, intellektual shaxslarni shakllantirishga qaratilgan. Bunda endigina fanga kirib kelayotgan kreativlik muhim ahamiyat kasb etadi. Kreativlik tushunchasini keng ma'noda ko'rib chiqiladigan bo'lsa uning ijodkorlikdan farqli ekanligini anglash mumkin. Ijodkorlik eng yuqori kognitiv jarayon bo'lsa, kreativlik (lot, ing. "create" – yaratish, "creative" – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tvasiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati.

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi, ta'lim oluvchilar e'tiborini ta'lim jarayoniga faol jalb etishni ta'minlaydi. Shaxsning individual, ijodiy qobiliyatlari masalasi L.Vigotskiy, A.Leontev, D.Elkonin, O.Vasilchenko, E.Melkumova, V.Miretskaya, M.Suxomlinova, E.Emmanuel, E.P.Torrance, N. Rogers, J.Purnell, P.Roberts, A.M.Galligan, Sh.Tatsuno, A.X. Maslou, P. Drepeau kabi olimlar izlanishlarida o'z aksini topgan. Kreativlik atamasi Angliya-Amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo'ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko'nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi.

J. Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko'rsatadi:

- fikrni maqsadga muvofiq yo'llay olish;
- o'ziga xoslik (originallik);
- qiziquvchanlik;
- farazlar yaratish qobiliyati;
- xayol qila olish (fantaziya)

Pol Torrants to'rtta kreativlik konikmasini aniqlagan.

1. Ravonlik. Ko'plab g'oyalarni o'ylab topish ko'nikmasi ko'p degan so'zga asoslanadi.

2. Moslashuvchanlik. Turli g'oyalarni o'ylab topish ko'nikmasi o'zgartirish degan so'zga asoslanadi.

3. O'ziga xoslik. Boshqalarga o'xshamagan, ajralib turuvchi g'oyani o'ylab topish ko'nikmasi noyob degan so'zga asoslanadi.

4. Yaratuvchanlik. G'oyalarni kengaytirish ko'nikmasi qo'shish degan so'zga asoslanadi.

Psixologiyada P.Torrens tomonidan shaxs kreativligini aniqlovchi test ishlab chiqilgan. P.Torrensning fikricha, shaxs kreativligi o'zida quyidagi belgilarni namoèn qiladi:

1) savollar, kamchiliklarga èki bir-biriga zid ma'lumotlarga e'tiborsiz bo'lmaslik;

2) muammolarni aniqlash uchun harakat qilish, ilgari surilgan taxminlar asosida ularning yechimini topishga intilish

A.X. Maslou kreativlikni 2 turga bo'ladi: iste'dodning kreativligi va shaxsning o'z- o'zini aktuallashtirish kreativligi. haxsning o'z-o'zini aktuallashtirish kreativligi shaxs bilan uzviy bog'langanligi sababli biz unga kundalik hayotda va kasbiy faoliyatning ko'p sohalarida duch kelishimiz mumkin.

Patti Drepeau tomonidan ham shaxsda kreativlik sifatlari ni muvaffaqiyatli rivojlantirishning to'rtta yo'li ko'rsatilgan:

1. Kreativ fikirlash ko'nikmasini shakllantirish;
2. Amaliy kreativ harakat ko'nikmalarini rivojlantirish;
3. Kreativ faoliyat jarayonlarni tashkil etish;
4. Kreativ mahsulot (ishlanma) lardan foydalanish.

Har qanday sifat (fazilat) kabi kreativlik ham birdaniga shakllanmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil shakllantirib va rivojlantirilib boriladi. Ta'lim oluvchilarda kreativlikni rivojlantirish quyidagilar muhimdir

1) ular tomonidan ko'p savollar berilishini rag'batlantirish va bu odatni qo'llab-quvvatlash;

2) bolalarning mustaqilligini rag'batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;

3) bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;

Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiladi:

- 1) o'zini tavakkaldan olib qochish;

- 2) fikrlash va xatti-harakatlarda qo‘pollikka yo‘l qo‘yish;
- 3) shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;
- 4) boshqalarga tobe bo‘lish;
- 5) har qanday holatda ham faqat yutuqni o‘ylash

Ta’lim jarayoyinida qatnashuvchilarda kreativlikni rivojlantirib borish quyidagi sifatlar bilan amlga oshiriladi:

-ijodiy yo‘nalganlik- mantiqiy fikrlash;

-erudisiya(bilag‘onlik)- boy tasavvur;

-Ijodiy ta’sirchanlik va tashabbuskorlik- o‘z ijodkorligini to‘la to‘kis namoyon qilish;

-refleksiya qobiliyati- hissiyotga boylik va natijada mavjud tajriba va bilimlar asosida yangi qarorlarni qabul qilish malakasi hosil bo‘ladi.

**Xulosa.** Ta’lim tizimida qatnashuvchilarga sifatli, muhim, zarur va amaliy ahamiyatga ega ma’lumotlarni tizimli ravishda yetkazib berish orqali - kreativ, ya’ni axborotlarni tezkor qabul qila oladigan, qayta ishlab, turli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qila oladigan, har tomonlama etuk shaxsni tarbiyalashga erishish mumkin Bu esa pedagogning kasbiy kompetentlik sifatleri, pedagogik mahorat asoslari hamda kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishi zaruriyat sifatida kun tartibiga olib chiqmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. N.Muslimov, M. Usmonboeva, D. Sayfurov, A. To‘raev. Pedagogik ompetentlik va kreativlik asoslari. O‘quv-metodik qo‘llanma A-1-141. Toshkent – 2015 yil

2. N. M. Zakirova. O‘quvchilarda kreativlikni shakllantirish mazmuni va usullari. Academic research in educational sciences volume 1 | issue 3 | 2020 ISSN: 2181-1385

3.С.Гин. Как развивать креативность у детейю Методическое пособие.Вита пресс-2017.

## TALABALARNI KOMPYUTER GRAFIKASIDAN FOYDALANIB GRAFIK ISHLARNI BAJARISHGA OID TAVSIYALAR VA USLUBIY KO'RSATMALAR

**M.N.Samatova**

Termiz muxandislik-texnologiya instituti assistenti

***Annotatsiya:** Hozirgi davrda "Kompyuter grafikasi" fanidan talabalarning mustaqil o'quv faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. "Muhandislik va kompyuter grafikasi" fanidan o'quvchilarning mustaqil o'quv faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish o'qitishning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi aytib o'tilgan.*

***Tayanch so'zlar:** Avto CAD, grafik axborotlar, kompyuter grafikasi, diagramma, guruh va sxemalar chizma, aylana.*

***Abstract:** Currently, special attention is paid to the formation and development of independent educational activities of students in the subject of "Computer graphics". It was mentioned that the formation and development of independent educational activities of students in the subject "Engineering and computer graphics" is important in increasing the effectiveness of teaching.*

***Key words:** Auto CAD, graphic information, computer graphics, diagram, group and scheme drawing, circle.*

***Аннотация:** В настоящее время особое внимание уделяется формированию и развитию самостоятельной учебной деятельности студентов по предмету «Компьютерная графика». Отмечено, что формирование и развитие самостоятельной учебной деятельности студентов*



*по предмету «Инженерная и компьютерная графика» имеет важное значение в повышении эффективности обучения.*

*Ключевые слова: AutoCAD, графическая информация, компьютерная графика, схема, групповой и схематический рисунок, окружность.*

**Mavzuni dolzarbligi:** Talabalarning mustaqil faoliyatini shakllantirish, amaliy chizma topshiriqlarini bajarish va rivojlantirishga qaratilgan mustaqil ishlarning turlari va shakllarini aniqlab olish muammosini hal etish dolzarbligi ko'rsatilgan.

**Maqsadi:** Talabalarga muhandislik va mutaxassislik fanlaridan bajariladigan barcha turdagi grafik axborotlarni- chizma, diagramma, guruh va sxemalar kabi tasvirlarni ikki o'lchamda yoki uch o'lchamda kompyuter yordamida bajarish tartibi va qoidalarini o'rgatishdan iborat.

Talabalarning mustaqil faoliyatini shakllantirish, amaliy chizma topshiriqlarini bajarish va rivojlantirishga qaratilgan mustaqil ishlarning turlari va shakllarini aniqlab olishda toliqib qolishini oldini olish, o'qishga bo'lgan qiziqishini qo'llab quvvatlash masalasi professor o'qituvchilar oldiga qo'yilgan dolzarb vazifa hisoblanadi.

Shubhasiz, maktab va oliy o'quv yurtlarida zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash, o'quv jarayonini jadallashtirishga, sifat-samaradorligini oshirishga, taxsil oluvchilarning mantiqiy va nazariy fikr yuritishlarini rivojlanishiga olib keladi. Ayniqsa bu muxandislik- texnologiya o'quv yurtlari uchun juda muhimdir. Chunki bo'lajak muhandislarining bilim, ko'nikma va malaka tizimiga ko'pgina mutaxassislik fanlaridan tashqari oddiygina kompyuter savodxonligi emas, balki kompyuterni erkin boshqarish, muhandis oldiga qo'yilgan muammoni yechish uchun mos dasturiy ta'minotdan, zamonaviy grafik dasturlar va ularning imkoniyatlaridan foydalanish, elektron axborot resurslaridan oqilona foydalanish ham kiritilishi maqsadga muvofiq. Bugungi kunda muhandislardan nafaqat o'z sohasi bo'yicha, balki zamonaviy axborot texnologiyalaridan ham bilimlarni chuqur



egallashlari talab qilinadi. Shuning uchun talabalarga zamonaviy grafik dasturlardan foydalanib grafik tasvirlarni kompyuterda bajarishga o'rgatish vazifasini yuklaydi. Hozirgi kunning talabidan kelib chiqadigan bo'lsak, zamonaviy grafik dasturlar, ya'ni PhotoSHOP, CorelDRAW, AutoCAD dasturlardan foydalanib chizmaning primitive-elementlarini kompyuterda loihalashni bilishlari lozim.

Bo'lajak muhandislar AutoCAD dasturida barcha turdagi grafik tasvirlarni kompyuter ekranida chizish, ularni qayta o'zgartirib boshqa variantlarini yaratish va xotiraga saqlash, hamda qog'ozga chiqarish kabi vazifalarni bajarishni bilib oladilar. Bu dasturning imkoniyatlari talabalar amaliy dasturlar tuzmagan holda, grafik ishlarni tabiiy chizgandek bevosita ekranda amalga oshiradilar. Bu dasturda grafik ishlarni bajarish yuqori darajada mukammallashgan bo'lib, u loihalash ishlari avtomatlashtirilgan xalqaro standart dastur hisoblanadi. Shu bois undan 60 mil dan ortiq foydalanuvchilar, yani barcha soha muhandislari, izlanuvchi –tadqiqotchilar, talabalar va o'quvchilar 80 dan ortiq mamlakatda 18 tilda foydalanib kelishadi.

Talabalar amaliy va operatsion dasturlar hamda tayyor buyruqlar paketidan foydalanib, loihalash va texnologik jarayonlarning modellarini yaratish ishlarini kompyuterda erkin bajarishlari mumkin. Auto CAD dasturi asosida "Kompyuter grafikasi" fanidan mashg'ulotlar Oliy o'quv yurtlarida muhandislar tayyorlash uchun Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan namunaviy dastur asosida amaliy grafik mashg'ulotlari ko'rinishida o'tkaziladi. Har bir amaliy mashg'ulotda 25-30 min davomida talabalarga grafik axborot primitivlarining tarkibiy qisimlarini kompyuter ekranida chizish, ularni qayta o'zgartirib maqbul bo'lgan variantlarini yaratish va ekranda bajarilgan tasvirlarni xotiraga saqlash, hamda qog'ozga chiqarib olish kabi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan nazariy bilimlar bosqichma-bosqich berib boriladi. Mashg'ulotning qolgan qismida esa mutaxassislikka oid chizma chizish, ularni taxrir qilish, o'lchamlar qo'yish va obektlarni bog'lash kabi amaliy buyruqlardan foydalanib ko'nikmalar va malakalar oshiriladi. Talabalar mashg'ulotlarda olgan bilimlari va ko'nikmalarini geometrik,

proeksion, mashinasozlik chizmachiliklari va mutaxassislik bo'yicha berilgan grafik vazifalarini bajarish jarayonida mustahkamlab nazariy bilim va ko'nikma va amaliy malakalarini mustahkamlaydilar.

Ma'lumki, har qanday grafik axborotlar chizma primitivlari-tarkibiy qismlaridan, ya'ni nuqta, kesma, uchburchak, to'rtburchak, ko'pburchak, aylana, aylana yoyi, elleps va egri chiziqlar kabi oddiy geometrik figuralar to'plamidan iborat.

Chizmalarning asosiy primitivlari-qismlarini "Черчение" panelidagi buyruqlardan foydalanib modellash algoritmlarini ko'rib chiqamiz.

Misol tariqasida quyidagini ko'ramiz

**1-misol:** Radiusi 45mm bo'lgan va berilgan ikki aylanaga urinib o'tuvchi aylana chizilsin:

1. Tushuvchi menyular qatoridan **Черчение/Круг/2 точки касания/радиус** buyruqlari yuklanadi.

2. Muloqot qatoridagi "Urinish nuqtalarini ko'rsating" so'roviga, taxminiy urinish nuqtalari birinchi va ikkinchi aylanalarda ko'rsatiladi. Muloqotlar darchasida paydo bo'lgan navbatdagi so'rovga "Tutashtirish radiusini kiriting" so'roviga aylana radiusi 45 mm bo'lgan aylana chizilib qoladi. 1-rasm.

Agar chizmada bu aylananing urinish nuqtalarioralig'ini olib qolib, qilgan qismini o'chirib yuborilsa, ikki aylananing tashqi tutashmasi hosil bo'ladi. 2-rasm.

2-misol: Berilgan uchta aylanaga urinma bo'lgan aylana o'tkazilsin.

Buning uchun, quyidagi amallar bajariladi.

1. **Рисование/Круг/3 точки касания** buyruqlari ketma ket yuklandi
2. Muloqotlar qatorida "taxminiy urinish nuqtasini kiriting" so'rovi paydo bo'ladi.
3. Aylanalarni taxminiy urinish nuqtasi ketma-ket "sichqoncha" bilan qayd etib chiqiladi va aylanalarga urinma bo'lgan aylana chiziladi.

**Vazifalar:**

1. AutoCAD dasturida mustaqil ravishda turli geometric figuralar chizib, ularni bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirib, aylantirib hamda masshtabini o‘zgartirishni mashq qilinsin.

2. Tomonlari 120mm va pastki chap burchagining koordinatasi 120,60 bo‘lgan kvadrat yasalsin.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, auditoriya mashg‘ulotlari va talabalarning mustaqil ishlarini bajarishlarida zamonaviy grafik dasturlardan foydalanib o‘zlarining kreativ qobiliyatlarini shakllantirish, chizma chizishda malakalarni ,bilimlarini rivojlantirish va o‘z oldiga qoygan muammolarni faolroq va ildamroq bajarishga kirishadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. T.Rixsiboyev , X.Rixsiboyeva “Kompyuter grafikasi” Darslik. T. 2018-303 bet.
2. Axmedbekov A, Voronich A, A.Mirzayev M. “Компьютерная графика в системы Py” учебное пособие. TITLP. Tashkent-2004 -133 str. T.Rixsiboyev “Kompyuter grafikasi” O‘quv qo‘llanma. T. 2006-162 bet.
3. T.Rixsiboyev “Kompyuter grafikasi” O‘quv qo‘llanma. T. 2006-162 bet.
4. L. Xeyfets «Injenernaya qompyuternaya grafika» SpB: BXB. - Peterburg.: 2005.
5. Alimova D.Q. Nachertatel'naya geometriya i injenernaya grafika. -T.: Izd-vo “Fan va texnologiya”, 2016.

## AHOLI TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHDA AHOLINING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHNING O'RNI

To'xtaev Og'abek Foziljon o'g'li

TURON ZARMED universiteti

1-bosqich talabasi

***Annotatsiya:** Biz bilamizki moliyaviy savodxonlik - fuqaroni moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar bozorida aktiv pozitsiyani egallash, jamiyatda o'zini va oila a'zolarini moliyaviy farovonligini oshirish uchun zarur bo'lgan bilimlar va ko'nikmalar yig'indisidir.*

***Kalit so'z:** Moliyaviy savodxonlik, daromad, iqtisodiy erkinlik, kelajak uchun qadam, inovatsiya, tejamkorlik, inson yetukligi.*

## РОЛЬ ПОВЫШЕНИЯ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ В ПОВЫШЕНИИ УРОВНЯ ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ

Тўхтаев Оғабек Фозилжон ўғли

Университет ЗАРМЕД

студента 1 ступени

***Аннотация:** Мы знаем, что финансовая грамотность – это совокупность знаний и умений, необходимых гражданину для занятия активной позиции на рынке финансовых продуктов и услуг, для повышения финансового благополучия себя и членов своей семьи в обществе.*

***Ключевые слова:** Финансовая грамотность, доход, экономическая свобода, шаг в будущее, инновации, бережливость, человеческая зрелость.*

## THE ROLE OF INCREASING THE FINANCIAL LITERACY OF THE POPULATION IN INCREASING THE LIVING STANDARDS OF THE POPULATION

**Tukhtaev Ogabek Fozilzhon oqli**

ZARMED University

1st stage student

***Annotation:** We know that financial literacy is a set of knowledge and skills necessary for a citizen to take an active position in the market of financial products and services, to increase the financial well-being of himself and his family members in society.*

***Key words:** Financial literacy, income, economic freedom, step into the future, innovation, frugality, human maturity.*

Ushbu ta'rif asosida moliyaviy savodxonlik insonlar uchun nimaga kerak degan savolga javob olishimiz mumkin. Xo'sh o'z o'rnida ikkinchi savol tug'iladi: moliyaviy savodxonlikni oshirish uchun nima qilish mumkin. Bilamizki, barcha davlatlarda aholining moliyaviy savodxonlik darajasi taxlil qilinadi va baholanadi. Moliyaviy savodxon bo'lish bu kelajakga inevstitsiya bor ekanligi va kelajakni yorqin ko'ra olish yoki shu kelajakni qurishimizga imkon beradi. Bir o'ylab ko'raylik moliyaviy savodxon inson aslida qanday bo'ladi va uning qanday sifatlari mavjud. Bunday shaxs: shaxsiy daromad maoshlarini to'la hisoblab boradigan, kelajakda kutilayotgan o'zgarishlarga e'tibor beradigan ya'ni hisobga olinmagan harajatlar uchun depozit yoki omonot puli jamg'arib bora oladigan, keraksiz va ortiqcha moliyaviy xizmatlardan foydalanmaydigan zarur qachon foydalanish kerak ekanligini biladigan insonni olsak bo'ladi. Biz qaysidir insonni moliyaviy savodxon deya olishimiz uchun bu inson quyidagilarni bilmog'i ya'ni, iqtisodiy qonunlar, davlatdagi

o'ziga kerak yo'nalishdagi iqtisodiy holatni o'rganishi va doimiy ravishda kuzatib borishi lozim. Lekin bu qoidalarni hamma ham bilmaydi.

Moliyaviy savodxonlikni oshirish borasida chet el tajribalariga nazar soladigan bo'lsak, quyidagilarni ko'rishimiz mumkin. Masalan bugungi kunda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish dasturlari AQShda, Yevropa ittifoqi mamlakatlarida, Avstraliyada, Hindistonda, Indoneziyada, Malayziyada, Rossiyada, Chexiyada va boshqa mamlakatlarda amal qilmoqda. Aholi xizmatlari taklifiga moliya bozori parametridagi o'zgarishlar ta'sir ko'rsatsa, aholining moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talabiga esa ijtimoiy-iqtisodiy va demografik omillar jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Hozirgi kecha kunduzda iqtisodiyotda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish bo'yicha milliy dasturlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Aholining moliyaviy savodxonligini oshirishning milliy dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda obektivlik va mustaqillik tamoyillariga rioya etilishi zarur.

Rossiyadagi aholining moliyaviy savodxonligini oshirish dasturi — fuqarolarga ularni qiziqtirayotgan moliyaviy masalalarga to'liq va malakali javob olishga asoslangan aholi savodxonligini oshirishni innovatsion dasturi hisoblanadi. Ushbu dastur innovatsiya, ommaboplik va soddalilik tamoyillariga asoslab ishlab chiqilganligini misol sifatida keltirishimiz mumkin.

Iqtisodiyotning samarali rivojlanishi tabiiy va moliyaviy resurslardan optimal foydalanishni talab qiladi. Shu sababli moliyaviy savodxonlikni oshirishga yo'naltirilgan har qanday dasturning asosini tejamkorlikni oshirish va investitsion faoliyatni rivojlantirish tashkil qiladi. Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish dasturining iqtisodiyotga ko'rsatadigan bilvosita ta'siriga aholi xarid qobiliyatini o'sishi kiradi. Shunday qilib, aholining moliyaviy madaniyatini ortishi quyidagi omillar orqali mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga turtki bo'ladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bularga:

- mehnat unumdorligini oshishi hisobiga yalpi ichki mahsulotni o'sishi;

- moliya bozorini rivojlanishi, aholi daromadini investitsiyalarga yo'naltirilishi, tovar va xizmatlarning sifatini yaxshilanishi, amaldagi qonunchilikning takomillashtirilishi;
- tadbirkorlar va ishchilarning moliyaviy madaniyati ortishi hisobiga kichik biznes va mehnat bozorini rivojlanishi;
- resurslardan, shu jumladan byudjet resurslaridan maqsadga muvofiq va ratsional foydalanishi;
- aholini moliyaviy innovatsiyalarni tez o'zlashtirilishi hisobiga fan-texnika taraqqiyotining jadallashuvi;
- milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ortishi, inflyatsiya ustidan nazoratni kuchayishi, real iqtisodiyotga asoslanishi, aholini moliyaviy savodxonligini oshirish orqali barqaror rivojlanishni ta'minlashi.

Moliyaviy savodxonlik quyidagi omillar orqali aholining turmush farovonligini o'sishiga olib keladi:

- iqtisodiy islohotlarni me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashuvi;
- korrupsiyaga qarshi kurashni kuchayishi va jinoyatchilikni kamayishi;
- aholining moliya tizimiga bo'lgan ishonchini va ijtimoiy faolligini oshishi;
- demokratiyani rivojlanishi.

Moliyaviy savodxonlik dasturlari samarali bo'lishi uchun davlat iqtisodiy siyosatining quyidagi dastaklari bilan birgalikda qo'llanilishi lozim:

- iste'molchilar huquqini himoya qilish;
- moliyaviy institutlarning faoliyatini tartibga solish;
- moliya bozoriga kirish imkoniyatlarini kengaytirish;
- moliya bozori bo'yicha ma'lum otlarni aholiga keng tarqatilishi.<sup>11</sup>

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz joizki, Hozirda yurtimizda bu sohaga qaratilgan e'tibor juda kata va biz buning isboti sifatida bir necha loyihalarni ko'rib chiqishimiz

---

11 Nazarova S. : "Moliyaviy savodxonlikning asoslari " 17-22 bet.

mumkin. Misol uchun : "Finlit.uz" axborot-ta'lim resursi - bu moliya va iqtisodiyot sohasidagi asosiy bilimlarni o'qitish uchun mo'ljallangan veb-sayt. Resursning asosiy maqsadi moliyaviy savodxonlikni oshirish va fuqarolarning moliyaviy xulq-atvorlarini shakllantirishdir. Loyiha O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining moliyaviy savodxonlikni oshirish va bank mutaxassislarini qayta tayyorlash departamenti tomonidan amalga oshirilmoqda. 12 Markaziy bank tomonidan "Uzreport" telekanalining "Fayzli tong" dasturida yangi "Moliyaviy savodxonlik" teleloyihasi ishga tushirildi. "Moliyaviy savodxonlik" ta'lim loyihasi Ipak yo'li bank, Turon bank, O'zsanoatqurilishbank, Xalk banki hamda "Humo" to'lov tizimi hamkorligida haftasiga 3 marotaba – har dushanba, chorshanba va juma kunlari efirga uzatiladi.

#### **Loyihada quyidagi dolzarb mavzular yoritiladi:**

- raqamli moliyaviy savodxonlik va xavfsizlik;
- jamg'arish madaniyatini oshirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish;
- tadbirkorlar uchun moliyaviy savodxonlik.<sup>13</sup>

Mamlakatimiz aholisining moliyaviy savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan loyihalarga ko'pgina misollar keltirishimiz mumkin va bu loyihalar hozirda o'z samarasini berib kelmoqda. Birgina misol sifatida yaqin kunlargaacha raqamli iqtisodiyot haqida tasavvurga ega bo'lmagan insonlarimiz hozirgi kunda Davlatimizda yaratilgan imkoniyatlardan foydalanib raqamli iqtisodiyotning bevosita ishtirokchisi sifatida faoliyat ko'rsatib kelmoqdalar. Albatta biz yoshlar ham bu borada o'z hissamizni qo'shib borishimiz kerak hisoblanadi. Ya'ni aholining hozirgi kunda huquqiy savodxonligi bilan birga ularning moliyaviy, iqtisodiy savodxonlik darajasini oshirishda bizlar ham hissamizni qo'shishimiz lozim. Buni esa yaqin kelajakda uddalaymiz.

---

<sup>12</sup> <https://finlit.uz/uz/about/>

<sup>13</sup> <https://finlit.uz/uz/news/714406/>



## YASHIL IQTISODIYOTNING MAMLAKATIMIZ IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI TUTGAN O‘RNI

**Erkinov Davronbek Yusupovich**

Toshkent kimyo-texnologiyasi instituti, Menejment va kasb ta’limi fakulteti, Sanoat  
iqtisodiyoti va menejmenti kafedrası, 57-20 guruh talabasi

[erkinovdavron02@gmail.com](mailto:erkinovdavron02@gmail.com)

**Kadirov Ulug‘bek Ravshanovich**

Toshkent kimyo-texnologiyasi instituti, Menejment va kasb ta’limi fakulteti, Sanoat  
iqtisodiyoti va menejmenti kafedrası

[ulugbekkadirov1@gmail.com](mailto:ulugbekkadirov1@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Yashil iqtisodiyot har qanday davlatning barqaror rivojlanishini ta’minlashning muhim vositalaridan biridir. Yashil iqtisodiyot deganda aholining hayot sifati yuqori bo‘lgan, tabiiy resurslardan hozirgi va kelajak avlodlar manfaatlarini yo‘lida hamda mamlakatning xalqaro ekologik majburiyatlariga muvofiq ravishda oqilona foydalaniladigan iqtisodiyot tushuniladi. Rivojlanayotgan bozorlarda iqtisodiy o‘shishning ishonchli harakatlantiruvchi kuchi bo‘lgan, iqtisodiy inqirozdan chiqishning yangi imkoniyatlarini taqdim etuvchi yashil iqtisodiyotni joriy etish masalasi xalqaro hamjamiyatning eng dolzarb muammolaridan biridir.*

**Kalit so‘zlar:** *yashil iqtisodiyot, iqtisodiy rivojlanish, iqtisodiy o‘shish modellari, resurslar, iqtisodiy taraqqiyot, yalpi ichki mahsulotning o‘shishi.*

### KIRISH

Globalashuv jarayoni sanoati rivojlangan mamlakatlarning texnologik

bazasining sifat jihatidan yangilanishini, ishlab chiqarish samaradorligi va raqobatbardoshlik darajasini oshirish bilan birga hayot sifatini va yashash muhitini yaxshilashni ta'minlaydigan yangi texnologik tuzilmaga modernizatsiya qilingan iqtisodiyotga o'tishni talab qilmoqda. Xorijda bu o'tishni amalga oshiruvchi "yashil o'sish" iqtisodiy siyosati Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti tomonidan barcha a'zolarining uzoq muddatli (2030-yilgacha) rivojlanishi uchun strategik yo'nalish sifatida qabul qilingan.

Jamiyat taraqqiyoti, aholi sonining tez sur'atlar bilan o'sishi, ishlab chiqarish va chiqindilarning ko'payishi, ekologik muammolar kengayib, to'planib bormoqda. Eng dolzarb muammolar: jamiyat hayoti uchun qulay shart-sharoitlarni saqlab qolish, tabiiy resurslarning kamayishi va ekologik xavfsizlik.

Zamonamizning global muammolari va birinchi navbatda, global ekologik inqiroz insoniyatni faoliyatning barcha sohalarini ko'kalamzorlashtirishga undab, jahon iqtisodiyoti o'sishining muqobil modellarini zudlik bilan izlash zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Shu munosabat bilan dunyoning ko'plab davlatlari iqtisodiyotni yashillashtirish, odamlarning turmush tarzini qayta ko'rib chiqish zarurligini anglab yetdi va mavjud rivojlanish modellarini cheklangan resurslarni yanada samaraliroq boshqarish, ya'ni barqaror rivojlanish foydasiga o'zgartirishga kirishdi.

Hozirgi bosqichda iqtisodiy hayotning ekologik jihati tobora dolzarb bo'lib, davlatlararo hamkorlikning ustuvor yo'nalishiga aylanib bormoqda. Shu munosabat bilan ekologik va iqtisodiy hamkorlik sohasida xalqaro davlat va nodavlat tashkilotlari tuzilmoqda, global ekologik muammolarni birgalikda hal etish, iqtisodiyotni ommaviy ekologiyalashtirishga qaratilgan qonunchilik takomillashtirilmoqda.

Yashil iqtisodiyot tushunchasining keng tarqalgan, nisbatan to'liq ta'rifi BMTning Atrof-muhitni muhofaza qilish dasturi (UNEP) tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, Yashil iqtisodiyot - bu odamlar farovonligi va ijtimoiy tengligining yaxshilanishi, ekologik risklar va ekologik taqchillikni sezilarli darajada

kamaytirishga olib keluvchi iqtisodiyotdir. Yashil iqtisodiyot konsepsiyasining asosiy maqsadi barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va investitsiyalarni oshirish bilan bir vaqtda atrof muhit muhofazasi va ijtimoiy integratsiya sifatini yaxshilash hisoblanadi. Yashil iqtisodiyotning maqsadi tabiiy resurslardan oqilona foydalangan va salbiy ekologik ta'sirlarni nisbatan kamaytirgan holda barqaror iqtisodiy o'sishga erishishdir.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Barqaror rivojlanish nafaqat qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tish va "yashil" energiya tushunchasi bilan birlashtirilgan energiya samaradorligini o'z ichiga oladi, balki ancha kengroq - iqlimga antropogen ta'sirni sekinlashtiradigan "yashil" iqtisodiyotga o'tish sifatida qaraladi. "Yashil" iqtisodiyotni huquqiy qo'llab-quvvatlashda xalqaro huquq hujjatlari, ilg'or jahon tajribasi va iqlimga oid nizolarni hal etishda alohida o'rin tutadi. Yashil iqtisodiyotga o'tishda hozirgi global tendensiyalarni aniqlash, shuningdek, ularning mamlakatimizdagi ta'sirini ko'rsatishga imkon beradi.

Yashil iqtisodiyot - bu XX asr oxirida paydo bo'lgan iqtisodiyotda inson iqtisodiy faoliyatining atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish zarurligini ta'kidlaydigan va har qanday holatda ham iqtisodiy o'sishga emas, balki barqaror rivojlanishga e'tibor qaratadigan tendentsiyadir. Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi salomatlik va ijtimoiy tenglikni yaxshilashga, shuningdek, atrof-muhitga xavfli ta'sirlar va ekologik tanqislikni sezilarli darajada kamaytirishga olib keladigan modeldir. Yashil iqtisodiyot - bu odamlar va tabiat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni va ikkalasining ehtiyojlarini bir vaqtning o'zida qondirishga urinishlarni qo'llab-quvvatlaydigan iqtisodiyot metodologiyasi. Yashil iqtisodiy nazariyalar odamlar va atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik bilan bog'liq bo'lgan ko'plab g'oyalarni qamrab oladi.

O'zbekistonda 2030-yilgacha bo'lgan davrda yashil iqtisodiyotni

rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlari elektr transporti va shahar mobilligi, energiya, shu jumladan qayta tiklanadigan energiya manbalari, barqaror isteʼmol va ishlab chiqarish, barqaror turizm, innovatsion yashil va raqamli texnologiyalar boʻladi. Oʻzbekiston Respublikasining barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishdagi borishida 2030-yilgacha mamlakatning barqaror rivojlanish milliy strategiyasi, 2019-2030-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturini tayyorlashni amalga oshirish boʻyicha chora-tadbirlar koʻrib chiqilmoqda. Bunda mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi iqlim oʻzgarishi sharoitida yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish konsepsiyasini ilgari surish boʻyicha yondashuvlar alohida masala sifatida koʻrib chiqilmoqda.

2019-2030-yillarga moʻljallangan Oʻzbekiston Respublikasining “Yashil iqtisodiyotga oʻtish strategiyasi” iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlar rejasi va kelgusi yillarga moʻljallangan ustuvor yoʻnalishlariga qaratilgan. Yashil iqtisodiyotga oʻtish strategiyasi mexanizmi global va milliy darajada barqaror rivojlanishga oʻtishning samarali vositasi boʻlib, ekologik samaradorlik, resurslarni tejash, tarmoqlararoq tamoyillariga asoslanadi.

Mamlakatda tarkibiy oʻzgartirishlarni chuqurlashtirish, iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash hamda hududlarni bir maromda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2019-yilning 8-9-iyul kunlari Toshkent shahrida “yashil” iqtisodiyot boʻyicha normativ-huquqiy bazani va siyosatni takomillashtirish, davlat va xususiy sektor oʻrtasidagi sheriklik munosabatlari orqali innovatsion “yashil” investitsiyalarni qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan Yevropa va MDH davlatlarining “yashil” iqtisodiyot boʻyicha mintaqaviy vazirliklar konferensiyasi oʻtkazildi. Shu bilan birga, oʻtkazilgan tahlil iqlimning oʻzgarishi sharoitida samarali, resurs tejamon va ekologik xavfsiz iqtisodiyotni taʼminlashda oʻzaro bogʻliq muammolar va ehtiyojlar mavjudligini koʻrsatdi.

Mamlakatimizda ham hozirda koʻplab mamlakatlar singari, u ham ekologik va

iqtisodiy tashkilotlarga a'zo bo'lib, ular faoliyatida faol ishtirok etmoqda. Mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish masalalariga tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda, turli davlat dasturlari amalga oshirilmoqda, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonunchilik takomillashtirilmoqda, atrof-muhitni muhofaza qilish choralari ko'rilmoqda. Bundan tashqari, so'nggi paytlarda "yashil" iqtisodiyot ko'rsatkichlarini hisobga olish va tahlil qilishga tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Jadallashayotgan sanoatlashtirish va aholi sonining ortishi iqtisodiyotning resurslarga bo'lgan ehtiyojini sezilarli darajada oshirmoqda, shuningdek, atrof muhitga salbiy antropogen ta'sirni kuchaytirmoqda va issiqxona gazlari ajratmalarining ortishiga olib kelmoqda. Iqtisodiyot energiya samaradorligining past darajasi, tabiiy resurslardan nooqilona foydalanish, texnologiyalar yangilanishining sustligi, "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish uchun innovatsion yechimlarni joriy etishda kichik biznes ishtirokining yetarli emasligi mamlakatni barqaror rivojlantirish sohasidagi ustuvor milliy maqsadlar va vazifalarga erishishga to'sqinlik qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi :

- texnologik modernizatsiyalash va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish;

- davlat investitsiyalari va xarajatlarining ustuvor yo'nalishlariga ilg'or xalqaro standartlarga asoslangan "yashil" mezonlarni kiritish;

-davlat tomonidan rag'batlantirish mexanizmlarini, davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirish hamda xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni faollashtirish orqali "yashil" iqtisodiyotga o'tish yo'nalishlari bo'yicha tajriba-sinov loyihalarini amalga oshirishga ko'maklashish;

-ta'limga investitsiyalar kiritishni rag'batlantirish, yetakchi xorijiy ta'lim

muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlikni rivojlantirish hisobiga “yashil” iqtisodiyotdagi mehnat bozori bilan bog‘liq kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish;

- Orolbo‘yidagi ekologik inqirozning salbiy ta‘sirini yumshatish choralari ko‘rish;

-“yashil” iqtisodiyot sohasida, shu jumladan ikki tomonlama va ko‘p tomonlama shartnomalar tuzish orqali xalqaro hamkorlikni mustahkamlash.

2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi ko‘ra quyidagilar uni amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlari etib belgilandi :

- iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlari energiya samaradorligini oshirish;

- energiya resurslari iste‘molini diversifikatsiyalash va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish;

- iqlim o‘zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va tabiiy ekotizimlarni asrash;

- “yashil” iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlashning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish.

2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasining asosiy maqsadi mamlakatda amalga oshirilayotgan tuzilmaviy islohotlarga “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini integratsiya qilish orqali ijtimoiy rivojlanishga, issiqxona gazlarining ajratmalari darajasini pasaytirishga, iqlim va ekologiya barqarorligiga imkon beruvchi mustahkam iqtisodiy taraqqiyotga erishishdan iborat.

Strategiyani amalga oshirish natijasida 2030-yilga borib quyidagilarga erishish kutiladi :

- issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010-yildagi darajadan 35 foizga qisqartirish;

- qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVtga

oshirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 30 foizidan ko‘prog‘iga yetkazish;

- sanoat sohasida energiya samaradorligini kamida 20 foizga oshirish;

- yalpi ichki mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan energiya sarfi hajmini, shu jumladan qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hisobiga 30 foizga kamaytirish;

- iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, 1 million gektargacha maydonda suv tejoychi sug‘orish texnologiyasini joriy etish;

- yiliga 200 million ko‘chat ekish va ko‘chatlarning umumiy sonini 1 milliarddan oshirish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni 30 foizdan ortiqroqqa kengaytirish;

- respublika o‘rmon fondi zaxiralari ko‘rsatkichini 90 million kub metrdan ortiqroqqa yetkazish;

hosil bo‘ladigan qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasini 65 foizdan oshirish.

## **XULOSA**

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, yashil iqtisodiyot mamlakatning iqtisodiy o‘shish va rivojlanishini rag‘batlantirishda, shu bilan birga tabiiy boyliklar saqlanib qolishi va farovonligimizga bog‘liq bo‘lgan resurslar va ekotizim xizmatlarini taqdim etishda davom etishini ta‘minlaydi. Yashil iqtisodiyot mintaqaviy rivojlanishni, ijtimoiy barqarorlikka erishishni, iqtisodiyot tarmoqlarida yangi ish o‘rinlari yaratilishi orqali iqtisodiy salohiyatni oshirishni rag‘batlantiradi. Yashil iqtisodiyot, asosan, iqtisodiy taraqqiyotga yordam beradi va yalpi ichki mahsulotning o‘shishini, mamlakat daromadlarini oshirishni, aholini ish bilan ta‘minlash, mamlakatda ishsizlik darajasini pasaytirishni ta‘minlaydi. Shu bilan birga, yashil iqtisodiyotga o‘tish iqlim o‘zgarishi, foydali qazilma minerallarning yo‘qolishi va suv resurslarining tanqisligi kabi global tahdidlar xavfini kamaytiradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Vaxobov A. V., Xajibakiev Sh. X. : “Yashil iqtisodiyot” darslik
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi qarori  
<https://lex.uz/docs/-4539502#-4542614>
3. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi axborotlari  
<https://cityeconomy.uz/uz>
4. [www.unep.org](http://www.unep.org) - Birlashgan Millatlar Atrof-muhit dasturining rasmiy sayti
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining Yashil iqtisodiyotga o‘tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarori  
<https://lex.uz/ru/docs/-6303230>



## ITLARDA QULOQ VA DUMLARNI KESISHNING AHAMIYATI

**Babashev Alixan Irgashevich**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va  
biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali

**Muhammadjonov Samandar Yorqinjon o'g'li**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va  
biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali

**To'xtabayeva Gullola Shuxrat qizi**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va  
biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali

### ***Annotatsiya:***

*Ushbu maqolada itlar dum va quloqlarini kesish ular hayoti uchun qanchalik muhurligi hamda tashqi ko'inishi bilan uning harakterini qay darajada uyg'unlashtirishi, bu operatsiyani qachon, qay tarzda o'kazish haqida ma'lumotlar yoritilgan. Itlar hozirgi kunda hayotimizda ko'p jihatdan bizga ko'makchi hisoblansa. Shunday ekan insonlarga azaldan vafodor do'st bo'lib kelgan jonzotlar jozibasiga ham etiborli bo'lish kerak.*

### ***Annatation:***

*This article describes how important it is for dogs to cut their ears and tails, how to harmonize their appearance with their character, when and how to perform this operation. Today, dogs help us in many ways in our lives. Therefore, it is necessary to pay attention to the charm of creatures that have been loyal friends to people since time immemorial.*

**It** (lotincha: *Canis familiaris*) — boʻrisimonlar oilasiga mansub **uy hayvoni**. Hamma mamlakatlarda tarqalgan. Yovvoyi ajdodi boʻri. Mezolit davrida (miloddan avvalgi 15— 10 ming yil) xonakilashtirilgan. Itlarning hid bilish, eshitish va koʻrish organlari, shuningdek, miyasi yaxshi rivojlangan.

Yangi tugʻilgan kuchuk bolalari koʻzlari yumuq, quloqlari kar va tishsiz tugʻiladi. Koʻzlari 10-14 kundan keyin ochiladi, 5-8 kundan keyin quloqlari eshita boshlaydi, sut tishlari esa 20-30kundan keyin chiqadi. Itlarning boʻyi 16-18 sm dan 100 sm gacha, vazni 600 gm dan 90kg gacha boradi.

Itlarni biz faqat uy hayvoni koʻrinishida tasavvur qilamiz, ammo, itlarning yovvoyi vakillari ham mavjud. Ularni yovvoyi holda yashaydigan yagona turi bu dingo itlari hisoblanib, asosan Avstiraliyada keng tarqalgan. Dunyo boʻyicha itlarning 4000 dan ortiq zoti maʼlum.

Itlar 3ta asosiy guruhga boʻlinadi:

**Xizmat itlari;** qoʻriqchilik va maxsus xizmatlar (harbiy, qidiruv, qorovullik, yuk tashish)ni bajaradi. Ular boyloq, boʻsh yoki alohida kataklarda (xonalarda) boqiladi. Ularning zotlari juda koʻp. Masalan; ovcharkalar, doberman, boksyor, erdelyer, kora teryer, dog, senbernar, nyufaunlend. Bu turdagi Itlar boʻychan, sharoitlarga bardoshli, odam buyruqlariga va mashqlarga tez oʻrganadi. Ular jang maydonlarida yaradorlarni qidirib topish va olib chiqish, aloqa ishlari, minalarni, narkotik moddalarni topish kabi noyob ishlarni bajarishga qodir. Oʻzbekistonda xizmat itlaridan Sharqiy Yevropa ovcharkalari keng tarqalgan. Inson uchun eng yaqin yordamchi itlar choʻpon itlari hisoblanadi. Bunday itlardan boʻribosar, kavkaz, moʻgul, shotland ovcharkalari chorva podalarini boʻrilardan qoʻriqlash, podaning tarqalib ketishiga yoʻl qoʻymaydi yani "podachilik" vazifalarini bajaradi. Itlar chekka Shimolda chanaga qoʻshib, transport vositasi sifatida ishlatiladi (10—12 ta it qoʻshilgan chanada 400– 500 kg gacha boʻlgan yukni bir sutkada 80–100 km masofaga yetkazishi mumkin).

**Ovchi itlar;** bu guruhiga mansub 100 dan ortiq zot mavjud, tozi, laycha, setter, poynter, layka, iskovuch va boshqalar. Bular yovvoyi hayvon va parrandalarni topib, ovchilarga yordamlashadi. Ovchi itlar bilan sport musobaqalari ham o‘tkaziladi.

**Dekorativ itlar;** uyda asraladigan dekorativ zotlardan uzun junli baroq, jingalak junli baroq, balonka, pakana zotli teryer, pudel, shpits, pekin va yapon itlari, mopelar keng tarqalgan. Ular deyarli xo‘jalik ahamiyatiga ega emas va ularni faqat it ishqibozlari urchitadi va boqadi.

Tabiatan itlarni tashqi tomondan kuzatkanimizda, beixtiyor nazarimiz eng avvalo ularni dum va quloqlariga tushadi. U organlar itlarning hayotida sezilarli ahamiyatga egadir. Jumladan quloqlar eshitish, tovush qay tarafdin kelayotganini aniqlash va mo‘ljal olish vazifasini bajarsa, dum esa hayvon harakatlanishda muozanatni saqlashga yordam beradi va bundan tashqari hissiyot hamda signal funksiyasini ham bor, ammo, dum va quloqlar qirqilsa yuqoridagi funksiyalar yo‘qoladi degani emas.

Kuchukchalarda quloqlar bir yarim oylik va undan katta yoshda maxsus asboblarni yordamida kesiladi. Bunday operatsiya juda ko‘p tajriba va hatto san’atni talab qiladi va quloqlarni shunchaki kesib tashlanmasdan, balki ularga ma’lum bir shakl berilishi kerak. Agar operatsiya malakali veterinariya vrachi tomonidan ehtiyotkorlik bilan va to‘g‘ri bajarilgan bo‘lsa, unda odatda operatsiyadan keyingi asoratlar (choklarning ochilib ketishi, quloqlarning yiringlashi aseptik hodisalar) sodir bo‘lmaydi.

Qadimdan itlar egasiga vafodorligi va chiroyli tashqi ko‘rinish hamda o‘ziga xos fel-atvori bilan insonlarni mamnun qilib kelgan, lekin, shunday zotlar borki ularning tashqi ko‘rinishi (quloqlari va dumlarining hajmi) asl harakterini ifodalamaydi. Shunday vakillardan biri Doberman bo‘lib, uzun, yoqimsiz dumi va keng quloqlari uning asl nafisligini yo‘qqa chiqaradi. Pitbul va stend zotlarining quloqlari va dumi ularni daxshatli ko‘rinishini butunlay yo‘qotadi. Jangari itlarni quloqlarini qirqish bilan jang paytidagi va undan keying salbiy oqibatlarni oldini olishga ershiladi.

### **Kuchuklarning dum va quloqlarini necha yoshida kesgan maqul?**

Ko'pgina it egalari kuchukcha hayotining 7-kunidayoq quloqlaridan halos qilgan maqul deb bilishadi, ammo bunday erta yoshda itning tanasi va tumshug'ining kelajakdagi nisbatlarini oldindan aytish juda qiyin, sevimli jonzoti ko'ziga yanada chiroyli ko'rinishi istagan odam bu jarrohlikni 7 haftalikdan 13 haftalik bo'lgan davir oralig'ida amalga oshirgani maqul.

Itlarning dumini kesing uchun optimal yosh kuchukcha hayotining 3-10 kunlik davri hisoblanadi. Bu vaqtda kuchukning dum sohasidagi qon tomirlar juda mayda va suyaklari esa tez tiklanuvchan bo'ladi, shu sababli qirqilgan joydagi to'qimalar tez tiklanadi va salbiy oqibatlariga olib kelmaydi. Bundan tashqari bu davirlar oralig'ida hayvonda sezgi juda yaxshi rivojlanmagan bo'ladi shu sababli operatsiya paytidagi va undan keying og'riq kuchukchaga deyarli bilinmaydi.

Agar siz o'z kuchugingizni quloqlari yoki dumini kestirmoqchi bo'lsangiz bu ishni veterinariya klinikasida, yuqori malakali mutaxassisga ishonish o'ingiz va kuchuk uchun ham yaxshi bo'ladi.



**Ushbu rasmda Staffordsher zotli itlarning quloq suprasini kesish ko'rsatib berilgan.**

## NATURE OF GENDER OF JURIDICAL RHETORIC IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

**Abdurasulova Diyoraxon Nurmukhammad kizi**

Master's student,

Uzbekistan state world languages university

### **ABSTRACT**

*This article discusses the nature of gender in contemporary linguistics and rhetorical law. The biological and social differences between men and women are generally referred to as gender. The fact that words in languages can be both masculine and feminine may also be known to people. At first look, it can seem as though linguistic gender naturally mirrors gender in nature.*

**Keywords:** *gender, linguistic phenomena, stereotypical ideas, socio-sexual relations, masculine and feminine, sex, male and female;*

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslik va ritorik huquqda jinsning tabiati muhokama qilinadi. Erkaklar va ayollar o'rtasidagi biologik va ijtimoiy farqlar odatda gender deb ataladi. Tillardagi so'zlarning ham erkak, ham ayol bo'lishi mumkinligi ham odamlarga ma'lum bo'lishi mumkin. Bir qarashda, lingvistik jins tabiatda jinsni aks ettiradigandek tuyulishi mumkin.*

**Kalit so'zlar:** *gender, lingvistik hodisalar, stereotipik g'oyalar, ijtimoiy-jinsiy munosabatlar, erkak va ayol, jins, erkak va ayol;*

### **АБСТРАКТ**

*В данной статье рассматривается природа гендера в современной лингвистике и риторическом праве. Биологические и социальные различия между мужчинами и женщинами обычно называют гендерными. То, что слова в языках могут быть как мужского, так и женского рода, тоже может быть известно людям. На первый взгляд может показаться, что языковой пол естественным образом отражает пол в природе.*

**Ключевые слова:** *гендер, языковые явления, стереотипные представления, социально-половые отношения, мужское и женское начало, пол, мужское и женское;*

The study of language phenomena has seen significant anthropocentric progress in recent decades. In such linguistic subjects, gender studies, which are presently generating a great deal of attention in our country, have a particular position. Gender studies' central thesis is that it refers to a certain set of cultural characteristics that have an impact on how men and women interact in society. Studies on gender have concentrated on cultural and social aspects that influence how society perceives men and women, how people act when they identify as one sex or the other, and stereotypical notions about characteristics – everything that moves the gender issue from the domain of biology to the domain of social life and culture.

The system of socio-sexual relations represents the internally contradictory and concurrently dynamic ratio of male and female substrates, gender relations as a sociocultural superstructure over biological truth, and these concepts are all deeply established in culture and language[6, 43]. Data from several sciences must be incorporated into the essay when examining gender from this perspective. Psycholinguistics, ethno-linguistics, cognitive linguistics, intercultural communication, pragmalinguistics, sociolinguistics, and other fields all contribute to the linguistic analysis of gender. In linguistics, gender is viewed as a cognitive



phenomenon that shows itself in the different speech patterns and linguistic cliches of communicators.

The analysis of the expansion of meaning of the concept *gender* in English shows that it is a polysemic term with at least three different meanings in juridical discourse[1, 54]:

- (1) *gender* = *sex* or *woman/women*. In Uzbek – *jins* yoki *ayol/ayollar*
- (2) *gender* as in the biological theory. In Uzbek – *ijtimoiy jins*
- (3) *gender* as in the social theory

Even within a single juridical culture, the same juridical term may express several concepts depending on the context in which it is used. The frequency of polysemy can be explained by the fact that juridical systems are in a constant state of change, and they also influence each other. Therefore, even from the juridical point of view, polysemic juridical terms make difficulties for the interpretation of juridical norms. There are at least three ways how the legislator can avoid or solve the problem of polysemy:

1) The legislature defines the polysemic term in a normative legal document, giving it just one interpretation. This technique can make the term's meaning more or less obvious and unambiguous [5, 78]. A legal word is allegedly supposed to have the same meaning each and every time it is used once it has been defined [3, 45];

2) the legislator respects only one style of juridical writing, that is, he uses the term only in one precise sense throughout the juridical act [2, 21]. In this situation, a juridical definition of the term is not necessary. Butt and Castle point out that a definition of the term is unnecessary 'if the meaning of the word or phrase is clear or can be readily ascertained from the context' [1, 23];

3) the legislator uses a neologism, that is, invents a new juridical term/word. It can be a completely new one (for example, it could be a new word *jins* in Uzbek), or it can also be created as a composed word, for example, it could be *ijtimoiy jinsiy aloqa*, *ijtimoiy oila* in Uzbek.



The necessity to thoroughly examine how gender studies in linguistics have developed as a new field of Uzbek humanitarian knowledge determines the significance of this study. The purpose of this paper is to evaluate language gender studies in our country. Scientific articles have paid particular attention to the history of the creation and evolution of gender linguistics, the distinction between the concepts of "gender" and "sex," the definitional possibilities for gender, and the practicality of using gender as a text-formation parameter.

By assessing the areas of gender mainstreaming, we found that the three widely accepted methods to gender studies had a big impact on the development of Uzbek linguistics. The first method's objective is to identify linguistic variations that could be explained by characteristics of the redistribution of social power in society. This strategy is restricted to the interpretation of solely social aspects of language used by men and women. The term "masculine" or "feminine" language refers to a functional derivative of the primary language used in situations where speaking partners are at different social levels. According to science [6, 33], "Feminine" and "Masculine" language may be boiled down to linguistic quirks that the socio-psycholinguistic method has identified. Researchers in this discipline must consider statistical indicators or average parameter definitions because they offer a foundation for creating psycholinguistic hypotheses about the distinctions between male and female speech behavior. The proponents of the third option frequently emphasize the cognitive aspect of gender differences in language behavior. They find that, in addition to determining the frequency of differences and using its indicators, it is more crucial to develop thorough linguistic models of the cognitive foundations of language categories. It is also important to note that all three techniques are seen as complimentary in the current scientific paradigm and that their joint use is necessary for explanatory power to exist. It's also important to keep in mind that the researchers' major areas of interest ended up being the speaker's personality and

speech behavior. Female and male audiences, respectively, present the speaker and the text with the "speaker's macro factor" and "text macro factor" [3, 21] criteria.

Several interpretations of gender's essence in arguments in support of bio- and socio-deterministic methods have led to a variety of methodological orientations in modern domestic science. Research into the mechanisms and characteristics of how the author's gender identity manifests itself in texts, as well as discussion of gender differences, which are the focus of numerous recent linguistic studies, can both be built upon the theoretical material examined for the preparation of this article.

### **THE LIST OF USED LITERATURE:**

1. Cambridge: Cambridge University Press. Cameron, D. (2005) Language, gender and sexuality: current issues and new directions. *Applied Linguistics*, 26: 482–
2. Charlesworth, H. (2005) Not waving but drowning: gender mainstreaming and human rights in the United Nations. *Harvard Human Rights Journal*, 18: 1–18.
3. Charlesworth, H. (2013) Le sexe de l'Etat en droit international. In S. HenetteVauchez (prés.) *Sexe, genre et droit international*. Paris: Pedone.
4. Charruau, J. (2015) L'introduction de la notion de genre en droit français. *Revue française de droit administrative, RFDA*, No 1, Janvier-Février: 127–136.
5. Cook, G. (2003) *Applied Linguistics*. Oxford: Oxford University Press.
6. Cook, G. (2011) British applied linguistics: impacts of and impacts on. In *The Impact of Applied Linguistics. Proceedings of the 44th Annual Meeting of the British Association for Applied Linguistics* (pp. 35–58). University of the West of England.

## ХАЛҚАРО ВАЛЮТА БОЗОРИ ВА ОПЕРАЦИЯЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

**Юлдашева Умида Асаналиевна**

ТМИ, “Халқаро молия-кредит” кафедраси доценти, PhD

**Наимов Шаҳоббидин Озодмурод ўғли**

ТМИ, 2-босқич магистранти

### **АННОТАЦИЯ**

*Ушбу мақолада халқаро валюта операциялари, унинг амалга ошириш механизми, турлари, миллий иқтисодиёт учун зарурияти, ўрганилган,. Шунингдек, сўнги йилларда мамлакатимизда валюта бозорига оид статистик кўрсаткичлар таҳлил қилинган.*

***Калит сўзлар:** валюта, валюта бозори, валюта курси, валюта риски, валюта операциялари, валюта биржаси, Марказий банк, тижорат банклари.*

### **ANNOTATION**

*In this article, international currency transactions, their implementation mechanism, types, necessity for the national economy are studied. Also, in recent years, statistical indicators of the currency market in our country have been analyzed.*

***Key words:** currency, foreign exchange market, exchange rate, currency risk, currency operations, currency exchange, Central Bank, commercial banks.*

## КИРИШ

Мамлакатимизнинг жаҳон ҳамжамиятига интеграциясини кучайтириш ва ўз мавқеини янада яхшилаш мақсадида долзарб масалалардан бири бу валюта бозорини ислоҳ қилиш, ушбу соҳада жаҳон амалиётидан фойдаланган ҳолда мамлакатимиз иқтисодиётига хос тизимларни жорий қилиш ва уларни ривожлантириш ҳисобланади. Мамлакатимизда ижтимоий ва иқтисодий ислоҳатлар янада чуқурлашаётган даврда, ижтимоий ҳаётимизнинг барча соҳаларида бўлгани каби молия бозори соҳасида ҳам чуқур ўзгаришларни амалга ошириш ҳозирги куннинг асосий талабидир. Молия бозори соҳасида олиб борилаётган ислоҳотларнинг марказий бўғинида валюта бозорини эркинлаштириш, хорижий валюта операцияларини ривожлантириш, пул-кредит сиёсати ва банк секторини барқарорлигини ошириш туради. Ушбу масалаларни амалга оширишда халқаро валюта бозори ва валюта операцияларини ривожлантириш йўллари ўрганиш муҳим аҳамият касб этади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 2022 йил 23 март куни иқтисодиёт барқарорлигини таъминлаш чора-тадбирлари муҳокамаси юзасидан йиғилиш ўтказди. Ушбу йиғилишда у Марказий банкка ташқи валюта бозоридаги ноаниқ вазиятни инобатга олган ҳолда, ички валюта бозори барқарорлиги ва алмашув курси мослашувчанлигини таъминлашда эҳтиёткорона ёндашувни қўллаб бориш муҳимлигини, бунда ички валюта бозоридаги ҳолатни кунлик кузатиб, тадбиркорларни, умуман, халқимизни жорий вазият, кутилаётган ўзгаришлар ва кўрилаётган чоралар ҳақида хабардор қилиш кераклигини таъкидлади [1].

## МАВЗУГА ОИД АДАБИЁТЛАР ШАРҲИ

Т.И.Бобакулов фикрича, валюта бозори иштирокчилари Марказий банкнинг миллий валютанинг номинал алмашув курси барқарорлигини таъминлашига ишонмайдиган шароитда, интенсив валюта интервенцияси

кутилган самарани бермайди. Чунки, валюта интервенциясининг самараси валюта бозори иштирокчиларининг Марказий банкка бўлган ишончи билан белгиланади [2].

Н.Х.Жумаев ўз тадқиқотларида Ўзбекистон Республикасида хорижий валюталарга нисбатан талабнинг барқарор эмаслиги, ташқи савдонинг ижобий сальдосини миллий валютанинг алмашув курси барқарорлигига ижобий таъсирининг мавжудлиги каби валютани тартибга солиш амалиётига хос бўлган тенденцияларни аниқлаган [3].

Э.Алимардонов ўз тадқиқотларида мамлакатда валюта молиявий ҳолатнинг мустаҳкамлиги, хорижий инвесторлар ишончини оқлайдиган барқарор валюта билан таъминланганлик халқаро молиявий марказ статусини таъминлашнинг мажбурий шарти сифатида таъкидлаган [4].

Ж.Атаниязов ва Э.Алимардонов “Халқаро молия муносабатлари” дарслигида миллий валюта бозорлари муайян давлат ҳудудида резидентлар ва хорижий юридик ва жисмоний шахслар ўртасидаги валюта муносабатларини ўз ичига олади. Бу бозорлар, миллий валюта конвертация қилинмайдиган ва қаттиқ валюта чегаралинишлари мавжуд бўлган пайтда давлат томонидан миллий пул ва валюта тизимини шакллантириш босқичида шаклланади деб таърифлашади [5].

## ТАҲЛИЛ ВА НАТИЖАЛАР

Халқаро валюта бозори - бу расмий марказлар бўлиб, уларда валюта олди-сотдиси уюштирилган ва маълум курс бўйича амалга оширилади. Халқаро валюта бозори жаҳон валюта тизимининг ажралмас қисми ҳисобланади. Ушбу бозордаги вазиятни таҳлил қилиб, бутун жаҳон валюта тизимининг ҳолати ҳақида хулоса чиқариш мумкин.

Айтишимиз мумкинки, халқаро валюта бозори жаҳон валюта тизимининг ривожланиши, эволюцияси натижасида шаклланиб, у ташкил топганидан буён бир қатор ўзгаришларни бошдан кечирган.

Ўзбекистонда валюта операцияларини амалга оширишда асосий иштирокчи ва тартибга соловчи ташкилот “Ўзбекистон Республика валюта биржаси” АЖ ҳисобланади. Биржа Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Вазирлар Маҳкамасининг 1991 йил 22 ноябрдаги 297-сонли “Ўзбекистон Республикасида чет эл валютасини эркин сотиб олиш ва сотишни ташкил этиш ҳамда эркин алмаштириладиган валюта билан савдо қилишни кенгайтириш чоралари ҳақида”ги қарори ва Вазирлар Маҳкамасининг 1992 йил 29 февралдаги 66-ф-сонли фармойишига мувофиқ, республиканинг иқтисодий манфаатларини ҳимоя қилишни таъминлаш, ички ва ташқи валюта бозори конъюнктураси ўзгаришига тезкор жавоб қайтариш мақсадида 1992 йил 12 майда ташкил этилган.

Ўзбекистон республика валюта биржасида ундириладиган воситачилик мукофоти (йиғимлар) миқдори Кузатув кенгаши томонидан тасдиқланган “Ўзбекистон республика валюта биржасида воситачилик мукофоти (йиғимлар)ни ундириш тартиби”га мувофиқ белгиланган (1-жадвал).

### 1-жадвал.

#### Чет ел валютаси операциялари бўйича воситачилик мукофоти [6]

Инструмент номи	Тариф режаси	Воситачилик мукофотининг доимий қисми (белгиланган аниқ тўлов)	Воситачилик мукофотининг айланма қисми (битим ҳажмидан ундирилади)
USD/SUM_TOD, USD/SUM_TOM	USD_SP_0	0,00	<b>0,04 %</b>
	USD_SP_40	40 БҲМ*	<b>0,03 %</b>
	USD_SP_120	120 БҲМ*	<b>0,02 %</b>
EUR/SUM_TOD, EUR/SUM_TOM	EUR_SP_0	0,00	<b>0,025 %</b>
RUB/SUM_TOD, RUB/SUM_TOM	RUB_SP_0	0,00	<b>0,025 %</b>
CNY/SUM_TOD, CNY/SUM_TOM	CNY_SP_0	0,00	<b>0,025 %</b>

Валюта операциялари бўйича воситачилик мукофоти дилерлар томонидан танланган қуйидаги тариф режаларидан бирига мувофиқ ундирилади:

Марказий банкнинг валюта аукционларида тузилган битимлар бўйича воситачилик мукофоти ҳар бир Дилердан ҳар бир тузилган битим суммасининг 0,01% миқдорида олинади.

Валютавий своп операцияларини амалга оширишда ҳар бир дилерлардан своп битими тузилаётганда битим суммасидан 0,01% миқдорида воситачилик мукофоти ундирилади.

Ўзбекистон Республикаси валюта биржаси АЖнинг 1 млн. 69 минг 600 дона жами акциялари мавжуд бўлиб унинг тенг ярми ва асосий улуши Ўзбекистон Республикаси Марказий банкка тегишли бўлиб, 50,13 фоиз (536200 дона)ни ташкил этади. Ўзбекистон Республикаси Ташқи иқтисодий фаолият Миллий банки ва “Ўзбекистон саноат-қурилиш банки” акциядорлик тижорат банкларига 119 мингдан акция тегишли бўлиб, бу жамият улушининг 11,13 фоизни ташкил этади. “Агробанк” ва “Ипак Йўли” акциядорлик тижорат банкларига 95200 донадан акция тегишли ва жамият умумий улушининг 8,9 фоизини ташкил этади. “Orient Finance” хусусий акциядорлик тижорат банкка 5,76 ва Халқ банкка 4,05 фоиз акциялар тегишли.

## **МУҲОКАМА**

Мамлакатимиз бозор иқтисодиётига асосланган демократик ҳуқуқий давлат қуришни ўз олдига мақсад қилиб қўйган экан, бунда молия бозорлари муҳим ўрин тутди. Валюта бозорларининг иқтисодиётда тутган ўрнини ошириш бевосита уларнинг фаолиятини эркинлаштиришни, унда бозор қонуниятларининг амал қилишини ва унга таъсир этувчи омилларни



мукаммал ўрганишни талаб қилади. Шу сабабли, танланган мавзу биринчидан, сиёсий, иқтисодий ва ҳуқуқий жиҳатдан мураккаблиги бўлса, иккинчидан, республикада амалга оширилаётган чора-тадбирлар мавжуд муаммоларни тўлиқ бартараф эта олмаётгани, учинчидан хилма-хил статистик маълумотларни таҳлил қилиб илмий хулосалар чиқаришни талаб қилишидир.

Валюта маблағлари мамлакатга фоиз ставкаси ёки айирбошлаш курсининг ошишини кутиш натижасида оқиб келиши мумкин. Валютанинг чиқиб кетиши унинг оқиб келиши каби шиддатли бўлиши мумкин, бу эса спекулятив аҳамиятнинг ортиши ва миллий валюта қадрининг тушишига олиб келиши мумкин.

Марказий банк курсида сезиларли тебранишлар кузатилмасда, ундаги ўзгариш миллий валютанинг девальвацияланиб бораётганини кўрсатади. Девальвация – миллий пул бирлигининг қадрсизланиши назарий жиҳатдан экспортни рағбатлантиришга хизмат қилсада, у инфляция суръатининг ошишига импорт нархларининг кўтарилиши орқали таъсир этади.

## **ХУЛОСА**

Хулоса қилиб айтганда, жорий валюта бозорининг ликвидлигини таъминлаш валютани тартибга солишнинг концептуал асосларини такомиллаштиришнинг асосий йўналишларқдан бири бўлгани ҳолда, валюта сиёсатининг самарадорлигини ошириш, хўжалик субъектларининг валюта операцияларини тартибга солишнинг зарурий шарти ҳисобланади. Биржадан ташқари валюта бозорини ривожлантириш муддатли валюта операцияларини ривожлантиришнинг бирламчи зарурий шарти ҳисобланади ва ўз навбатида, Ўзбекистон Республикасида муддатли валюта операцияларини ривожлантириш, биринчи навбатда, мавжуд валютавий чеклашларга барҳам беришни тақозо этади.

## Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. *Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2022 йил 23 мартдаги иқтисодийёт барқарорлигини таъминлаш чора-тадбирларига бағишланган йиғилиши*
2. *Бобакулов Т.И. Коронавирус пандемияси шароитида пул-кредит сиёсати// «Молия ва банк иши» электрон илмий журнали, II сон. март-апрель, 2020.*
3. *Жумаев Н.Х. Ўзбекистонда валюта муносабатларини тартибга солиш методологиясини такомиллаштириш. – Т.: «Fan va texnologiya», 2007 й. – 232 б.*
4. *Алимардонов Э. Д. “Ўзбекистонда халқаро молиявий марказни шакллантириш имкониятлари”. Scientific Journal of “International Finance & Accounting” Issue 5, October 2022. ISSN: 2181-1016*
5. *Атаниязов, Ж. Х., & Алимардонов, Э. Д. Халқаро молия муносабатлари» Тошкент-2014. УФМЖ., Дарслик, 279, 280.*
6. *<https://uzrvb.uz> - Ўзбекистон Республикаси валюта биржаси расмий сайти.*

УЎК 635.657.632.4.934

## НЎХАТДА УЧРАЙДИГАН АСОСИЙ КАСАЛЛИКЛАРНИ ҚЎЗҒАТУВЧИ ЗАМБУРУҒЛАР ЗАМБУРУҒСИМОН ОРГАНИЗМНИНГ ТАКСОНОМИЯСИ ҲАМДА КАСАЛЛИКЛАРНИНГ ТУРЛАРИ ВА ТАРҚАЛИШИ

**Ф.М.Бойжигитов**

Жанубий деҳқончилик илмий тадқиқот институти

қ.х.ф.н., к.и.х;

**С. Бегимқулова** таянч докторант;

**Аннотация:** Мақолада нўхатнинг зарарланган аъзоларидан (барг, поя) касалликларни қўзғатувчи *Fusarium oxysporum* ва *Fsolani* замбуруғлари лаборатория шароитида тоза муҳитга ажратиб олиниб, *F. oxysporum* замбуруғининг тур таркиби ҳамда касалликни қўзғатувчи *F.oxysporum* (20-25°C) замбуруғлари спораларининг ўсиши ва ривожланиши учун қулай ҳароратларда аниқлаш, кузатув олиб борилган ҳудудларда Қамаши ва Деҳқонобод туманларига нисбатан Яккабоғ ва Китоб туманларида нўхатнинг илдиз чириш ва фузариоз касалликлари кенгрок майдонларга тарқалганлиги қайд этилган.

**Калит сўзлар:** Нўхат, дуккак, замбуруғ, лаборатория, таксономия, қўзғатувчи, фузариоз, илдиз чириш, сўлиш, спора, ҳарорат, аскохитоз.

**Резюме:** В статье выделены болезнетворные грибы *Fusarium oxysporum* и *Fsolani* из зараженных частей гороха (лист, стебель) на чистой среде в

лабораторных условиях, изучен видовой состав гриба *F. oxysporum* и особенности роста и развития. спор болезнетворного гриба *F.oxysporum* (20-25°C).В районах, где выявление и наблюдение велось при благоприятных температурах, по сравнению с Камашинским и Дехханабадским районами, отмечено, что корневые гнили и фузариоз гороха распространился на более широкую территорию в Яккабогском и Китабском районах.

**Ключевые слова:** горох, бобовые, гриб, лаборатория, таксономия, возбудитель, фузариоз, корневая гниль, увядание, спорообразование, температура, аскохитоз.

**Abstract:** In the article, the disease-causing fungi *Fusarium oxysporum* and *Fsolani* were isolated from infected parts of peas (leaf, stem) in a clean environment in laboratory conditions, and the species composition of the fungus *F. oxysporum* and the growth and development of the spores of the disease-causing fungus *F.oxysporum* (20-25°C) were determined. In the areas where detection and observation were carried out at favorable temperatures, compared to Qamashi and Dehkhanabad districts, it was noted that root rot and fusarium diseases of peas spread over a wider area in Yakkabog and Kitab districts.

**Key words:** Pea, legume, fungus, laboratory, taxonomy, pathogen, fusarium, root rot, wilt, spore, temperature, ascochytois.

**Кириш.**Сўнгги йилларда аксарият ўсимликлар қатори нўхат ўсимлигига ҳам кўпгина касалликлар жиддий зарар етказмоқда. Бу эса ўсимликларни химоя қилиш чора-тадбирларини янада такомиллаштириш, касаллик қўзғатувчи замбуруғ турларини тўғри аниқлаш, уларнинг тарқалиши, ривожланиши ва биоэкологиясини ўрганиш орқали илмий асосланган кураш чораларини ишлаб чиқишни талаб этмоқда.

Ўзбекистонда 1990 йилларда нўхат асосан, лалмикор ерларда экилиб, майдони 10 минг гектарга яқинни ташкил этган. Лалмикор ерларда ўртача ҳосилдорлик гектаридан 5-6 ц га етади. Нўхатни сувли ерларда экилса ҳосилдорлик 20-30 ц га етади. Ўзбекистоннинг суғориладиган ерларида кам экилади, сабаби у замбуруғ касаллиги аскохитоз билан кучли касалланади[1].

Покистонда дуккакли экинларнинг 70% майдонида нўхат етиштирилишини ҳамда асосий зарар келтирадиган касалликлар аскохитоз, фузариоз сўлиш, илдиз чириш турлари эканлиги ўрганилган. Нўхатда ўтказилган 1985-88 йилларда 31 та турга кирувчи замбуруғ илдизлар қинида, поя, барг, дуккак ва уруғларда топилган. Уруғда 20 та, баргда 14 та, илдиз қини ва пояда 4 та тури топилган [2].

Осиё, Европа ва Африка давлатларида нўхат ўсимлиги майдони йилдан-йилга кенгайиб бориши билан бир қаторда антракноз, фузариоз, аскохитоз, илдиз чириш ва занг касалликлари билан зарарланмоқда [3].

Нўхатда учрайдиган касалликларни тур-таркибини аниқлаш мақсадида 2022 йилда Яккабоғ, Китоб, Қамаш ва Дехқонобод туманларининг айрим ҳудудларида нўхат экилган далаларда йўналишли кузатувлар олиб борилди.

Олиб борилган кузатувларда нўхатнинг касалликлар билан зарарланган аъзоларидан намуналар лабораторияга олиб келинди ва лаборатория шароитида нам камерага экилиб, термостатга қўйилди.

Нўхатнинг касалланган аъзоларидан (барг, поя) илдиз чириш ва фузариоз касалликларини қўзғатувчи замбуруғлар лаборатория шароитида картошка-декстрозали агар озуқа муҳитида ажратиб олиниб, уларнинг тур-таркибини аниқлаш бўйича илмий-изланишлар олиб борилди.

Илмий изланишларга кўра, нўхат ўсимлигида касаллик қўзғатувчи 1 филум, 1 та синф, 1 та оила, 1 та туркумга оид, 2 та замбуруғ турлари микроскоп ёрдамида аниқланди (3.1-жадвалга қаранг).

Нўхатнинг илдиз чириш ва фузариоз касалликларини *Nectriaceae* оиласи, *Fusarium* туркумига мансуб *F. solani* ва *F. oxysporum* (1-расм) замбуруғ турлари ажратиб олинди.

Ушбу касаллик қўзғатувчи замбуруғ штаммлари ажратиб олиниб, академик М.Мирзаев номидаги БУВИТИ лабораториясида касаллик қўзғатувчи замбуруғларнинг айрим биоэкологик хусусиятлари ўрганилмоқда.

Нўхат ўсимлигида учрайдиган касаллик турлари ва тарқалишини аниқлаш мақсадида Китоб, Яккабоғ, Қамаш ва Дехқонобод туманларида йўналишли кузатув ишлари олиб борилди (2-жадвалга қаранг).

Кузатув натижаларига кўра, жорий йил нўхат ўсимлигида касалликлар кам учраганлиги кузатилди. Чунки апрель ойида ёғингарчилик бўлмаганлиги сабабли ҳаво ҳарорати юқори бўлди.


Натижада, касаллик қўзғатувчи замбуруғларнинг ривожланишига салбий таъсир этди. Кузатув олиб борилган ҳудудларда ун шудринг ва аскохитоз касалликлари қайд этилмади.

1-жадвал

**Нўхатданинг фузариоз (илдиз чириши, сўлиш) касаллигини қўзғатувчи замбуруғлар ва замбуруғсимон организмнинг таксономик ўрни.**

*(Лаборатория тажрибалари, Академик М.Мирзаев номидаги БУВИТИ лабораторияси) 2022 йил*

Олам (дунё)	Филум	Синф	Оила	Туркум	Тур
<b>Фузариоз (илдиз чириши, сўлиш)</b>					
Fungi (=Mycota)	Ascomycota	Sordariomycetes	<i>Nectriaceae</i>	Fusarium	<i>Fusarium oxysporum</i> <i>Fusarium solani</i>



1-расм. Нўхатда фузариоз касаллигини келтириб чиқарувчи

*F. oxysporum* замбуруғининг КДА озуқа мухитидаги культураси (а) ва макроконидиялари (b)

2-жадвал

Нўхат ўсимлигида учрайдиган касалликларнинг турлари ва тарқалиши 2022 йил.

Кузатув ўтказилган жой	Кузатилган майдон		Касаллик тарқалиши, %			
	гектар	нави	илдиз чири ш	фузари оз	ун шудр инг	аскохи тоз
<b>Яккабоғ тумани</b>						
Пахтакор МФЙ, “Фарангиз- Маржона мевалари” МЧЖ	10	Юлдуз	7,5	12,0	-	-
Ҳисор МФЙ, “Мухаммадиев Ғофур бобо” ф/х	10	Истиқлол	5,0	15,2	-	-
Ҳисор МФЙ, “Бегимкул Шер” МЧЖ	12	Истиқлол	5,5	12,6	-	-
<b>Китоб тумани</b>						
Ж.Турдиев МФЙ, “Камол Жалолиддин” ф/х	8	Юлдуз	6,3	14,5	-	-
Ж.Турдиев МФЙ, “Акмал Адхам	13	Юлдуз	7,8	12,7	-	-



Ўғли” ф/х						
<b>Қамаши тумани</b>						
Ғаллакор МФЙ, “Олмонд Аграр” ф/х	10	Юлдуз	2,5	7,0	-	-
Ғаллакор МФЙ, “Агро Ковер” МЧЖ	10	Юлдуз	2,7	6,3	-	-
<b>Дехқонобод тумани</b>						
Чучикудук МФЙ, “Севинч Ойгул” ф/х	7	Жахонгир	3,2	5,6	-	-
Чучикудук МФЙ, “Бердибек барака” ф/х	8	Жахонгир	3,5	5,0	-	-

Аммо, Яккабоғ тумани, Пахтакор МФЙ даги “Фарангиз-Маржона мевалари” МЧЖ га қарашли 10 гектар майдонда нўхатнинг Юлдуз навида илдиз чириш касаллиги 7,5% ва фузариоз 2,0% гача тарқалганлиги кузатилди.

Ушбу туманнинг Ҳисор МФЙ да “Мухаммадиев Ғофур бобо” ф/х (10 га) ва “Бегимқул Шер” МЧЖ да (12 га) эса нўхатнинг Истиклол навида илдиз чириш касаллиги 5,5% ва фузариоз 15,2% гача тарқалганлиги қайд этилди.

Шунингдек, Китоб тумани, Ж.Турдиев МФЙ да жойлашган “Камол Жалолиддин” ф/х(8 га) ҳамда “Акмал Адхам ўғли” ф/х (13 га) майдонларида нўхатнинг Юлдуз навида илдиз чириш касаллиги 6,3% дан 7,8% гача тарқалганлиги кузатилди, фузариоз эса 14,5% гачани ташкил этди.

Қамаши тумани, Ғаллакор МФЙ даги “Олмонд Аграр” ф/х (10 га) ва “Агро Ковер” МЧЖ га (10 га) қарашли майдонларда нўхатнинг Юлдуз навида ун шудринг касаллиги 2,7% гача қайд этилган бўлса, фузариоз касаллиги 6,3% дан 7,0% гачани намоён этди.

**Хулоса.** Нўхат ўсимлигида учрайдиган касалликларни тарқалиши бўйича Дехқонобод тумани, Чучикудук МФЙ да жами 15 гектар майдонда Жахонгир

навида кузатувлар олиб борилди. Кузатувлар давомида “Севинч Ойгул” ф/х (7 га) ва “Бердибек барака” ф/х (8 га) қарашли нўхат экилган майдонларда 3,5% гача ун шудринг ва 5,6% гача фузариоз касалликлари тарқалганлиги аниқланди. Кузатув олиб борилган ҳудудларда Қамаш ва Деҳқонобод туманларига нисбатан Яккабоғ ва Китоб туманларида нўхатнинг илдиз чириш ва фузариоз касалликлари кенгроқ майдонларга тарқалганлиги қайд этилди.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Қурбонов Ғ., Ҳайдаров Ҳ. Нўхат етиштириш агротехникаси қандай. Ғаллакорнинг ён дафтари. - Тошкент. - 1991. - Б.150-154.
2. Simay Endre Istvan. A csicsriborson (Cicer arietinum L.) 1985 es 1988 evek kozott megfigyelt gombak. Novenytermeles. -1989.38.- №5. - P. 435-442.
3. Reddy M.V., Gridley H. E., Kaack Hans J. Major disease problems of chickpea in north Africa. “Int. Chickpea Newslett”.-1980, Dec. 13-14.

## ЧОЛҒУ ЖЎРЛИГИНИНГ ВОКАЛ АСАРЛАРДАГИ ЎРНИ

**Махмудова Сайёра Миралиевна**

Ўзбекистон давлат консерваторияси “Муסיқа назарияси”

кафедраси катта ўқитувчиси

***Аннотация:** Ушбу мақолада вокал асарлар таҳлилида чолғу жўрлигининг ўрни хақида сўз кетади. Чолғу жўрлигининг вокал асардаги ўрни, фактура турлари, киритиладиган қўшимча чолғу парчалари хақида маълумот берилади. Маълумотлар муסיқий мисоллар орқали хам кўрсатилади.*

***Калит сўзлар:** вокал санъати, нутқ оҳанги, вокол куй, чолғу партияси, фактура турлари, чолғу парчалари, кириш, ритурнель, интерлюдия.*

Вокал муסיқаси санъатнинг муштарак тури сифатида ўрганилиши лозим. Унинг барча унсурлари ўзаро боғланиб, бир-бирини бойитиб мураккаб тизимни ташкил қилади.

Вокал асарни тўғри тушиниш ва таҳлил қилиш учун албатта муסיқий декламацияни хаққонийлиги, бадийлиги, ҳис-туйғу ва турли психологик ҳолатларни тўғри ифодаланганлиги масалаларини ўрганиш ва идрок этиш зарурдир. Вокал куйга нутқ оҳангини қатор хислатлари (тембр, куй, артикуляция) хамда лад, гармония, ритм, иборани ички тузилиши катта таъсир кўрсатади. Лекин куйни хусусиятларини, унинг характерини аниқлайдиган яна бир муҳим омил мавжуд. Бу вокал асарлардаги чолғу жўрлигидир.

Чолғу жўрлиги-якка қўшиқларда овозни қўллаб қўвватловчи сифатида вужудга келган. Кейинчалик вокал ансамбллар ва хорларда чолғу жўрлигида намоён бўлади. Чолғу жўрлиги ўрни жуда камтарин бўлиши мумкин масалан, фон ва тоналликни ушлаб турувчи, лекин аҳамиятли ўринни хам эгаллаши

мумкин. Кўпинча асосий мусиқий воқеа-ходисалар, мазмун айнан чолғу жўрлигида-оркестр партиясида, фортепиано ёки бошқа чолғу жўрлигида намоён бўлади.

Инсон овозига нисбатан чолғулар катта техник имкониятларга эгадир. Шунинг учун чолғу жўрлиги бир вақтда турли ролларни бажариши мумкин: умумлаштириш ва деталлаштириш, воқеа-ходисаларни ва матн ости маъносини ифодаловчи.

Чолғу партияси вокал партия томонидан охиригача ифодаланмаган мазмунни очиб бериш, вокал куйни олдиндан айтиб бериш, у билан диалогга (ёки тортишувга) киришиши, характерлар, мимика, пейзаж деталларини очиб бериши мумкин.

Жўрликдаги тасвирловчи мусиқа фақат фон сифатида эмас балки матнни ички мазмунини ифодалайди.

Баъзи вокал асарларда чолғу жўрлиги қатъий шартли таркибий қисми ҳисобланмайди. Фольклорда кўпгина жанрлар чолғу жўрлигисиз ижро этилади. Профессионал мусиқада, айниқса хор мусиқаси чолғу жўрлигига эга эмас. Буларга, ўрта аср ва уйғониш даври мусиқаси хос жанрлар-мессалар, мадригаллар, канцоналар, вокал ансамбллар, а capella киради.

Чолғу жўрлигида фактурани ҳам ўзига хос аҳамияти мавжуд. Фактура – бу мусиқий материалнинг тузилиши ёкида мусиқий матнни баён этиш услубидир. Кенг маънода фактурани икки тури мавжуд: бир овозли ва кўп овозли. Бир овозли фактурага яқка овоз ёки яқка овозни октава жуфтланган кўринишини киритамиз. Кўп овозли фактура – тенг овозлар координациясига асосланган бўлади. Фактурани турли планда умумлаштирувчи бу- гармония ҳисобланади.

Вокал асарларда кўпинча гармоник жўрлик аккордли фактура орқали баён этилади. Бу фактура тури вокал куй тоналлигини ушлаб туриш, матнда содир бўладиган ўзгаришларни янада бўрттириб таъсирчанглигини ошириш учун

хизмат қилади. Масалан кейинги мисолда ҳам аккордли фактура асосан вокал нотани таъсирчанглигини ошириш учун қўлланилган<sup>14</sup>.

*al tempo* ♩ = 60

*ff*

Кўпгина вокал асарларда чолғу жўрлиги гармоник фигурация орқали ифодаланади. Албатта аккордли фактурага нисбатан бир қарашда гармоник фигурация бироз соддароқ , ўзига у қадар эътиборни жалб қилмайдиган жўрликдек. Лекин матндан келиб чиқган ҳолда гармоник фигурация вокал

<sup>14</sup> Фактурага мисоллар композитор М.Бафоевнинг вокал асарларидан олинган.

куйни ифодавийлигини бойитишга, безашга бўлган интилиши орқали асар мазмунини эшитувчига етказиб беришда асосий вазифани бажаради. Масалан, кейинги мисолда вокал куй у даражада кенг ривожловга эга эмас, асосий оҳангни бойитишда гармоний фигурациянинг аҳамияти катта.

The image displays three systems of musical notation for piano. Each system consists of three staves: a bass staff at the top, a grand staff (treble and bass) in the middle, and a right-hand staff at the bottom. The notation is dense, featuring numerous accidentals (sharps, flats, naturals) and slurs, indicating a complex harmonic and melodic structure. The first system shows a series of chords and moving lines. The second system continues with similar patterns, and the third system concludes with a final chord and a fermata over the right-hand staff.

Албатта вокал асарлар фақатгина битта фактурага асосланмаслиги бу табиий. Матндаги ҳиссиётларни ўзгариши, қаҳрамонларнинг ўзаро тўқнашуви ваҳоказолар ўз-ўзидан вокал куй ўзгариши кетидан фактура жихатидан ўзгаришларга учрайди. Мисолда фактурани ўзгариши мусиқада характер, кайфиятни ўзгарганлигидан далолат беради.

Замонавий мусиқада шундай асарлар учрайдики уларда гомофон ёки аралаш фактура ҳеч қандай гармоник асосга эга эмас. Лекин асосий белгиси-асосий овоз ва фонни қарама-қарши қўйилиши сақланиб қолинади.

Чолғу партияси қачон биринчи планга чиқади, қачонки овоз орқали етказиб бериш етарли бўлмай қолган жойларда. Матн ости мазмунни очиб бериш фақат чолғу ижроси орқали амалга оширилади.

Баъзи вокал асарларда *чолғу парчалари* киритилади. Камер ва вокал-симфоник мусиқада (опера, оратория, кантата) шундай бўлимлар бўладики, улар чолғу мусиқаси учун мўлжалланган бўлади. Булар кириш, увертюралар, интродукциялар, прелюдиялар, яқунлаш. Чолғу бўлимлар вокал бўлимлар орасига киритилади. Чолғу бўлимларнинг роли аниқ бадиий ғояга ёки уларни шаклдаги ўрнига боғлиқдир.

Вокал асарларда баъзан *кириш* бўлимлари мавжуд. Кириш бўлимлари ижрочи томонидан биринчи сўзлар талаффуз қилинишидан аввал,



тингловчиларни керакли тимсолга, умумий тон, хиссиётли атмосферага созлайди. Кўпинча киришга қараб сўз у ёки бу маънога эга бўлади.

Кенг тарқалган кириш турларини келтириб ўтамиз:

➤ **фон вазифасини бажарувчи кириш.** Гоҳида бу бир неча аккорд бўлиб фақат белгиланган бир фактура тури сақланади. Лекин бундай турдаги киришда ҳам керакли хиссиётли тон ҳамда ёрқин тасвирий характерни ифодалайди. Шу бир неча аккордли кириш ҳам биринчи вокал ибораларни психологик жиҳатдан ишончли бўлишига хизмат қилади. Кириш бутун романс ёки кўшиққа хос бўлган фактура турини белгилаб беради.

➤ **мавзуга асосланган кириш қисм.** Бундай турдаги кириш кейинчалик вокал партия мавзусига айланади ва бутун кўшиқ ёки романснинг асосий мавзусини таърифлаб беради. Мавзу кенг ҳамда аҳамиятли даражада ривожланган бўлиши мумкин.

➤ **мустақил чолғу мавзуси ҳам кириш сифатида кўпинча учраб туради.** Бундай турдаги киришнинг вазифаси фақатгина керакли кайфиятни ифодалашдан иборат бўлмай, кейинги вокал партия куйи билан қарама-қаршилиқни вужудга келтиради.

Кўшимча киритилган чолғу қисм ҳам бадиий асарни ажралмас бўлагидир. Уларни *ритурнель интерлюдия* деб аташади. Ритурнель, интерлюдия, Булар ижрочидан ўзи яратган адабий қаҳрамон кечинмалари билан яшамоқни ҳамда мусиқага кўшилиб кетишни талаб қилади. Ритурнель, интерлюдиялар одатда романс ёки кўшиқ бандлари орасида боғловчи ролини бажаради. Интерлюдия кўпинча кириш материални такрорлайди ва бандни тугалловчи хисобланади. Бир вақтда интерлюдиялар банд ва бандни боғловчи, тингловчи диққатини бошқа ҳиссий ҳолатга ўтказиб беради.

Вокал асарларда чолғу йўли *яқунлаш* хулоса, маънони охиригача тугаллаб бериш ва резюме функциясини бажаради. Яқунлашни турли кўринишлари кўшиқ, романс ва опера номерларида учрайди. Булар:

- энг оддийси фон туридаги жўрлик.
  - вокал партияни охириги ибораси ёки жумласи такрори (ўзгарган ёки ўзгармаган тарзда).
  - охиригача сўзлаб берувчи якунлаш. Бунда олдинги бўлимдаги материал мусиқий жиҳатдан янгидан ривожланади. Кўпинча шундай турдаги якунлашда бутун асарни авжига тўғри келади.
  - Резюме, хулосали якунлаш кириш ёки янги мусиқий материалга асослаган бўлади. Каданс орқали олдинги бўлимдан ажралади.
- Таҳлил жараёнида чолғу жўрлиги ҳам муҳим ҳисобланади. Айнан жўрлик орқали баъзи вокал асарлар ўз таъсир кучига эгадир. Лекин жўрлик ўз ўрнида вокал куй чизигини бузмаслиги, унга халақит қилмаслиги лозим.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Анализ вокальных произведений. / Коловский О.П. муҳаррирлигида Л., 1998 й.
2. Бафоев М. “Рубоиёт ва композиторлик ижодиёти” Т., 2008 й.

## DOIRA CHOLG‘USI TARIXIGA NAZAR

**Mamatqulov Abdulxamid**

Guliston davlat universiteti. San‘atshunoslik fakulteti

**Mamatqulov Oybek**

Guliston davlat universiteti. San‘atshunoslik fakulteti

**Mamatqulova Mahfuza**

Guliston davlat universiteti. San‘atshunoslik fakulteti

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada doira cholg‘usining barcha cholg‘ular ichida uzoq tarixga egaligi va tarixiy omillari ko‘rsatilgan.*

***Kalit so‘zlar:** “chirmanda”, “childirma”, “dol”, “daf”, “daff”, “def”, “doira”, “chaval”, “dabi”, “nog‘ora”, “qayroq”, “safoil”, “Reznog‘ora”, “dul”.*

O‘zbek musiqa madaniyati qadimiy va rang-barang, ayni paytda yangi zamon an‘analarini o‘zida mujassam etgan holda rivoj topmoqda. Ustozlardan bizgacha saqlanib kelgan xalq musiqasi, mumtoz musiqa merosi, cholg‘u ijrochiligi, ijro uslublari keng qamrovda rivojlanmoqda, yoshlar tomonidan o‘zlashtirish, targ‘ibot qilish amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston istiqbolga erishishi munosabati bilan azaliy qadriyatlarimizni tiklash, o‘z tariximizni, milliy urf-odat va an‘analarimizni, ma‘naviy va badiiy merosimizni atroflicha o‘rganish, undan bahramand bo‘lish imkoniyati yaratildi.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoev 2 fevral 2022-yili “Madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi qarorida 2022/2023 o‘quv yilidan boshlab ta‘lim muassasalarida o‘quvchi va talabalarning

musiqiy bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo'lgan muxabbatni shakllantirish, yosh iste'dodlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilishi ko'zlangan.

Cholg'u ijrochiligida doira san'ati o'ziga xos yetakchi o'rin tutadi. Bu cholg'u barcha cholg'ular ichida uzoq tarixga egaligi va ijrochilik san'ati bilan ajralib turadi. Kishilik jamiyatining ibtidoiy davrlaridan boshlab qadimgi odam qadamlarining bir maromda yerga tashlanishi, ov yoki boshqa jamoa tadbirlaridagi takroriy harakatlar, qo'llarini-qo'llariga, badaniga urishdan paydo bo'luvchi sadolar, turli mehnat qurollari, buyumlar yoki toshlarning bir-biriga tegishidan kelib chiqadigan ritmik tovushlar — urma cholg'ularning vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Shuningdek, ritmusul ibtidoiy inson hayotining markaziy unsuri bo'lib, u jamoa faoliyatini birlashtiruvchi, uni borliq - tabiat va koinot bilan uyg'unlashtiruvchi yagona vosita bo'lgan. Eramizdan avvalgi ikki minginchi yillikka oid Samaylitosh arxeologik qazilmalaridan topilgan tarixiy obidalarda doirasimon cholg'ularda ijro etayotgan sozandalar tasvirlangan. Bu esa doiraning qadim zamonlardayoq ijrochilik amaliyotida mavjud bo'lgan urma cholg'u ekanligini tasdiqlaydi. Markaziy Osiyo hududlarida olib borilgan qazilmalar natijasida olingan ma'lumotlarga qaraganda, islom davridan oldingi zamonlarda doiraga asosan ayollar jo'r bo'lgan. Ularning doira usullariga mos qo'shiq aytishi va raqsga tushishi o'sha davrlarda shakllanib, asrlar osha rivojlanib kelgan. Doyra, qayroq, zang va safoyillar oymoma marosimlarida koshchinlar tomonidan keng qo'llanilgan. Niso peshtoqlarida tasvirlanishicha, doira diniy marosim raqslariga jo'r bo'luvchi cholg'u sanalib, ayrim hollarda raqsga tushuvchilarning o'zlari, ba'zan esa maxsus doirachilar tomonidan ijro etilgan. Buyuk sarkarda Amir Temur, musiqa san'atining muhim estetik ahamiyatini ma'naviy omil sifatida harbiy musiqa turlarini qo'shinlarning jangovarlik ruhiyatini oliy darajada saqlab turuvchi kuch deb bilgan va uning rivojiga katta e'tibor bergan. U tarixda birinchi bo'lib, askarlarni jangovar bayroqlar va musiqa cholg'u asboblari bilan taqdirlash odatini harbiy udumga kiritadi: "Amr qildimki, -

deb yozadi “Tuzuklar”ida, — qaysi bir amir biron mamlakatni fath etsa, yo g‘anim lashkarini yengsa, uni uch narsa bilan mumtoz qilsinlar – faxrli xitob, tug‘ va nog‘ora berib, uni bahodir deb atasinlar”.

Markaziy Osiyoda yaxshi tanish bo‘lgan nog‘ora turlari ko‘s, tabira, al-tabra, bir tomonli nog‘ora, chindoul, doul-paz, katta nog‘ora kabilardan foydalanilgan. Zarbli cholg‘ularning asl ma‘nosiga qarab ko‘radigan bo‘lsak, zarb arabcha – urmoq yoki urish degan ma‘nolarni bildiradi va mazkur cholg‘ularda asosan zarb bilan urish, barmoq bilan chertish, silkitish va boshqa harakatlar orqali tovush hosil qilinadi. O‘zbek xalq cholg‘ulari orasida urib chalinadigan asboblarning guruhi kuyning o‘ziga xos ritm qatorini tashkil etib, alohida o‘rin egallaydi. Juda ko‘p hollarda xalq kuylari urib chalinadigan asboblarning ritmlari asosida ijro etiladi. Bizgacha yetib kelgan ma‘lumotlarga ko‘ra jo‘rnavoz zarbli soz sifatida ommalashgan doira xam o‘zining rivojlanib kelayotgan milliy oxanglarga boy zarb va usullari bilan xalq orasida shuxrat qozongan. Bu cholg‘u asbobi o‘zbek va tojiklarda “doira” “chirmanda” “childirma” “dol” armanlarda “daf” Eron va Misrliklarda “daff”, Ozarbayjonlarda “def” “doira” “chaval” ayrim sharq mamlakatlarida “dabi” va boshqa nomlar bilan keng tarqalganligi ma‘lum. U aniq bir baland tovushga ega bo‘lmasa ham, xilma-xil ovoz tembri va dinamik imkoniyatlarga egadir. Shuningdek, doira “nog‘ora”, “qayroq”, “safoil”, “Reznog‘ora”, “dul” kabi urib chalinadigan cholg‘u asboblari turkumiga mansubdir. Umuman doira turlari bir-biridan katta-kichikligi, tarkibiy qismlarining tuzilishi ijrochilik uslublari bilan farq qiladi. Bularga Xorazm, Buxoro, Samarqand, Surxondaryo-Qashqadaryo, Farg‘ona, Toshkent doira ijrochilik uslublarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Abu Nasr Forobiy (X asr) “Kitob al-musiqa al-kabir” (Musiqa haqida kitob) asarida doira va doira asari bo‘lgan usullar xaqida g‘oyat qimmatli ma‘lumotlar berib o‘tgan. Safiuddin Urmaviy (XIII asr) “Kitob al-advor” (Musiqa doiralar kitobi) asarida doira usullarining o‘n ikki maqom musiqi ijrochiligida muhim o‘rin tutishi to‘g‘risida fikr yuritgan. Abdurahmon Jomiy (XV asr) “Risolai musiqiy” (Musiqa risolasi) asarida doira usullari turlari haqida

yoʻzadi. Darvesh Ali Changiy-Buxoriy (XVII asr) “Risoi ai musiqiy” (Musiqi a risoi asi) asarida doira usullari va unig mashhur ijrochilari toʻgʻrisida qimmatli maʼlumotlarni bergan. Bu noyob manbalar doira ijrochilik tarixini oʻrganish uchun muhim hisoblanadi. V.Belyaev, T.Vizgo, A.Petrosyans, F.Karomatov, I.Rajabov kabi olimlarimizning tadqiqotlarida doira ijrochiligining nazaryasiga doir muayyan fikr muloxazalar bildirib oʻtilgan. A.Petrosyans (XX asr) “Doira ijro maktabi” asarida toʻrt chiziqli doira usullari notasini asoslab bergan. Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan olimlarimizning musiqaga oid risoi alaridagi shuningdek, XX asrdan boshlab olib borilgan ilmiy tadqiqotlardan doira ijrochilik tarixi qadim ildizlarga ega ekanligini bilib olishimiz mumkin. Shuning uchun oʻzbek xalqi qadimdan doira asbobini ardoqlab kelgan. Oʻtmishda bu asbob sadolari ostida xalqni maydonlarga, toʻy-tomoshalarga, musobaqa-kurashlarga chaqirganlar. Doira ijrochilik tarixini kuzatish shuni koʻrsatadiki, har bir davrda doira ijrochilik sanʼatining fidoyilari boʻlgan. Ular bu borada ilmiy, nazariy, amaliy va ijtimoiy jihatdan munosib xissa qoʻshganlar. Respublikamizda doira ritmik usullarini dunyoga mashhur qilishda oʻz hissasini qoʻshgan Usta Olim Komilovning (1875-1953), boy merosi avlodlar uchun katta maktab vazifasini oʻtab kelmoqda. Mashhur ustaning anʼanalarini davom ettirganlar: Toʻychi Inogʻomov (1914-1986), Gʻofur Azimov (1917-1981), Dadaxoʻja Sottixoʻjaev (1921-1991), Qaxramon Dadaev (1936-2013), Odil Kamolxoʻjaev (1944-2015) kabi ustozlardir. Zamondoshlarimiz Talʼat Sayfutdinov, Rustam Ubaydullaev, Komiljon Xakimov, aka-uka Dilmurod, Elmurod, Xolmurod Islomovlar, Husan Nosirov, Xasan Azimov, Ilhom Ikromov kabilarning doira ijrosi rivojidagi mehnatlarini eʼtirof etish lozim. Oʻnlab doirachilar mustaqil Oʻzbekistonning barcha viloyat va tumanlarida, butun Oʻrta Osiyoda doirachilik sanʼatini rivojlantirish hamda bu noyob soz turini dunyoga targʻib va tashviq qilish ishida munosib hissalarini qoʻshib kelmoqdalar.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI**

1. Mirziyoev.Sh. “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi qaror. 2 fevral, 2022 yil.
2. Odilov.A “O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi ” O‘qituvchi,1995 yil
3. Rahmatov. N “Doira”- o‘quv qo‘llanma Toshkent , 2016 yil



## ANTHROPONYMOUS UNITS AND THEIR LINGUISTIC CHARACTERISTICS

**Yusupova Alfiya Shavketovna**

A teacher of Kazan State University.

**Hamroyeva Maftuna Rasulovna**

A teacher of Bukhara State University.

***Abstract.** This article discusses the specific features of personal names in a certain language, their semantic-stylistic functions in a work of art. Also, the semantic function of anthroponyms and their various forms and linguistic importance are discussed.*

***Key words:** semantic, stylistic, anthroponyms, form, artistry, artistic work, personal names, meaning, methodology, artistic style, literary language, artistic language, existence, surname, nickname.*

In world linguistics, the second half of the 20th century is characterized by the formation of anthropocentrism as a priority direction in scientific research at the beginning of the 21st century, and increased attention to the study of the human personality in all scientific fields. In particular, in linguistics, such an approach is manifested in the study of the linguistic landscape of the individual and the world. In this regard, the study of anthroponyms, which have a special place in the system of onomastic units, is also important as a linguistic resource that reflects the specific characteristics of the people's lifestyle, social, economic, cultural and educational relations in the national language.

In world linguistics, nomenclature is becoming more and more theoretical and practical as an important direction in the nomenclature of linguistics. Literary onomastics, i.e. identification of personal names in literary texts, their gender genesis, etymological characteristics, national traditions and values, customs, lifestyle, religious worldview, artistic and cultural wealth of the population using these names, are especially among the onomastic trends. special attention is paid to studying on the basis of the works that reflect the information about the people, revealing the linguistic, cultural, paradigmatic, onomastic-grammatical signs of the anthroponyms, which embody the linguistic, historical, geographical, ethnographic, religious-mythological views of the people.

At a time when in our country it is considered that "in today's era of globalization, it is natural for every independent country to give priority to the issue of ensuring its national interest, and in this regard, first of all, to the preservation and development of its culture, ancient values, and mother tongue."<sup>15</sup> Collecting and studying the names of people who have the ability to reflect the national mentality and are related to linguistic descriptions of language and cultural phenomena is also relevant. After all, anthroponyms describe the development of cultural and historical life, as well as the national value system of a people who own a certain language. There is a need to develop the scientific principles of historical and modern names in the Uzbek language, onomastic lexicography (onomastic lexicography), to preserve the nationality and naturalness of famous names in the field, and to determine the compatibility of the name with the laws of the national language.

In the early 60s of the last century, onomastics became one of the most actively studied branches of linguistics. In the process of scientific research, the object and subject of research were determined, and now the field of researching the methodical

---

<sup>15</sup> Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On measures to fundamentally increase the prestige and position of the Uzbek language as a state language" PF –5850. October 21, 2019. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

application of the science of onomastics is actively developing. After all, onomastics is a science related to a number of other linguistic sciences, including sociolinguistics, onomasiology, text linguistics, stylistics, and communicative linguistics.

Russian and foreign scientists have been interested in onomastics for many years. Onomastics began to develop as an independent branch of linguistics from the second half of the 20th century. At the first international onomastic congress held in France in 1930, it was officially declared an independent science and field. After all, if we take into account that scientific and theoretical gatherings and special trainings dedicated to onomastics were organized in many countries before this, we know that this is not the year of the emergence of onomastics, but the year of its recognition by world science. .

In 1949, an onomastic committee was established under UNESCO, and the "Onoma" magazine was published. At the same time, the magazine "Revue internationale d'onomastique" was established in Paris. In 1955, a magazine called "Onomastica" [Shmelyova, 2013] began to be published in Poland. At the same time, the XIII international congress on onomastics was held in Poland in August 1978.<sup>16</sup>

Anthroponyms, which are part of the lexical system of the Uzbek language, form another unique structure. These are:

1. Names: Kumush, Feruza, Dilshod, Alisher.
2. Nicknames: leper, deaf, lame.
3. Nicknames: Navoiy, Gulxaniy, Julqunboy.
4. Surnames: Saidnosirova, Qahhorova, Mo‘minova.
5. Patronymic names: Rasulovna, Nusratovich, Axtam o‘g‘li.
6. Conditional names: Bahrom–Baxi, Shohruh–Shoxi.<sup>17</sup>

---

<sup>16</sup> Осипова Н. Ономастика как отрасль лингвистических исследований // <http://jurnal.org/articles/2017/fill1.html>.

<sup>17</sup> Қиличев Э. Айний асарларида антропонимларнинг стилистик хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1978,4.

In the period after the 60s of the 20th century, the research of the system of proper nouns in the Uzbek language in modern linguistic methods increased. In particular, as mentioned above, many scientific articles and dissertations were written on the names of places, names of people and other fields. Despite this, the ongoing work on Uzbek linguistics cannot be considered sufficient and satisfactory. Because there are a lot of nouns in the Uzbek language, it is necessary to collect all their forms and study their historical development (1); the scientific principles of nomenclature (onomastic lexicography) of ancient names in the Uzbek language have not been developed (2); materials of historical names have not been studied to date (3); In almost all the works on Uzbek names, the features of the names are analyzed. But these observations are not related to the practical problems of nomenclature. In particular, insufficient opinion is expressed about the pronunciation, spelling, and stylistic use of personal names (4). The successful solution of the important theoretical and practical problems of names in the Uzbek language is largely related to the thorough study of the historical development of these names. This idea applies equally to all types and groups of names in the Uzbek language. Methodical meanings, place and uniqueness of anthroponyms in the text of an artistic work have not been studied and a comparative analysis has not been carried out (5).

Some of the anthroponyms are full-fledged anthroponymic appropriations, and the other part are names created in the Uzbek language, created by Uzbeks, and it is not correct to include them among the appropriations. Failure to distinguish this leads to artificially increasing and exaggerating the number of appropriated names in the Uzbek language. Also common anthroponymic types of anthroponyms are found in our language. Examples of common troponyms in our language are Barno, Shamshad, Izzat, Nazar, which are given to both men and women. We consider it appropriate to call such names generic names.

Among the current problems of Uzbek nomenclature, the study of nicknames and nicknames has a special place. Because the more we turn to ancient times, the difference between names and nicknames decreases, and the role of nicknames as a means of naming in general increases. In general, it is not enough to study nicknames and nicknames only as a nominative tool, but it is also important to study them as an artistic and stylistic tool. In such observations, it is important to reveal commonalities and mutual differences between names, nicknames and nicknames.

It is known that the fund of Turkic names is a common property for many (historical) Turkic peoples. However, these names are not preserved to the same extent in all Turkic languages, and the existing ones have their own aspects according to their meaning and linguistic form. Therefore, the fund of Turkic names, on the one hand, creates a sign of commonality in the anthroponymy of sister Turkic languages, and on the other hand, provides uniqueness and nationalism in the set of names of each language. In this sense, it is very important to compare the original Turkish names in the modern Uzbek language with the fund of ancient Turkish names, and through this, to determine the national identity in Uzbek anthroponymy and to determine its main linguistic signs.

## REFERENCES

1. Hamroyeva, R. M. (2021). Application of Anthroponymic Units in the Works of Tahir Malik (On The Example of the Story" Devona"). *Middle European Scientific Bulletin*, 8.
2. Rasulovna, H. M. (2021). Use Of Anthroponyms In Tahir Malik's Stories. *Journal of Contemporary*.
3. Rasulovna, H. M. (2021). Anthroponymic forms in the text of artistic work (On the example of Tahir Malik's work). *Middle European Scientific Bulletin*, 10.
4. Rasulovna, H. M. THE LITERARY OF ANTHROPONYMS. *Chief Editor*.

5. Rasulovna, H. M. (2022). TOHIR MALIKNING ASARLARIDA ONOMASTIK BIRLIKLAR QOLLANILISHINING USLUBIY TAHLILI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 2(4), 391-398.
6. HAMROYEVA, M. (2021). BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INNOVATSION YONDASHUV. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 1(1).
7. Ahmedov, A. R. (2022). Some Feedback About Linguistic Knowledge. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 3(5), 125-131.
8. Raxmatovich, A. A., & Rasulovna, H. M. (2022). BADIY ASAR ANTROPONIMLARIDA LUGAVIY QATLAM MASALALARI (TOHIR MALIKNING IJODI MISOLIDA). *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 2(4), 399-402.
9. Akhmedov, A. R., & qizi Po‘latova, S. M. (2021, December). O‘zbek shevalarini lingvo-geografik xaritalashtirish. In *Conferences*.
10. Akhmedov, A. R. (2021). AREALOGIYA TUSHUNCHASI HAQIDA: Atoulllo Rakhmatovich Akhmedov Buxoro davlat universiteti dotsenti Buxoro, O‘zbekiston ar ahmedov@buxdu.uz Sevara Mahmud qizi Po‘latova Buxoro davlat universiteti o‘qituvchisi Buxoro, O‘zbekiston E-mail: sevaramahmudqizi@gmail.ru. In *Научно-практическая конференция*.
11. Rahmatovich, A. A. VOBKENT TUMANI SHEVASIDA SO‘ZNING MORFEMIK TARKIBI. *SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY*, 123.

## YANGILANGAN KONSTITUTSIYADA O'QITUVCHILAR HUQUQLARINING KAFOLATLARI

**Ergasheva Nargiza Bahridin qizi**

Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

***Annotatsiya:** Bugungi kunda yurtimizda bo'lib o'tgan muhim siyosiy jarayonlardan biri bu yangi Konstitutsiyaning qabul qilinishi bo'ldi. Ushbu maqolada yangilangan Konstitutsiyada belgilangan o'ituvchi va pedagog xodimlarning huquqlari va ularning kafolatlari haqida so'z boradi.*

***Kalit so'zlar:** referendum, konstitutsiyaviy islohot, pedagog, huquqiy maqom.*

Ayni kunlarda yurtimizda bo'lib o'tgan muhim siyosiy jarayonlardan biri bu – konstitutsiyaviy islohotlarni amalga oshirish, Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

Jannatmakon yurtimiz azal-azaldan ta'lim-tarbiyada o'rnak, fanda esa ilm-ma'rifat o'chog'i vazifasini o'tab kelgan. Qanchadan-qancha buyuk ilm-u toliblar, mashhur kashfiyotchilar ham aynan bizning yurtning farzandlari bo'lgani bilan har qancha faxrlansak arziydi. O'sha mashhur ikki uyg'onish davri, insoniyat rivojida ilm-u – fan tobora yuksalib borayotgan bir paytdan, Beruniy yer kurrasining qanday tuzilganligi haqida o'z qarashlariga ega bo'lgan, insonlar o'ziga hos muloqot shakllarini tushunib, o'z tillarida ijod qilishni boshlayotganida, buyuk alloma Forobiy yetmishga yaqin tilni bilgan va bir yuz ellikdan ortiq asarlar yozgan.

Bu esa bir inson qilishi mumkin bo'lgan eng ulkan, ilm fan uchun qo'shilgan hissalaridan biridir. Bu ma'lumotlar ehtimol ko'p tilga olinishi sababli siyqasi chiqqandek tuyular, ammo ayni damda bu shaxslarni eslab o'tishdan maqsad mutlaqo boshqa. Ular yashagan davrda ilm-fanning shu darajada taraqqiy etishiga sabab nima



bo'lganligi, o'sha davr siyosiy tizimi va ijtimoiy muhiti haqida so'z boradi. Kuchli davlat qanday shaklanadi? Albatta kuchli siyosiy tizim, inson huquq va erkinligi, uning qadr-qimmati yuksaklarga ko'tarilsa, qonun har doim ustun va ustuvor bo'lsa, shubhasiz buyuk davlat hosil bo'ladi.

O'z davrida qat'iyati bilan mashhur bo'lgan kuchli siyosat arbobi Amir Temur hukmronlik qilgan davrda yurt qiyofasi tubdan o'zgarib, ko'plab yutuqlarga erishildi. Uning davrida ayniqsa, ilm-fanga katta e'tibor berildi, ta'limga e'tiborni davlat siyosati darajasiga ko'tardi. Bugun ham uchinchi renessans shiddat bilan borayotgan bir paytda, ushbu uyg'onishni tom ma'noda mustahkam poydevori vazifasini o'tovchi O'zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasi qabul qilinishi e'tiborga molik.

Referendum orqali qabul qilingan, Konstitutsiyaviy qonunda ilm-fan uchun yanada keng imkoniyatlar eshigini ochuvchi huquqlarning kiritilishini kuzatish mumkin. Xususan, ta'lim to'g'risidagi moddaga kiritilgan o'zgarishiga ko'ra:

“Har kim ta'lim olish huquqiga ega.

Davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi.

Davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o'rta ta'lim majburiydir.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta ta'lim davlat nazoratidadir”.

Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2022 yil 20 iyundagi Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvidagi nutqida “Biz oila, maktabgacha ta'lim, maktab va oliy ta'limni hamda ilmiy-madaniy maskanlarni Uchinchi Renessansning eng muhim poydevori hisoblaymiz” - deb ta'kidlagan edilar. Kiritilgan ushbu qo'shimcha, bilimi

mustahkam yoshlar tarbiyasi uchun katta ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'lim tizimida olgan bilimlarni bolalar hech qachon unutmaydi, ya'ni inson umri davomida olishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarning qariyb 70 % ini aynan 5 yoshgacha bo'lgan davrida olishini hisobga olganda bu qo'shimcha o'ta ahamiyatli desak mubolag'a bo'lmaydi. Ikkinchi Renessans bunyodkori Amir Temur davlatida amaldorlarga "mudarrislar va shayxlarga kundalik maoshlarini belgilasinlar. Sayidlar, ulamo, mashoyix, fuzalo, ulug'larni aziz tutsinlar" degan vazifani qo'yganligi "Temur tuzuklari" da aks etgan. Ehtimol, olamshumul yutuqlarga sabab, ustozlarning ulug'lanishi, ularning mashaqqatli mehnatining munosib ravishda qadrlanishidir. Negaki, ustozlar yo'lchi yulduzdek, to'g'ri manzilni topishda o'rganuvchilarga ko'mak beradi.

Uchinchi Renessans, Yangi Konstitutsiyada o'qituvchi va murabbiylarning huquqiy maqomining mustahkamlanishi quvonarli hol. Kiritilgan o'zgartirishga ko'ra, 52-moddada "O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etiladi.

Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi" deb belgilab qo'yildi. Moddani kengroq sharhlaydigan bo'lsak, bu yerda o'qituvchining mehnati nimalarga sarflanishi belgilangan, ya'ni ular jamiyatni rivojlantirishda asos, kelajak avlodni yetuk qilib tarbiyalashda eng birinchi omil hisoblanadi.

Yaqin yillargacha pedagog xodimlarning faoliyati birorta normativ-huquqiy hujjatda belgilanmaganligi barchamizga sir emas. Yangilangan Konstitutsiya, ya'ni eng oliy yuridik kuchga ega bo'lgan hujjatda ularning maqomi belgilanishi ham, ularga bo'lgan e'tibor kun sayin ortib borayotganligining namunasidir. Bundan tashqari 2023-yilning 27-martida "Pedagog xodimlarning xizmat vazifasini

bajarishga to'sqinlik qilganlik uchun javobgarlik kuchaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga hamda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish haqida" gi O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi. Endi pedagog xodimlarni mehnatga biror-bir shaklda ma'muriy tarzda majburlash ta'lim tashkiloti pedagog xodimiga nisbatan ma'muriy jazo, undan keyin esa jinoiy jazo qo'llanilishiga sabab bo'ladi. Bu qonun yaqin yillargacha pedagoglarning vazifasidan tashqari turli ishlarga jalb etilishi holatlari ro'y berayotganligi va endi mana shunday holatlarning oldini olish uchun qabul qilindi.

Taraqqiyot strategiyasining 4-yo'nalishida belgilangan maqsadlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, o'quv o'rinlarining sonini 2026 yil yakuniga qadar 6,4 milliongacha yetkazish, Oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 % ga yetkazish va ta'lim sifatini yuqori darajaga oshirish vazifa sifatida qo'yilgan. Bundan tashqari yangi Konstitutsiyada ta'limga yo'naltirilgan moddasida, "Davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi" deyilgan Bu esa shuni anglatadiki, ta'lim muassasalarining soni keskin ortadi, ya'ni faqat davlat ta'lim muassasalari emas, balki xususiy ta'lim muassasalari ham ko'payadi. Natijada o'qituvchilarga bo'lgan talab oshadi, yuqoridagi maqsadlarga erishish birinchi navbatda pedagog xodimlarning huquqlarini, ayniqsa davlat himoyasida ekanligini, faoliyatiga aralishishga yo'l qo'yilmasligini Konstitutsiya darajasida kafolatlashni talab qiladi.

Agarda, maktabgacha ta'limdan to oliy ta'limni tugatguncha ushbu qat'iy tizimga amal qilinsa, albatta yangitdan-yangi dunyoni lol qoldirguvchi zotlar yetishib chiqishi tabiiy. Xususiy bog'cha va maktablarning qurilishi esa davlat ta'lim muassasalari bilan o'ziga xos raqobat muhitini yaratadi. Raqobat bor joyda, o'sish bo'ladi. Pedagog xodimlar o'z mehnatiga yarasha javob olishlari, ularning maqomining yanada mustahkamlanishi kasbga bo'lgan mas'uliyatni oshiradi.

Shunchaki, zerikarli va vaqtni o'g'irlovchi dars soatlari endi vijdonan va mehr bilan o'tiladi.

Muxtasar qilib aytganda, Konstitutsiyaga kiritilgan ta'lim olishga oid huquqlarning takomillashtirilishi biz va bizga o'xshagan talaba yoshlarga o'z ustimizda ishlashimiz va olgan bilimlarimizni Vatanimiz ravnaqi uchun sarflashimizga keng huquqiy imkoniyatlar yaratadi.

### FOYDALANILGAN MANBAALAR

1. Temur tuzuklari. – T.: “O‘zbekiston”, 2013. 184 b.
2. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son <http://lex.uz/docs/-6445145>
3. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 28.03.2023-y., 03/23/826/0172-son <http://lex.uz/uz/docs/-6416492>
4. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/23/21/0085-son. <http://lex.uz/uz/docs/-5841063>

## YASHIL IQTISODIYOT VA UNING KELAJAKDAGI ISTIQBOLLARI

**Erkinov Davronbek Yusupovich**

Toshkent kimyo-texnologiyasi instituti, Menejment va kasb ta'limi fakulteti, Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti kafedrası, 57-20 guruh talabasi

[erkinovdavron02@gmail.com](mailto:erkinovdavron02@gmail.com)

**Kadirov Ulug'bek Ravshanovich**

Toshkent kimyo-texnologiyasi instituti, Menejment va kasb ta'limi fakulteti, Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti kafedrası

[ulugbekkadirov1@gmail.com](mailto:ulugbekkadirov1@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Yashil iqtisodiyot har qanday davlatning barqaror rivojlanishini ta'minlashning muhim vositalaridan biridir. Yashil iqtisodiyot deganda aholining turmush darajasi yuqori bo'lgan, tabiiy resurslardan hozirgi va kelajak avlodlar manfaati yo'lida hamda mamlakatning xalqaro ekologik majburiyatlariga muvofiq ravishda ehtiyotkor va oqilona foydalanish nazarda tutilgan iqtisodiyot tushuniladi. Maqolada O'zbekiston misolida ko'rib chiqiladi. Yangi yashil iqtisodiyot siyosati, ta'kidlanganidek, O'zbekiston aholisi farovonligini oshirish, turmush sifatini yaxshilash va mamlakatimizni dunyoning eng rivojlangan 50 ta davlati qatoriga kiritish bo'yicha chuqur tizimli islohotlarga asos bo'ladi. Jahon hamjamiyatining eng dolzarb muammolaridan biri bu rivojlanayotgan bozorlar iqtisodiy o'sishining ishonchli harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan va iqtisodiy inqirozdan chiqish uchun yangi imkoniyatlar yaratuvchi "yashil" iqtisodiyotni joriy etishdir. Maqolada O'zbekistonning faol iqtisodiy siyosat olib borish orqali iqtisodiyotini "yashil"ga aylantirish borasidagi sa'y-harakatlari tahlil qilingan.*

*Kalit soʻzlar: yashil iqtisodiyot, hayot sifati, aholi, mamlakatlar, resurslar, iqtisodiy oʻsish, barqaror rivojlanish, yashil rivojlanish.*

## **KIRISH**

Yashil iqtisodiyot - iqtisodiy tizim boʻlib, uning asosiy maqsadi sayyoramiz ekologiyasini saqlash va iqtisodiyotning barcha sohalarini rivojlantirish, ishlab chiqarish va xizmat koʻrsatish bilan bogʻliq boʻlgan iqtisodiyotni yanada rivojlantirishni amalga oshirishga asoslangan iqtisodiy faoliyatning yangi yoʻnalishidir.

Iqtisodiyotning tashqi muhitdagi oʻzgarishlar bilan tobora mustahkam oʻzaro bogʻliqligi, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning koʻplab shakllariga taʼsiri hozirgi davrda iqtisodiyot globallashtiruvining muhim xususiyati hisoblanadi. Soʻnggi yillarda jahon hamjamiyatining dolzarb muammolaridan biri barcha qitʼa mamlakatlarida “yashil iqtisodiyot”ni joriy etishdir. Globallashtiruv jarayoni sanoati rivojlangan mamlakatlarning texnologik bazasini sifat jihatidan yangilashni, modernizatsiya qilingan iqtisodiyotni ishlab chiqarish samaradorligi va raqobatbardoshlik darajasini oshirish barobarida hayot sifati va yashash muhitini yaxshilaydigan yangi texnologik tartibga oʻtishni taqozo etmoqda.

Yashil iqtisodiyot konsepsiyasining asosiy maqsadi barqaror iqtisodiy oʻsishni taʼminlash va investitsiyalarni oshirish bilan bir vaqtda atrof muhit muhofazasi va ijtimoiy integratsiya sifatini yaxshilash hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, mazkur maqsadga erishish uchun davlat va xususiy investitsiyalarni barqaror rivojlanishning ekologik va ijtimoiy omillariga keng miqyosda yoʻnaltirish zarur boʻladi. Yashil iqtisodiyotning maqsadi tabiiy resurslardan oqilona foydalangan va salbiy ekologik taʼsirlarni nisbatan kamaytirgan holda barqaror iqtisodiy oʻsishga erishishdir. Yashil iqtisodiyot haqida soʻz borar ekan, uni atrof-muhit bilan uzviy bogʻliq ekanligini unutmasligimiz lozim, aynan ekologiya bilan tobora yomonlashib borishi butun insoniyatni ushbu global muammoning yechimini topishga undaydi.

O‘zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida “yashil iqtisodiyot”ni amalga oshirishda ham faol ishtirok etmoqda. Rivojlanayotgan bozorlarda iqtisodiy o‘shishni ta’minlashning eng ishonchli usullaridan biri bu “yashil iqtisodiyot”ni joriy etish bo‘lib, bu rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy inqirozdan chiqishi uchun imkoniyatlar yaratadi. Yashil iqtisodiyot mamlakatimiz barqaror rivojlanishini ta’minlashning muhim vositalaridan biridir.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

So‘nggi o‘n yilliklarda ko‘pchilik rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar uchun iqtisodiy o‘shish barqarorligi, resurslardan foydalanishni kengaytirish va atrof-muhitga zararli ta’sirlarni kamaytirish ustuvor vazifa hisoblanadi.

Tabiiy resurslardan samarali va mas’uliyatli foydalanish orqali barqaror o‘shish sur’atlariga erishishga qaratilgan yashil o‘shish konsepsiyasi 2000-yillarning oxirida joriy etilganidan buyon ko‘plab hukumatlar iqtisodiy siyosatining ajralmas qismiga aylandi.

Bu bugungi cheklangan resurslardan samarali foydalanish zarurati iqtisodiyotning asosiy masalasi va iqtisodiyotni barqarorlashtirish jarayonining kafolati ekanligiga asoslanadi. Cheksiz ehtiyojlarni qondirish uchun atrof-muhitga nisbatan adolatsiz xatti-harakatlar kelajak avlodlar hayotini xavf ostiga qo‘yishi mumkin. Shunday ekan, bugungi kunda yashil iqtisodiyotning o‘rni beqiyos.

Jahon iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, ko‘plab yangilangan innovatsion texnologiyalarga o‘tish davrida iqtisodiy samaradorlik omili taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi sifatida qaralmoqda. Ammo shuni ta’kidlash kerakki, ularning aholi turmush sifati va yashash muhitiga salbiy ta’sirining oldini olish muhim ahamiyatga ega. Bu mamlakatlarning yashil strategiyalarini qo‘llab-quvvatlaydi. So‘nggi yillarda milliy iqtisodiyotlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan yashil iqtisodiyotning turli tarmoqlarini rivojlantirishga katta miqdorda mablag‘ yo‘naltirilmoqda.



Tadqiqotning metodologik asoslari atrof-muhit iqtisodiyoti, ekologik iqtisodiyot va barqaror rivojlanish iqtisodiyotining evolyutsiya va rivojlanish jarayonlarini o'rganuvchi akademik ilmiy maktablarning qarashlari bilan belgilanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon banki va boshqa tashkilotlarning materiallari barqaror rivojlanish sharoitida ekologik iqtisodiyotning turli jihatlarini tartibga soluvchi u yoki bu darajada keng qo'llaniladi.

Bugungi kunda yashil iqtisodiyot inson farovonligini yaxshilaydigan va ijtimoiy tenglikni ta'minlovchi, shu bilan birga ekologik xavf va tanazzulni sezilarli darajada kamaytiradigan iqtisodiyot sifatida qaralmoqda. Yashil iqtisodiyotda daromad va bandlikning o'sishiga uglerod chiqindilari va ifloslanishini kamaytiradigan, energiya va resurslar samaradorligini oshiradigan hamda biologik xilma-xillikning yo'qolishining oldini oladigan davlat va xususiy investitsiyalar orqali erishiladi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Yashil iqtisodiyotga o'tish tabiiy kapitalni tiklaydi va kengaytiradi, uglerod chiqindilarini kamaytiradi va uzoq muddatda odamlarning yashashi va ishlashi uchun qulay muhit yaratadi.

2019-2030-yillarda O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasida iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi va kelgusi yillarga mo'ljallangan ustuvor vazifalarga alohida e'tibor qaratilgan. Yashil iqtisodiyotga o'tishning strategik mexanizmi global va milliy miqyosda barqaror rivojlanishga o'tishning samarali vositasi bo'lib, atrof-muhit samaradorligi, resurslarni tejash, tarmoqlararo xarakterga egalik tamoyillariga asoslanadi.

Mamlakatimizda tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish, iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, shu bilan birga, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasini yashil iqtisodiyotga o‘tishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo‘ldi:

- texnologik modernizatsiya va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish;

- ilg‘or xalqaro standartlarga asoslangan yashil mezonlarni davlat investitsiyalari va xarajatlarining ustuvor yo‘nalishlariga kiritish;

- davlat rag‘batlantirish mexanizmlarini rivojlantirish, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni faollashtirish orqali yashil iqtisodiyotga o‘tish yo‘nalishlari bo‘yicha tajriba loyihalarini amalga oshirishni qo‘llab-quvvatlash;

- ta‘limga investitsiyalarni rag‘batlantirish, yetakchi xorijiy ta‘lim muassasalari va ilmiy markazlari bilan hamkorlikni rivojlantirish orqali yashil iqtisodiyot sharoitida mehnat bozori bilan bog‘liq kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish;

- Orolga ekologik inqirozning salbiy ta‘sirini yumshatish choralarini ko‘rish;

- yashil iqtisodiyot sohasida xalqaro hamkorlikni, jumladan, ikki va ko‘p tomonlama kelishuvlarni mustahkamlash.

Ishda olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, hozirgi vaqtda O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish zarurati mustahkam iqtisodiy va ijtimoiy asosga ega. Mamlakatning yashil iqtisodiyotga o‘tishning asosiy strategiyalarini quyidagi asosiy yo‘nalishlarda amalga oshirish maqsadga muvofiq : qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish sohasida :

- qishloq joylarda fotovoltaik konvertorlarni o‘rnatish 2030-yilgacha olis fermer xo‘jaliklarini to‘liq elektrlashtirishni ta‘minlash;

- energetika sohasida yirik fotoelektr stansiyalarini yaratish;

- qozon issiqlik ta‘minoti tizimlarida quyosh qo‘shimchalarini joriy etish.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, resurslarning cheklanganligi va ekologik muammolarning salbiy oqibatlari sharoitida yashil iqtisodiyotni shakllantirishga obyektiv ehtiyoj paydo bo‘lmoqda. Yashil iqtisodiyotga o‘tish resurslardan samarali foydalanish, ekologik muvozanatni ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish, barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash imkonini beradi.

Barqaror rivojlanishni ta’minlashda yashil iqtisodiyotning o‘rni ko‘plab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy strategiyalari, dastur va rejalariga kiritilgan. Yashil iqtisodiyot - bu ekologik xavflarni kamaytirish va tanqislikni kamaytirish, shu orqali odamlar farovonligi va ijtimoiy darajasini yaxshilashga qaratilgan iqtisodiy tizim. Yashil iqtisodiyot - iqtisodiy tizim bo‘lib, uning asosiy maqsadi sayyoramiz ekologiyasini saqlash va iqtisodiyotning barcha sohalarini rivojlantirish, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiyotni yanada rivojlantirishni amalga oshirishga asoslangan iqtisodiy faoliyatning yangi yo‘nalishidir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Vaxobov A. V., Xajibakiyev Sh. X. : “Yashil iqtisodiyot” darslik
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori <https://lex.uz/docs/-4539502#-4542614>
3. O‘lmasov A., Vaxobov A. V., Iqtisodiyot nazariyasi.
4. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi axborotlari <https://cityeconomy.uz/uz>
5. [www.unep.org](http://www.unep.org) - Birlashgan Millatlar Atrof-muhit dasturining rasmiy sayti
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining Yashil iqtisodiyotga o‘tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarori <https://lex.uz/ru/docs/-6303230>

## YOSHLAR NUTQIDA ISHLATILADIGAN SLENGLAR

**To‘xtasinova Muhayyo Xabibullo qizi**

[muhayyo\\_komilova@mail.ru](mailto:muhayyo_komilova@mail.ru)

Farg‘ona davlat universiteti 2 kurs magistranti

**Aliyeva Navruza Habibullayevna**

(PhD), f.f.f.d.

e-mail: [navrochka89@mail.ru](mailto:navrochka89@mail.ru)

***Annotatsiya.** Bugungi kunda muloqot vositasi hisoblangan nutq, til xususiyatlarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda milliy til xususiyatlarini ilmiy jihatdan tadqiq etishga e’tibor yuqori. Ushbu maqolada o‘zbek tilida kundalik muloqot jarayonida yoshlar tomonidan qo‘llaniladigan slenglar o‘rganilgan. Bunda jamiyatning asosiy qatlami hisoblangan yosh avlod vakillarining sleng so‘zlari keltirib o‘tilgan, shuningdek ularning slenglarini o‘rganishning ahamiyati va zarurati bayon etilgan.*

***Kalit so‘zlar:** til, sleng, jargon, psixolingvistika, nutq, lug‘at, ijtimoiy, jamiyat, muloqot, nutqiy faoliyat.*

### **KIRISH**

Milliy til – tabiat va jamiyat tomonidan insonga berilgan bebaho ne‘mat, unda xalq tarixi, madaniyati, ijodi va insoniy fazilatlari o‘z aksini topadi. Tilning rivojlanishi, iste‘mol hajmining kengayishi, o‘sha tilda gaplashuvchi odamlarga bog‘liq, xususan, adabiy til xalq va jamiyatning o‘zaro muloqot quroli hisoblanadi. Jamiyatimizning sivilazatsion o‘zgarishlari va yangilanishi, tillarning paydo bo‘lishi

va uning iste'mol hajmi kengayayotganligi bilan chambarchas bog'liq. Binobarin, tarixiy jarayonlar, voqea- hodisalarning tilda aks etishi va uning til orqali jamiyatga yetkazilishida bu jarayon yaqqol ko'rinadi.

### **ADABIYOTLAR SHARHI**

Tilning mavjudlik shakllari - uning tarkibiy tuzilishi va inson jamoasida uning faoliyati aniq shakllar sifatida tushuniladi. Ushbu shakllar bir-biri bilan muayyan, ba'zan juda murakkab munosabatlarda, turli xil o'zgaruvchanlik, barqarorlik va kodifikatsiya darajalariga ega bo'ladi. Bunda tilning qo'shimcha tavsiflariga ko'ra, kichik tizim (argo, jargon, sleng)lar, xususan, ijtimoiy dialektlar haqidagi ma'lumotni o'z ichiga oladi.

Sleng suxbatlashuvchilarni birlashtiradi, bir vaqtning o'zida ularni boshqalar bilan taqqoslab, "yashirin til" yoki guruhni identifikatsiyalash vositasiga aylanadi. Shu bilan birga, suxbatdosh shaxsiyatining ma'naviy va ruhiy rivojlanishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladigan, til vositalarida "tillar", "dunyo tasvirini" shakllantiradi. Zamonaviy yoshlar nutqining kelib chiqishi biror bir manba'ga ega bo'lishi mushkul. V.M.Mokienko, T.G.Nikitina kabi filolog olimlarning fikriga ko'ra slengning turli tashuvchilari tomonidan ishlatiladigan bir xil so'zlar va iboralarning kelib chiqishi, shakllari va ma'nolari bir-biriga bog'langan dialekt, lahja, sheva kabilarga bo'linadi. Bunga zamonaviy yoshlar nutqida sezilarli bo'lgan ijtimoiy va professional slenglarni misol qilib keltirsa bo'ladi.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

Til madaniyatning ajralmas jihati hisoblanadi. Milliy fikrlash va xulq atvor xususiyatlari til belgilarida o'z ifodasini topadi. Til ham, o'z navbatida, olamni anglashga ham ta'sir etadi. V.Gumboldt til madniyatning bir qismi deya ta'riflagan. Uning fikricha, til nafaqat insoniy, balki milliy ruh, jumladan, xalq ruhining asosiy faoliyatidir. V.Gumboldtning "xalqning milliy ruhi" tushunchasiga xalqning psixikasi, uning fikrlash tarzi, falsafasi, fani, san'ati va adabiyoti kiradi. Aynan V.Gumboldt lisoniy ong degan tushunchani kiritgan. E.Sepir tilning tafakkurga

ta'siri to'g'risida shunday yozgan: "Odatga ko'ra, odamlar faqat narsalarning ob'yektiv dunyosidagina emas, balki ijtimoiy faoliyat dunyosida ham yashaydilar; ular o'z jamiyatlaridagi muloqot vositasi bo'lgan konkret til ta'siri ostida ko'proq bo'ladilar". «Real olam» mazkur guruhning lisoniy me'yorlari asosida beixtiyoriy ongsiz ravishda yaraladi. Mazkur qoidalar ilmiy tadqiqot uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Yoshlar nu-tqiy faoliyatida, ayniqsa, o'smirlar, o'zlarini "tasdiqlash"ga erishish uchun, umumiy qabul qilingan nutq me'yoridan farq qiladigan so'zlar va iboralarni qo'llaydilar xolos. Shu o'rinda, ilmiy tadqiqot natijalari asosida shakllantirilgan milliy tildagi o'quv jarayonini ifodalovchi sleng so'zlariga e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiq. Bunga ta'lim muassasalarida faoliyat olib boruvchi xodim, mutaxassis, ta'lim oluvchi kabilarni slengda nomlanishi va uni ta'rifi misol qilib keltirildi. Ular quyidagilardan iborat:

*Yevro* – rus guruhlar ma'nosini anglatadi. Ma'lumki ta'lim jarayonida darslar turli tillarda bo'lganligi sababli guruhlar shu tillarga qarab bo'linadi. Masalan ingliz, nemis, koreys, o'zbek guruhlar. Ulardan biri rus guruhlarini hisoblanadi. *Yevro* so'zining ma'nosi (Yevropa qit'asi nomidan) Yevropa Ittifoqi tarkibidagi Yevropa iqtisodiy va pul hamjamiyati a'zolarining 1999 yil 1 yanvardan muomalaga chiqarilgan pul birligi. So'mning yevroga nisbatan kursi, deb ko'rsatilgan O'zbek tilining izohli lug'atida. Masalan: Xujjatlarimni yevroga topshirdim. Yevroda darsingiz bormi?

*Vatan* - aqlli talaba yoki o'quvchi; faollar. Guruhlardagi a'lo va yaxshi o'qiydigan, tartib-intizomli, jamoa ishlariga jonkuyar, faol bo'lgan yigit va qizlar vatan deb tariflanadi. Vatan – tug'ilib o'sgan joy, yurt. Kishi tug'ilib o'sgan va o'zini uning fuqarosi hisoblagan mamlakat, deb ifodalangan O'zbek tilining izohli lug'atida. Masalan: Bu vatan jaxlimni chiqardi. Vatanlar tayyor.

*Otamiz* - fakultet dekani; Bu sleng fakultet talabalariga nisbatan mas'ul shaxs dekan bo'lganligi sababli u otaga qiyoslangan. O'zbek tilining izohli lug'atida ota -

farzandli, bola-chaqali er kishi (o'z bolalariga nisbatan) deb ko'rsatilgan. Masalan: Otamizni ruxsati kerak. Bu gap otamizga yetib bormasin.

*Quloq* - sotqin; chaqimchi; maxfiy ma'lumot tashuvchi. Guruh ichidagi ma'lumotlarni boshqalarga yetkazib beruvchi, tashuvchi shaxslarni quloqlar deyishadi. Quloq – odam hamda umurtqali hayvonlarning eshitish hamda muvozanat a'zosi va uning tashqi qismi, deb ta'rif berilgan O'zbek tilining izohli lug'atida. Masalan: Guruhinglarda quloq bor ekan. Shoshmay tur, quloq yaxshi ishlaydi.

*Qovun* - aqli noraso, epsiz, ishkachi; hayajonlangan; qo'rqqoq odam. Bu sleng turli ma'nolarda ishlatiladi. Jumladan, o'qishda fanlarni sust o'zlashtirgan talaba yoki o'quvchiga nisbatan ham qo'llanadi. Yana o'qishda, ishda, turli faoliyatlarda muammolar chiqarib yuruvchi, yoki biror ishni yaxshi bajara olmasdan bo'shashib yuradigan o'quvchilarni ham qovun deyishadi. Ta'sirchan, kuchli hayajonlanuvchi, o'zini yo'qotib qo'yib, ishni bajara olmaydigan kishilarga nisbatan ham bu sleng qo'llaniladi. O'ziga ishonchi yo'q, qo'rqqoq odamni ham qovun deyishadi. Qovun – hosili yirik va shirin bir yillik poliz o'simligi va uning hosili, deb ko'rsatilgan O'zbek tilining izohli lug'atida. Masalan: Qovunga o'xshaysan. Qovunga ishonib bo'lmaydi.

*Tanka* - yordam beruvchi, ximoya qiluvchi, puldor, ishonchli kishi. Ta'lim jarayonlarida, ayniqsa oliygohlarda o'qishga kirish, imtihon, mustaqil ta'lim, kurs ishlari kabilarni topshirish, turli muammolarni hal qilishda o'quvchi yoki talabani himoya qiluvchi mansabdor yoki puldor odam shu himoyalayuvchi shaxsni tankasi hisoblanadi. Tanka “tank” so'ziga “a” harfi qo'shilishi bilan yasalgan. Tank – zirh bilan qoplangan, gusenitsali harbiy mashina.

## **XULOSA VA MUNOZARA**

Pedagog muloqot jarayonida yoshlarning slenglariga e'tiborini qaratishi mantiqiydir. O'qituvchi, xohlaydimi yoki yo'qmi, bolalar, o'smirlar va yoshlarga nafaqat tashqaridan, balki ichkaridan ham ularning do'sti, yetakchisi, rahbari va eng muhimi ustozidir. Pedagog - inson tushunchalariga asoslangan ijobiy hokimiyat va qadriyatlarni tushuntira oladigan yetakchidir. Shuning sababli, dars mobaynida sleng

ishlatish mutlaqo man etiladi, chunki bu vaqtda faqat istisnolarga, sukut saqlashga va umuman qo‘llanilmaslikka loyiqdir. Lekin pedagogning slenglardan xabardorligi yoshlarda ajoyib taassurot qoldiradi: ular ustozlariga yondoshishadi va ergashadilar. Chunki ustoz ular uchun eng muhim ustuvorliklarni to‘plagan ramziy tizimning yetkazuvchisi bo‘lib xizmat qiladi.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Sayfullaeva R.R., Mengliev B.R., Boqieva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2016.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A.Madvaliev tahriri ostida. Toshkent. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Elektron kutubxona. J xarfi. 74-bet.
3. Vygotskiy L. S. Tafakkur va nutq. - M.: Labirint, 2016 yil.
4. Magmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. Toshkent. 2019 yil.
5. Murashov A.A. O‘qituvchi nutqining madaniyati. Proc. nafaqa. -M.: Moskva psixologik-ijtimoiy instituti; Voronej: MODEK, 2012. - 432.



## JAMIYAT BARQARORLIGI VA IJTIMOIIY ADOLAT QAROR TOPISHIDA SIYOSIY LIDER FENOMENI

**M.Z.Ahmadxojayev**

Namangan davlat universiteti doktoranti

**М.З.Ахмаджожаев**

Докторанти Наманганского государственного университета

[amuhammadkhona@gmail.com](mailto:amuhammadkhona@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada ijtimoiy adolat tushunchasining tadrijiy falsafiy asoslari va bu orqali jamiyat barqarorligga erishish maqsadida siyosiy liderning faoliyat birliklari ochib beriladi ayniqsa Yangi O'zbekiston holatidan kelib chiqib bunda rahbarlik vakolati uning etiketik qarashlari burchga mas'uliyat bilan yondashgan holda jamiyatda inson manfaatlari va uning oliy qadriyatligini dastak qilib olish va jamiyat azolarini kapitalistik jarayonda ijtimoiy bo'hronlardan asrash kabi dogmalar maqsadlari ochib beriladi.*

**Kalit so'zlar:** Rezolutsiya, siyosiy lider, umum etirof etilgan qadriyatlar, Erasmus, xalqaro talim standarti ( International education degree), gender tenglik, ijtimoiy adolat, demokratik modernizatsiya.

## ФЕНОМЕН ПОЛИТИЧЕСКОГО ЛИДЕРА В РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА И УСТАНОВЛЕНИИ СОЦИАЛЬНОЙ СПРАВЕДЛИВОСТИ

### **АННОТАЦИЯ**

*Отчет показывает нам, что многие данные относятся к нашей системе образования. Новую систему образования Узбекистана заменит наш президент. Этот процесс создает новые возможности и ресурсы работодателей. Но с другой стороны, наиболее важным фактом является поведение подростков, система предлагает нам сохранить хорошую точку в гуманитарно-нафосном и уважительном смыслах. В конце отчета новая система образования Узбекистана состоит из правильной, умной, измеримой, достижимой и квалифицированной.*

**Ключовые слова:** *Резолюция, политический лидер, общепризнанные ценности, Эразм, международный стандарт образования ( International education degree), гендерное равенство , социальная справедливость, демократическая модернизация .*

### **THE PHENOMENON OF A POLITICAL LEADER IN THE DEVELOPMENT OF SOCIETY AND THE ESTABLISHMENT OF SOCIAL JUSTICE**

#### **ABSTRACT**

*This article reveals the evolutionary philosophical foundations of the concept of social justice and the units of activity of the political leader in order to achieve stability of society through this especially from the new state of Uzbekistan, in which the authority of leadership is revealed, such as supporting human interests and its higher value in society with a responsible approach to the duty of its*

**Key words:** *Resolution, political leader, universally recognized values, Erasmus, international training standard ( international education degree), gender equality , social justice, democratic modernization .*

Bilamizki dunyoda qaysi davlat bo'lmasin unda albatta ijtimoiy adolat tushunchasi keng miqyosda jarangdor chorlov kabidir. Lekin bu statutga erishish uzoq tadrijiy yo'lni bosib o'tmog'i lozim. Afsuski bu yo'lda ko'plab qiyinchiliklar yuzaga kelishi tayin va bu sotsioevolutsional jarayonda asosiy ikki dastakdan iborat : ma'rifatli xalq va kuchli yetakchi bu ikkisi bamisoli tarozining ikki pallasini kabi muvozanatda ushlashi orqali jamiyatda barqaror rivojlanish qaror topadi.

“Ijtimoiy adolat”ning mafkuraviy kelib chiqishini adolatning tarixiy rivojlanishidan izlash muqarrar ravishda Arastuga borib taqaladi. U birinchi bo'lib adolatning har xil turlarini ajratib ko'rsatgan va aniqlagan bo'lib bu bizning adolat haqida qanday fikr yuritishimizni kontseptual shakllantirishga xizmat qildi. Aristotel birinchi bo'lib umuminsoniy adolat va xususiy adolatni ajratib ko'rsatdi. Birinchisi barcha fazilatlarni qamrab oluvchi yoki boshqaradigan eng oliy fazilat bo'lsa, ikkinchisi adolatning ayrim maxsus sohalarda qo'llanilishini nazarda tutadi. Maxsus adolatning turli turlariga e'tibor qaratadi: taqsimlovchi adolat, tuzatuvchi adolat va o'zaro adolat. Taqsimlovchi adolat deganda davlat lavozimi, sha'ni va boyligini xizmat ko'rsatish nisbatiga ko'ra taqsimlash tushuniladi; tuzatuvchi adolat o'g'irlik, qotillik, talonchilik, tuhmat va boshqalar kabi majburiy ijtimoiy almashinuvni o'z ichiga oladi; o'zaro adolat ixtiyoriy iqtisodiy almashinuvni, masalan, sotishni o'z ichiga oladi. O'rta asr mutafakkirlari oxirgi ikkitasini kommutativ adolat umumiy nomi ostida birlashtirgan. Shubhasiz, “ijtimoiy adolat” tushunchasi Aristotel bo'limida mavjud emas. Xo'sh, “ijtimoiy adolat” tushunchasining kelib chiqishi, nasl-nasabi o'rtasida bog'liqlik bormi? Agar shunday bo'lsa, bu bog'liqlik qanday sodir bo'lgan? Agar yo'q bo'lsa, “ijtimoiy adolat” degan mutlaqo yangi tushuncha qayerdan paydo bo'lgan? Savolarni paydo qiladi, “ijtimoiy adolat” “taqsimlovchi adolat” bilan tenglashtirilgan ma'noda, adolatning tarixiy ildiziga, ayniqsa “taqsimlovchi adolat” tarixiy tafakkur asosida ko'rib chiqilishi mumkin. Shu o'rinda, nega hozirda “ijtimoiy adolat” so'zi ko'p qo'llaniladi, degan savolni vaqtincha chetga

surib, avvalo, bugungi “tarqatish adolati”, ya’ni “ijtimoiy adolat” va “adolat” o’rtasidagi farqni ko‘rib chiqishimiz zaruriyat deb hisoblaymiz.

Huquqiy-falsafiy tafakkur tarixida taqsimlovchi adolat” masalasi bo‘yicha ikki xil yondashuv mavjud.

88/88 [====] - ETA: 0s - loss: 0.291800000000000000:tensorflow:Early stopping conditioned on metric 'val_loss' which is not available.
88/88 [====] - 385.420ms/Step - loss: 0.2918
Epoch 5/50
88/88 [====] - ETA: 0s - loss: 0.289300000000000000:tensorflow:Early stopping conditioned on metric 'val_loss' which is not available.
88/88 [====] - 365.400ms/Step - loss: 0.2893
Epoch 6/50
88/88 [====] - ETA: 0s - loss: 0.289300000000000000:tensorflow:Early stopping conditioned on metric 'val_loss' which is not available.
88/88 [====] - 375.420ms/Step - loss: 0.2893
Epoch 7/50
88/88 [====] - ETA: 0s - loss: 0.288700000000000000:tensorflow:Early stopping conditioned on metric 'val_loss' which is not available.
88/88 [====] - 375.420ms/Step - loss: 0.2887
Epoch 8/50
88/88 [====] - ETA: 0s - loss: 0.288700000000000000:tensorflow:Early stopping conditioned on metric 'val_loss' which is not available.
88/88 [====] - 375.420ms/Step - loss: 0.2887
Epoch 9/50
88/88 [====] - ETA: 0s - loss: 0.289200000000000000:tensorflow:Early stopping conditioned on metric 'val_loss' which is not available.
88/88 [====] - 375.420ms/Step - loss: 0.2892
Epoch 10/50
88/88 [====] - ETA: 0s - loss: 0.285100000000000000:tensorflow:Early stopping conditioned on metric 'val_loss' which is not available.
88/88 [====] - 375.420ms/Step - loss: 0.2851
Epoch 11/50
88/88 [====] - ETA: 0s - loss: 0.284700000000000000:tensorflow:Early stopping conditioned on metric 'val_loss' which is not available.
88/88 [====] - 385.420ms/Step - loss: 0.2847
```




7-rasm. Uchinchi chorraha uchun GRU tirbandlik prognozi va haqiqiy qiymat

```

Predik + GRU_model(x_train(x,y_train(x,y_test(x,y
Epoch 1/50 ..... - ETA: 0s - loss: 0.6980WARNING:tensorflow:Early stopping conditioned on metric `val_loss` which is not available.
26/26 ..... - loss: 0.6980/step - loss: 0.6980
Epoch 2/50 ..... - ETA: 0s - loss: 0.6950WARNING:tensorflow:Early stopping conditioned on metric `val_loss` which is not available.
26/26 ..... - loss: 0.6950/step - loss: 0.6950
Epoch 3/50 ..... - ETA: 0s - loss: 0.6870WARNING:tensorflow:Early stopping conditioned on metric `val_loss` which is not available.
26/26 ..... - loss: 0.6870/step - loss: 0.6870
Epoch 4/50 ..... - ETA: 0s - loss: 0.6820WARNING:tensorflow:Early stopping conditioned on metric `val_loss` which is not available.
26/26 ..... - loss: 0.6820/step - loss: 0.6820
Epoch 5/50 ..... - ETA: 0s - loss: 0.6800WARNING:tensorflow:Early stopping conditioned on metric `val_loss` which is not available.
26/26 ..... - loss: 0.6800/step - loss: 0.6800
Epoch 6/50 ..... - ETA: 0s - loss: 0.6850WARNING:tensorflow:Early stopping conditioned on metric `val_loss` which is not available.
26/26 ..... - loss: 0.6850/step - loss: 0.6850
Epoch 7/50 ..... - ETA: 0s - loss: 0.6880WARNING:tensorflow:Early stopping conditioned on metric `val_loss` which is not available.
26/26 ..... - loss: 0.6880/step - loss: 0.6880
Epoch 8/50 ..... - ETA: 0s - loss: 0.6850WARNING:tensorflow:Early stopping conditioned on metric `val_loss` which is not available.
26/26 ..... - loss: 0.6850/step - loss: 0.6815
Epoch 9/50 ..... - ETA: 0s - loss: 0.6820WARNING:tensorflow:Early stopping conditioned on metric `val_loss` which is not available.
26/26 ..... - loss: 0.6820/step - loss: 0.6820
Epoch 10/50 ..... - ETA: 0s - loss: 0.6780WARNING:tensorflow:Early stopping conditioned on metric `val_loss` which is not available.
26/26 ..... - loss: 0.6780/step - loss: 0.6781
Epoch 11/50 ..... - ETA: 0s - loss: 0.6780WARNING:tensorflow:Early stopping conditioned on metric `val_loss` which is not available.
26/26 ..... - loss: 0.6780/step - loss: 0.6781
Epoch 11/50

```



8-rasm. To‘rtinchi chorraha uchun GRU tirbandlik prognozi va haqiqiy qiymat

## 2-jadval: Ma’lumotlarni o‘qitishdan olingan natija

Chorrahalar	O‘rtacha kvadratik xatosi
1	0.24611639258595508
2	0.6061582552003247
3	0.6061582552003247
4	1.0034960152772239

**Xulosa** sifatida, ushbu maqolada mashinali o‘qitishdan foydalangan holda yo‘l harakati prognozi shaharlardagi tirbandliklarni hal qilish uchun samarali yechimdir. Katta hajmdagi trafik ma’lumotlari mavjudligi bilan Mashinali o‘qitish algoritmlari real vaqtda transport oqimi va tirbandliklarni aniq bashorat qilishi mumkin. Ushbu bashoratlardan transport oqimini optimallashtirish va transport tizimlarining umumiy samaradorligini oshirish uchun foydalanish mumkin. Mashinali o‘qitishdan foydalangan holda yo‘l harakati prognozi bilan bog‘liq ba’zi qiyinchiliklar mavjud bo‘lsada foyda sezilarli bo‘lib, transport tizimlarini yaxshilashga va iqtisodiy yo‘qotishlarni kamaytirishga olib kelishi mumkin.

**ADABIYOTLAR**

1. Vlahogianni, E. I., M. G. Karlaftis, and J. C. Golias. Optimized and Meta-Optimized Neural Networks for Short Term Traffic Flow Prediction: A Genetic Approach. *Transportation Research Part C: Emerging Technologies*, Vol. 13, No. 3, 2005, pp. 211–234.
2. Machine Learning Approach to Short-Term Traffic Congestion Prediction in a Connected Environment AmrElfar<sup>1</sup>, Alireza Talebpour<sup>2</sup>, and Hani S. Mahmassani<sup>1</sup>, National Academy of Sciences: Transportation Research Board 2018.
3. Big data-driven machine learning-enabled traffic flow prediction Fanhui Kong<sup>1</sup> Jian Li<sup>1</sup> Bin Jiang<sup>2</sup> Tianyuan Zhang<sup>3</sup> Houbing Song<sup>3</sup>, 2018.
4. <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC2845248/>
5. <https://jupyter.org/>
6. Bao G, Zeng Z, Shen Y. Region stability analysis and tracking control of memristive recurrent neural network. *Neural Netw.* 2017;5(1):74-89.
7. Jiang, X., and H. Adeli. Dynamic Wavelet Neural Network Model for Traffic Flow Forecasting. *Journal of Transportation Engineering*, Vol. 131, No. 10, 2005, pp. 771– 779
8. Yuhua Jia, Jianping Wu, and Ming Xu, Traffic Flow Prediction with Rainfall Impact Using a Deep Learning Method, *Journal of Advanced Transportation*, 2017.
9. Felix Kunde Alexander Hartenstein Stephan Pieper Petra Sauer, Traffic prediction using a Deep Learning paradigm, CEUR-WS.org, 2017
10. <https://www.kaggle.com/fedesoriano/traffic-prediction-dataset>
11. <https://www.hindawi.com/journals/jat/2021/8878011/>
12. <https://machinelearningmastery.com/how-to-connect-model-input-data-with-predictions-for-machine-learning/>
13. <https://www.shanelynn.ie/pandas-iloc-loc-select-rows-and-columns-dataframe/>
14. [https://matplotlib.org/2.0.2/api/pyplot\\_api.html](https://matplotlib.org/2.0.2/api/pyplot_api.html)



15. Azzouni A, Pujolle G. A long short-term memory recurrent neural network framework for network traffic matrix prediction. *Comput Sci.* 2017;3(6):18-27
16. Ioannis Loumiotis Road Traffic Prediction Using Artificial Neural Networks 2018
17. <https://www.catalyzex.com/s/Traffic%20Prediction>
18. <https://www.geeksforgeeks.org/formatting-dates-in-python/>
19. <https://www.scitepress.org/Papers/2016/58957/pdf/index.html>
20. Kuchkorov, T., Khamzaev, J., Allamuratova, Z., & Ochilov, T. (2021, November). Traffic and road sign recognition using deep convolutional neural network. In 2021 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT) (pp. 1-5). IEEE. DOI: [10.1109/ICISCT52966.2021.9670228](https://doi.org/10.1109/ICISCT52966.2021.9670228)
21. Khamzaev J., Yaxshiboyev R., Ochilov T., Siddiqov B. Driver sleepiness detection using convolution neural network. *Central Asian Journal of Education and Computer Sciences.* VOLUME 1, ISSUE 4, AUGUST 2022(CAJECS), ISSN: 2181-3213
22. Kuchkarov T. A., Hamzayev J. F., Allamuratova Z. J. Tracking the flow of motor vehicles on the roads with YOLOv5 and deepsort algorithms. *Международной научной конференции, Минск, 23 ноября 2022 / Белорусский государственный университет информатики и радиоэлектроники ; редкол.: Л. Ю. Шилин [и др.]. – Минск : БГУИР, 2022. – С. 61–62.* <https://libeldoc.bsuir.by/handle/123456789/49250>



## QOVUNNING XO‘JALIK-BIOLOGIK AHAMIYATI

**Ataxonova Maftuna San’at qizi**

Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti talabasi

### ANNOTATSIYA

*Maqolada respublikamiz hududlarida ko‘p ekiladigan poliz ekinlaridan biri – qovun haqida ma’lumotlar keltirilgan. Qovun issiqsevar, yorug‘sevar o‘simlik bo‘lib, qurg‘oqchilikka va tuproq sho‘rlanishiga chidamli hisoblanadi. Hozirgi kunda O‘zbekistonda tezpishar, o‘rtapishar hamda kechpishar qovun navlaridan 100 ga yaqini ekilib, yetishtirilmoqda.*

**Kalit so‘zlar:** qovun, nav, quritish, qovun qoqi, qand miqdori, ertapishar, o‘sv davri.

### ANNOTATION

*The article contains information about melon, one of the popular crops grown in the regions of our republic. Melon is a heat-loving, light-loving plant, resistant to drought and soil salinity. Currently, about 100 varieties of early, medium and late ripening melons are planted and grown in Uzbekistan.*

**Keywords:** melon, variety, drying, melon rind, sugar content, early, growth period.

### АННОТАЦИЯ

*В статье содержится информация о дыне, одной из популярных культур, выращиваемых в регионах нашей республики. Дыня – теплолюбивое, светлюбивое растение, устойчивое к засухе и засолению почвы. В настоящее время в Узбекистане высаживают и выращивают около 100 сортов бахчевых культур раннего, среднего и позднего сроков созревания.*

**Ключевые слова:** дыня, сорт, сушка, кожура дыни, сахаристость, ранний, вегетационный период.

Qishloq xo‘jaligida o‘tkazilayotgan iqtisodiy islohotlar aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirish va bu sohadagi ta‘minotni tubdan yaxshilab, jahon andozalariga tenglashtirish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Keyingi yillarda qishloq xo‘jaligida islohotlarni tubdan o‘zgartirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va ularni o‘z vaqtida qayta ishlash maqsadida bir qator qonunlar va farmoyishlar qabul qilinmoqda.

Prezidentimiz tomonidan 2022 yil 28 yanvarda tasdiqlangan “2022 -2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmonida: *qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo‘jaligining yillik o‘sishini kamida 5 foizga yetkazish* masalasi ham o‘z ifodasini topib kelmoqda.

Respublikamizda yetishtirilgan umumiy qiymati qariyb 5 milliard dollar bo‘lgan oziq-ovqat, birinchi navbatda meva-sabzavot mahsulotlari eksport qilinmoqda. So‘ngi uch yilda eksport qilinayotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 3 barobardan ziyod oshdi.

2022 yili O‘zbekistonda barcha toifa xo‘jaliklarida 63 ming gektar maydonga qovun ekilgan bo‘lib, shundan 51,5 ming gektar fermer va qishloq xo‘jaligi korxonalari hissasiga to‘g‘ri keldi. Ushbu ekilgan maydonlardan jami 1,3 mln tonna qovun yetishtildi.

Qovun – O‘zbekistonning deyarli hamma viloyat va tumanlarida ekiladi. Ammo shu tumanlar tuproq-iqlim, suv va boshqa sharoitlari jihatdan bir-biridan farq qilishi sababli o‘ziga xos navlarga va yetishtirish usullariga ega. O‘zbekistonda va Markaziy Osiyo davlatlarida asosan O‘rta Osiyo va Kichik Osiyo kenja turiga mansub qovunlar ekiladi. O‘zbekistonda yetishtiriladigan qovun navlari: Ko‘kcha, Handalak, Oqurug‘, Asati, Bo‘rikalla, Ko‘ktinna, Cho‘gari, Qizilurug‘, Obi novvot, Shakarpalak, Zamcha, Rohat, Suyunchi-2, Oltin vodiy, Lazzatli, Sariq handalak, Oltintepa, Kichkintoy, Gurovak, To‘yona, Gurlan, Amudaryo, Gulobi Xorazmiy, Zar gulobi, Saxovat,

Umrboqiy, Beshak, Davlatboy, Toshloqi, Dahbedi, Qo'ybosh, Shirin po'choq, Oqpar, Sariq po'choq va boshqalar.

O'rta Osiyo qovunlari quyidagi xillarga bo'linadi:

Handalaklar – ertapishar (55-70) kun, mevalari mayda yapaloq shaklda. Mevasidan qand miqdori 6-8%, mahalliy iste'mol uchun mo'ljallangan.

Yozgi eti yumshoq qovunlar – o'suv davri 75-90 kun, mevalari o'rtacha yiriklikda, yumshoq yoki ovalsimon shaklda bo'ladi. Qand miqdori 8-12%. Uzoq masofalarga tashishga chidamsiz hisoblanadi.

Yozgi eti qattiq qovunlar – o'suv davri 90-110 kun. Mevalari cho'zinchoq shaklda, qand miqdori 8-18% gacha bo'ladi. 2 oygacha saqlanadi, tashishga chidamli.

Kuzgi qovunlar – o'suv davri 110-120 kun. Mevalari o'rtacha va yirik, tuxumsimon shaklda, qand miqdori 9-11%, saqlanishi yaxshi va uzoq masofalarga tashishga chidamli hisoblanadi.

Qovun maysalashdan 30-60 kun keyin gullay boshlaydi. Meva tugish – meva pishish davri qovunda 20-70 kun davom etadi. O'simliklarning o'suv davri uzunligi, ya'ni maysa paydo bo'lganidan to meva pishgunga qadar bo'lgan davr qovunda 55-120 kun bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi hududi ekinzorlarida 160 dan ortiq qovun navlari uchraydi. Lekin ularning ko'pchiligi kichik maydonlarga ekiladi. Ma'lumotlarga qaraganda, respublikamizda 33 ta nav ekiladi. Shulardan faqat mahalliy Gurbek navi Kichik Osiyo kenja turiga, qolganlari esa O'rta Osiyo kenja turiga mansubdir.

Qovun urug'i tarkibida 31-35% moy moddasi mavjud, shuning uchun undan moy olish mumkin. Qovun moyi tez quriydigan bo'lib, oliy nav bo'yoqlar tayyorlanadi. Mamlakatimizda har yili 10-13 ming tonna qovun urug'i qayta ishlanadi. Urug'chilik ishlarining chiqindilaridan meva sharbatlari, qoqi, spirt va boshqa mahsulotlar olish uchun foydalaniladi. Qovun po'chog'i esa chorva mollari uchun oziq hisoblanadi.

Qovun qurg'ochilikka chidamliligi, tuproqdan namni o'zlashtirishi yaxshi ekanligi hamda tuproqda namlik kam bo'lgan paytlarda tanasidagi suvni bug'latishni kamaytira olishi bilan izohlanadi. Ildizi – o'q ildiz, palagi ingichka bo'lib o'sadi. Juda ko'plab yon shoxlar chiqaradi. Barglari uzun bandli, palagida ketma-ket joylashgan. Gultoji sariq odatda 5 tojibargli, urug'chilari 5 ta, changdonlari 2 ta, bir uyli ayrim jinsli bo'ladi. Qovun mevasining shakli turlicha bo'ladi (yumaloq, ovalsimon, cho'zinchoq). Po'sti qalin 1,5-2,0 sm, qattiq, eti juda yumshoq, sersuv, sershira, qumoq, ba'zilarники talash, ranggi oq, qizil, sarg'ish, yashilroq. Urug'i oq, sariq va och sariq ranglarda bo'ladi. Ming dona urug'i vazni naviga qarab 30-45 gr keladi.

Qovun tarkibida glyukoza, fruktoza va saxaroza moddalari hamda ko'p miqdorda, klechatka va gemitsellyullozalar, shuningdek pektinlar, hujayralarni o'zaro bir-biri bilan mustahkamlaydigan moddalar mavjud.

Qovun o'simligi tarkibida o'rtacha quruq modda 11-20%, shakar 5-18%, 0,6% oqsil, 0,8% biriktiruvchi to'qima, 0,2% yog', 0,6% kul mavjud. Qovun S (30-40 mg/%), karotin (1,5-2 mg/%), RR (1-2%), darmondorilar, kaliy, kalsiy, fosfor, oltingugurt, temir, kobalt, tuzlar va boshqa moddalarga boy.

Qovun navlari	Qand miqdori, %	Quruq modda miqdori, %
Tezpishar	6,0 – 8,0	7,0 – 12,0
O'rtapishar	8,3 – 11,8	10,1 – 14,2
Kechpishar	9,5 – 11,5	4,4 – 13,5

Quritishga mo'ljallangan qovun navlar: Ko'kkalapush, Bo'rikalla, Kalliyoz, Bosvoldi, Toshloqi, Gurovak, Ko'kcha, Ichiqizil.

Mamlakatimizda qovun mevalari etini tilim-tilim qilib oftobda quritilib qovun qoqisi tayyorlanadi. Qovun qoqisi qish faslida iste'mol qilinishidan tashqari kompotlar, turli qandolat mahsulotlari tayyorlash uchun ham ishlatiladi. Qovun qoqisida 30% ga yaqin qand bo'ladi. Bo'rikalla va Ko'kkalapush navlaridagi qovun

qoqisida 37 mg% dan tortib 50 mg% gacha vitamin C va 0,05-0,12 mg% vitamin B2 bo'ladi. Qovun qoqisi yaxshi saqlanadi.

Gulobi Xorazmiy – navi yirik o'lchamli, palagi uzun. Bargi yuraksimon shaklda, o'rta hajmli. Guli germafrodit, erkak jinsli. Mevasi silindrsimon shaklda, yirik hajmli. Meva vazni 4,0-7,0 kg. Meva yuzasi asosan ajinli, rangi och yashil tusli va sariq-yashil, turli tusda boladi. To'ri qisman o'rta katakli. Po'chog'i qattiq bo'ladi.

Meva etiga keladigan bo'lsak, o'rta qalin, oq tusli, tolali, shirali, shirin bo'ladi. Quruq modda miqdori 12,5%, umumiy qand moddasi miqdori 10,4%. Urug'xonasi o'rta hajmga ega. Urug'donlari quruq, yarim yopiq, urug'xonaning yarmidan ko'p qismini egallagan. Urug'i o'rta hajmli, keng, uchli tuxumsimon shaklda, sariq tusli. Kechpishar nav hisoblanadi.

Maysalar paydo bo'lishidan yetilguniga qadar o'suv davri 120-125 kun. Un shudring va fuzarioz so'lish kabi kasalliklarga chidamli hisoblanadi. Hosildorligi 35-40 t/ga. Tashishga chidamliligi va saqlanuvchanligi yaxshi. O'z SPEKITI seleksiyasi navi. R.A.Xakimov va S.Gulimov tomonidan yaratilgan nav bo'lib asosan Buxoro va Xorazm viloyatlarida tumanlashtirilgan.

Qizil gulobi – navi o'rta o'lchamli, palagi uzun bo'ladi. Bargi yumaloq yuraksimon shaklda, o'rta hajmli. Guli germafrodit erkak jinsli. Mevasi kalta tuxumsimon shaklda, o'rta hajmli bo'ladi. Meva vazni esa 4,0-5,0 kg. Meva yuzasi silliq yoki mevaband qismi biroz tilim-tilim, rangi sariq-qizg'ish rangda bo'ladi. To'ri qisman, yirik katakli, meaning yarimiga qadar kam bog'langan. Po'chog'i qattiq. Meva eti qalin, oq tusli, yetilmaydigan, tig'iz, saqlash davomida shirin, nok ta'mli. Quruq modda miqdori 8,9-10,3%, umumiy qand moddasi miqdori 7,9-8,3% ni tashkil qiladi. Urug'xonasi kichik. Urug'donlari quruq, ochiq. Urug'i yirik hajmli, nashtarsimon shaklda, sariq tusli. Kechpishar nav hisoblanadi. Maysalar paydo bo'lganidan yetilishigacha o'suv davri 100-115 kunni tashkil qiladi. Fuzarioz so'lish kasalligiga o'rta darajada chalinadi. Hosildorligi 25-28 t/ga. Tashishga chidamliligi yaxshi. Asosan qishda saqlashga yaroqli hisoblanadi. O'z O'ITI seleksiyasi navi.

Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarida tumanlashtirilgan. Asosan Xorazm, Buxoro, Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida tarqalgan.

Oq qovun – navi oʻrta oʻlchamli, palagi uzun. Bargi yuraksimon shaklda, oʻrta hajmli. Guli germafrodit, erkak jinsli. Mevasi choʻziq tuxumsimon shaklda, yirik hajmli. Meva vazniga keladigan 4,0-10,0 kg. Meva yuzasi biroz notekis, rangi och yashil. Toʻri toʻla, meva yuzasini yoppasiga qoplagan, yirik katakli, yupqa. Asosan poʻchogʻi qattiq boʻladi. Meva eti esa oʻrta qalinlikda, oq tusli, qarsillaydigan, shirali, shirin, xushboʻy. Quruq modda miqdori 11,5%, umumiy qand moddasi miqdori 7,0-11,0%. Urugʻxonasi esa oʻrta hajmli boʻladi. Urugʻdonlari urugʻxonaning yarmidan koʻp qismini egallagan. Urugʻi yirik hajmli, keng uchli tuxumsimon shaklda, sariq tusli. Oʻrtapishar nav hisoblanadi. Fuzarioz kabi soʻlish kasalligiga chalinuvchan. Hosildorligi 25-30 t/ga teng. Tashishga chidamliligi yaxshi, saqlanuvchanligi esa oʻrtacha hisoblanadi. Quritishga yaroqli. Oʻz SPEKITI seleksiyasi navi. P.N.Dudko tomonidan yaratilgan nav hisoblanadi. Asosan bu nav Toshkent, Fargʻona va Andijon viloyatlarida tarqalgan.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, maʼlumki meva va sabzavotlarni saqlash va qayta ishlash iqtisodiy jihatdan samarali soha boʻlib kelmoqda. Chunki meva va sabzavotlar yilning muayyan mavsumidagina yetishtiriladi. Xalqni mazkur mahsulotlarga boʻlgan talabini mavsumdan tashqari muddatlarda ham toʻlaqonli qondirib turishda esa saqlash va birlamchi ishlov berish hamda omborlarning ahamiyati katta hisoblanadi. Xususan qovun oʻsimligini misol qilib oladigan boʻlsak, qovunning yetilgan mevalaridan turli xil qayta ishlangan mahsulotlar tayyorlashimiz mumkin. Masalan qovun murabbosini, djemi, povidlosini, marmeladini, shinnisini va qovun qoqi hamda boshqalarni tayyorlash mumkin. Qovunlar saqlashga yaxshi javob bermaganligi uchun dalani oʻzidan qayta ishlashni yoʻlga qoʻyish yaxshi natija berishi mumkin. Eng yaxshi usul qovunni qayta ishlab qoraqand olish hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. O‘zbekiston respublikasida meva sabzavotchilikni jadal rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora tadbirlari to‘g‘risidagi 2018 yil 29-mart PF-538 sonli farmoni.
2. Bo‘riyev H. CH., To‘rayev R., Alimov O. Meva sabzavotlarni saqlash va ularga dastlabki ishlov berish. Toshkent. Mehnat.2002-yil.
3. Rasulov A. Sabzavot va poliz mahsulotlarni saqlash – T.: O‘zbekiston 1980 yil.
4. [www.agrobizness.ru](http://www.agrobizness.ru)
5. [www.true.uz](http://www.true.uz)



## METALLURGIYA SANOATIDA SUYUQ CHIQINDILARIDAN QIMMATLI KOMPONENTLARNI OLIISH IMKONIYATLARI

**Meyliyev To‘lqin Meyli o‘g‘li**

Termiz muhandislik-texnologiya instituti talabasi

E-mail: [tolqinmeyliyev729@gmail.com](mailto:tolqinmeyliyev729@gmail.com)

**Absalomov Samandarbek Alisher o‘g‘li**

Termiz muhandislik-texnologiya instituti talabasi

E-mail: [samandarbek2001@gmail.com](mailto:samandarbek2001@gmail.com)

***Annotatsiya:** Zaminimizning mineral resurslarga boyligiga qaramasdan, ishlab chiqarishga kon-metallurgiya sanoati korxonalarining chiqindilarini jalb qilinishi davlat iqtisodiyotining yanada samarali rivojlanishini ta'minlaydi. Kon-metallurgiya sanoati korxonalari ayrim chiqindilarining tarkibidagi qimmatli komponentlarning miqdori birlamchi xom ashyo tarkibidagi qimmatli komponentlarning miqdoridan yuqoriligi bilan ajralib turadi. Kon-metallurgiya sanoati korxonalarining chiqindilarini qayta ishlashga jalb qilinishi chiqindilar turgan yerlarni bo'shatish, va chiqindi mahsulotlarini qayta ishlash chora tadbirlari o'rganildi.*

***Kalit so'zlar:** Kon-metallurgiya sanoati chiqindilarini qayta ishlash, turli ishlab chiqarish chiqindilari va rangli metall rudalarining tarkibi, kimyoviy birikma, sementatsiya, eritmani elektrolizlash, avtoklavda cho'ktirish, suyuqlikni haydash va rektifikasiyalash.*

Rangdor asl va nodir metallarni qazib olish, boyitish va eritishni o'z ichiga oladigan rangdor metallurgiya uning keng tarmoqlari O'zbekistonning dunyoviy ahamiyatga ega bo'lgan iqtisodiy sohalaridan biri hisoblanadi. Respublikamiz xududida zahira buyicha ancha istiqbolli, qazib olishning texnik iqtisodiy ko'rsatkichlari qulay bo'lgan qator miss, polimetall, folfram, molebden konlari,



alyuminiy va magniy xom ashyolari boshqa rangdor hamda nodir metallar topilgan. O‘zbekistonning rangdor metallurgiyasi ancha yosh ishlab chiqarish tarmoqlaridandir. Shunga qaramay uning hissasi O‘rta Osiyo Respublikalarida ishlab chiqarilgan rangdor metallarning 2.3 qismidan ko‘pi to‘g‘ri keladi. Konlarni ishga solish jarayonida Respublikamizda 1935 yillarda volfram, molebden, 1941 yilda flyuorit, 1952 yilda qo‘rg‘oshin, rux, 1956 yilda esa mis qazib chiqarish va boyitish va hamda ularni konsentratlarini tayyorlash sanoati vujudga keldi. Dastlabki



davrlarda O‘zbekistonning rangdor metallurgiyasi rudalarni qazib chiqarish, boyitish, hamda tayyorlangan konsentratlarni boshqa Respublikalarga tayyor mahsulot olish uchun jo‘natish bilan shug‘ullangan bo‘lsa, endilikda u mazkur sanoat hamma ishlab chiqarish bosqichlarini o‘z ichiga oluvchi to‘la siklli sanoat tarmog‘iga

aylandi. Bu sanoatning korxonalari Olmaliq, Mirintov (Zarafshon), Navoiy tog‘ metallurgiya kombinatlari, O‘zbekiston qiyin eriydigan va issiqqa bardoshli qotishmalar kombinati (Chirchiq) Ingichka hamda Qo‘ytosh, kon boshqarmalari, “O‘zbekiston oltini” kombinati va boshqalardir. Olmaliq tog‘ metallurgiya kombinati rangdor metallurgiyaning yirik korxonalaridan biridir. Bu kombinat mis, polimetal rudalarni qazib olish, boyitish, mis va rux eritish korxonalarini birlashtiradi. Mis sanoatining istiqboli ishlab turgan Qalmoqqir, Sarichekuv konlarida hamda shu nihoyadagi Dalneye, Baliqti kabi konlarini ishga solish bilan cheklanmaydi. Respublikaning bir qator boshqa nohiyalarida ham istiqboli mis konlari topilgan. Ulardan muhimlari Janubiy O‘zbekistondagi Xandiza Charchar, Buxoro viloyatidagi Qizilqum, Farg‘ona vodiysi va boshqa joylardagi mis konlaridir. Bu 16 dan ortiq mis konini ishga solish, mis sanoatini xom ashyo bazasini kengaytiradi, yangi boyitish fabrikalari qurish, Olmaliq tog‘ metallurgiya kombinatidagi mis zavodini quvvatini oshirish imkonini beradi. Qalmoqqir mis konlari negizida tugal metallurgiya sikliga

ega bo‘lgan Olmaliq kon-metallurgiya kombinatidir. Kombinatning mis majmuasiga Qalmoqqir mis koni (1954) ruda boyitish fabrikaga (1957) metallurgiya zavodi (1962) dan qurg‘oshin-rux kompleksi Qurg‘oshinkon (1950), Oltintopgan (1955), Chlata (1971), Ruda boyitish fabrikasi (1954) metallurgiya zavodi (1990) dan iborat. O‘zbekistonda mis, qo‘rg‘oshin va rux sanoatining bir yerda joylashganligi muhim qulayliklar tug‘diradi. Tabiiy mineral resurslarning boyligiga qaramay, qimmatbaho tarkibiy qismlarning tarkibidan qazib olinadigan birlamchi xom ashyoga qaraganda ancha yuqori bo‘lgan tog‘-metallurgiya sanoatining chiqindilarini qayta ishlashga jalb qilinishini hisobga olmasdan, mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishini



samarali bashorat qilish mumkin emas. So‘nggi 20-30 yil ichida rudalardagi rangli metallarning miqdori 1,3-1,5 baravar kamaydi. Qayta ishlashga kiradigan xom ashyoning umumiy massasida boy bo‘lishi qiyin bo‘lgan rudalarning ulushi keskin oshdi. Ba‘zi hisob-kitoblarga ko‘ra, so‘nggi 30 yil ichida bu ulush 15 dan 45% gacha oshdi, natijada qayta ishlash siklida metall yo‘qotishlari ko‘paymoqda. Ilmiy-texnik taraqqiyot va xalq xo‘jaligining rivojlanishi rangli metallar ishlab chiqarishni doimiy ravishda kengaytirishni talab qiladi. Shu bilan birga, oson boyitiladigan rudalar zaxiralari tezda kamayib bormoqda va mineral tarkibi bo‘yicha kambag‘al va

murakkab rangli metall rudalari va turli xil ishlab chiqarish chiqindilari (keklar, klinkerlar, eritmalar) va mineral tarkibi bo'yicha murakkab rangli metall rudalari tobora keng miqyosda qayta ishlashga jalb qilinmoqda. Yer osti boyliklarining kamayishi va elementlarni konsentratsiyalash va ajratishning yanada samarali usullarining paydo bo'lishi tufayli qayta ishlangan xom ashyoni ishlab chiqarish chiqindilarini qayta ishlash mumkin bo'ladi. Bunday mahsulotlarni yuvish usuli bilan qayta ishlashda mis, molibden, rux, reniy va boshqa metallarni o'z ichiga olgan eritmalar olinadi. Eritmalardan metallarni olish uchun turli xil usullar qo'llaniladi: olinadigan metallni erimaydigan kimyoviy birikma shaklida cho'ktirish; sementlash; eritmalarning elektrolizi; avtoklav cho'kmasi; distirlash va rektifikatsiya – eritmalarni qaynash haroratiga qarab tarkibiy qismlarga ajratish; sorbentlar va ekstraktorlar va ion flotatsiyasi bilan eritmalardan elementlar va birikmalarni ajratib olish. Ion flotatsiyasi metallurgiya ishlab chiqarishining suyuq chiqindilaridan qimmatbaho komponentlarni olish uchun eng istiqbolli hisoblanadi. Zaif suvli eritmalardan turli xil moddalarning ionlarini flotatsiya orqali olish ion flotatsiyasi deb ataladi.

Jarayon quyidagi afzalliklarga qarab tanlanadi:

- yuqori ishlashga ega ( flotatsiya vaqti bir necha daqiqa);
- eritmadagi metallning past konsentratsiyasida samarali (bir litrda milligramm fraksiyasidan yuzlab milligrammgacha);
- reaktiv tomonidan to'g'ri tanlangan rejimda organik reaktivning yo'qolishi litrda bir necha milligrammdan oshmaydi;
- investitsiyalarning pastligi bilan ajralib turadi;

### **XULOSA**

Qattiq chiqindilarni gidrometallurgik qayta ishlashda. Eritmadan mis, molibden, temir va ruxni ajratib olish pH qiymatlarining ma'lum bir oralig'ida sodir bo'lishi aniqlandi. Metallning 98,6-99,5% mahsulotga (konsentratga) chiqariladi va uning mahsulot tarkibidagi tarkibi 69,8-72% ni tashkil qiladi. 0,02-0,25 g/l metallni o'z ichiga olgan chiqindi eritma qattiq mahsulotni yuvish uchun yuboriladi. Shuni

ta'kidlash kerakki, mexanik tipdagi an'anaviy flotatsiya mashinalari ionlarni flotatsiya qilish uchun yaroqsiz. Suyuqlikni intensiv aralashtirish va mineral flotatsiyada qo'pol zarrachalarni to'xtatib turish uchun zarur bo'lgan energiya xarajatlari bu holda mutlaqo ortiqcha. Bundan tashqari, qabariq fraksiyasida intensiv aralashtirish eritmaning bir hil bo'lishiga yordam beradi, ko'pikli flotatsiyada ko'pik zarralari eritma hajmiga tushishiga va flotoekstraksiyada organik fazaning emulsifikatsiyasiga olib kelishi mumkin. Mexanik tipdagi an'anaviy flotatsiya mashinalari ko'pikni ajratish uchun mos emas, chunki ularning kameralari nisbatan barqaror ko'piklarni drenajlash va deflegmatsiya qilish uchun sharoit yaratmaydi. Shuni ta'kidlash kerakki, hozirgi vaqtda reagent rejimini eritishda ion flotatsiyasi bir necha daqiqada quyidagilarga imkon beradi. Bir litrda bir necha milligramm darajasida sirt faol moddalar yo'qotilishi, eritmada mavjud bo'lgan metallning 90-99% ni litrda o'nlab – yuzlab milligrammning dastlabki konsentratsiyasi bilan ajratib oling va 10-20% namlik bilan ko'pikli mahsulotni oling. Shu bilan birga, ion flotatsiyasini sanoat rivojlanishi va u bilan bog'liq jarayonni batafsil o'rganish endigina boshlanmoqda, shuning uchun uning samaradorligini oshirish uchun sezilarli zaxiralar mavjud.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Otrabotka polimetallicheskogo mestorojdeniya Xandiza Kniga 1. Poyasnitelnaya zapiska. V.A. Potylitsyn; M.A. Shadrin; A.V. Sredanovich; g. Moskva, 2010 g.
2. Буrowзгывные работы, Kurs leksiý , YU.D. Norov, Navoiy 2006 3. Foydali qazilmalarni er osti usulda qazib olish asoslari, Norov YU.D., SHemetov P.A. NAVOIY-2012.
4. Burg'ulash va portlatish ishlari; V.R. Rahimov, N.U. Ubaydullaev. TOSHKENT «TURON- IQBOL» 2016
6. Gorno-metallurgicheskiy kompleks: dostijeniya, problemy i prespektivy innovatsionnogo razvitiya; Navoi 15-16 noyabrya 2016 g.
7. <http://mggu.ru> – Moskva davlat konchilik instituti.



## NEFT UYUMLARINI ISHLATISH BOSQICHLARI

**Hayitov G'iyos Xudaynazar o'g'li**

Termiz muhandislik-texnologiya instituti talabasi

E-mail: [hayitovgiyos105@gmail.com](mailto:hayitovgiyos105@gmail.com)

**Qurbonmurodov Xumoyun Shavkat o'g'li**

Termiz muhandislik-texnologiya instituti talabasi

E-mail: [humayqurbonmurodov@gmail.com](mailto:humayqurbonmurodov@gmail.com)

**Mamadiyev Muxammadali O'rol o'g'li**

Termiz muhandislik-texnologiya instituti talabasi

E-mail: [ac1444786@gmail.com](mailto:ac1444786@gmail.com)

*Annotatsiya:* ushbu maqolada Respublika hududidagi konlardan qazib chiqarilayotgan neft va gaz uyumlarini ishlatish bosqichlari hamda uyumni o'zlashtirishning foydaliligini baholash geologik-iqtisodiy hisobkitoblarga, neft va gaz qazib chiqarishning mumkin bo'lgan texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari va rivojlanish bosqichlari o'rganildi.

*Kalit so'zlar:* Neft va gaz uyumlari, rezervuarlar, kollektorlar, erozion qoldiqlar, Neft va gazning migrasiyasi, regional va lokal, kondensat, komponentlar, uyum massiv, pezominimum.

Neft va gaz sanoati xalq xo'jaligining muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, uning rivojlanishi davlatimizning iqtisodiy salohiyatini belgilaydigan sohalardan biridir. Keyingi yillarda O'zbekistonning neft va gaz sanoati juda tez suratlar bilan rivojlanib bormoqda, neft va gaz qazib chiqarish miqdori ancha o'sdi. O'zbekiston neft mustaqilligiga erishdi. Respublika hududidagi konlardan qazib chiqarilayotgan tabiiy gaz barcha turdagi ishlab chiqarish korxonalarini va aholining gazga bo'lgan talablarini qondirish bilan bir qatorda xorijiy davlatlarga ham eksport qilinmoqda. Neft va gaz

uyumlari deganda turli tipdagi tutqichlarda neft va gazlarning ma'lum bir chegaralarda (joylarda) to'planishi tushuniladi. Uyumning o'lchami va shakli tutqichning genetik tipiga, saqlagichlarning (rezervuarlarning) va undagi jinslarning parametrlariga bog'liq bo'ladi. Kesimda biri ikkinchisi ustida joylashgan, bir yoki bir necha neft va gaz uyumlaridan tarkib topgan yer po'stining ayrim uchastkalari kon deb ataladi. Uyumlar soniga ko'ra bir uyumli va ko'p uyumli konlar ajratiladi. Uyumning sanoat miqyosidagi ahamiyatligi neft va gaz zahiralari ko'rsatkichlariga qarab belgilanadi, bu ko'rsatkich uyumning sanoat miqyosida o'zlashtirishning iqtisodiy jihatdan foydaliligini ta'minlaydi. Neft va gaz zaxiralari tasnifiga va uyumlarni o'zlashtirishning foydaliligiga ko'ra zaxiralar balans zaxiralarga va balansdan tashqari zaxiralarga bo'linadi. Uyumni o'zlashtirishning foydaliligini baholash geologik-iqtisodiy hisobkitoblarga, neft va gaz qazib chiqarishning mumkin bo'lgan texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlariga, ularni tayyorlashga, jihozlashga, transport vositasida tashishga, mahsulotni sotishga bo'ladigan moliyaviy xarajatlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Neftning balans zaxiralarida unda erigan gaz va oltingugurt, erkin gazdagi kondensat va boshqa yo'lakay komponentlar miqdori ko'rsatiladi, zamonaviy texnika va texnologiyadan to'liq va samarali foydalanib qazib olinadigan zaxiralar ko'lami baholanadi. Uyumlar geologik tuzilishining murakkabligiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi: - birinchisiga tuzilishi oddiy bo'lgan uyumlar kiradi, ularning mahsuldor qatlamlari qalinligi va kollektorli xususiyatlari izchilligi (o'zgarmasligi) bilan ajralib turadi. - ikkinchisiga tuzilishi murakkab bo'lgan uyumlar mansub bo'lib, ulardagi mahsuldor gorizontlar ko'p qatlamliligi, qalinligi va kollektorlik xususiyatlarining kesim bo'yicha, gorizont va ko'ndalang yo'nalishlarda o'zgaruvchanligi bilan tavsiflanadi. Neft va gaz uyumlari kollektorlarning tuzilishiga ko'ra uchta asosiy tipga ajratiladi: 1) qatlam uyumlari, ular ikki xil ko'rinishda uchraydi: a) qatlamli gumbazli; b) qatlamli litologik, stratigrafik va tektonik to'silgan; 2) massiv uyumlar; 3) litologik-chegaralangan uyumlar, ular biogerm, bar (qumuyum)lar, fatsial o'rin almashinuvchi zonalar,

notekis zichlashgan, sementlashgan va dolomatlashgan, karst hodisalar rivojlangan, erozion qoldiqlar va boshqalar tarqalgan joylarda uchraydi. Neft va gaz uyumi bitta izolyasiyalangan tabiiy saqlagichda bo'lishi mumkin. Bunday holatda u qatlamli, massiv yoki litologik chegaralangan tipga mansub bo'ladi. Uyum gidrodinamik bog'liq (aloqador) tabiiy saqlagichlar guruhlarini birlashtirishi mumkin. Ularda gaz-suyuqlik va suv-neft tutash yuza (kontakt)larining absolyut balandligi mos holda bir xil bo'ladi. Bunday uyum massiv yoki massivqatlamli uyum sifatida ajratiladi. Neft va gaz qazib chiqarishning o'sishi yangi neft va gaz uyumlari va konlarini ochish va konlarni ishlatish samaradorligini oshirish hamda zahiralardan foydalanish darajasini ko'paytirishning yangi usullarini qo'llash kabilar evaziga erishilmoqda. Bunday murakkab masalalarni yechishda neft va gaz geologiyasi va qidiriv ishlari muhim o'rin tutmoqda. Neft va gaz uyumlarini geologik tadqiq qilish usullari so'nggi yillarda jadal mukammallashdi. Neft va tabiiy gazlarning Yer po'stida turli o'lchamdaga to'plamlari qanday hosil bo'lganligi o'rganish nazariy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega. Neft va yonuvchi gazlar yer qa'rida joylashgan. Neft va yonuvchi gazlarning u yerda to'planishi ularni o'z ichiga olgan tog' jinslariga, shuningdek qatlamlarning tuzilishiga va boshqa shu kabi xususiyatlariga to'g'ridan to'g'ri bog'liq. Yer qa'rida turli minerallar birikmasidan iborat turli xildagi tog' jinslari mavjud. Minerallar - tarkibi va tuzilishi bo'yicha bir jinsli bo'lgan kimyoviy birikmalar. Tabiatda 3 mingga yaqin minerallar turi borligi aniqlangan. Butun dunyodagi cho'kindi jinslarda 99,9% dan ortiq neft va tabiiy gazning konlari mavjud. Uyum - tog' jinslarida neft yoki gazning yagona to'plangan joyidir. Uyumlarning yagona geologik tuzilishga keltirilgan to'plami kon deyiladi. Uyum yoki kon hosil bo'lishi uchun ma'lum shart sharoitlar (kollektorlar, qopqoq, tutqich, migrasiya) bo'lishi zarur. Qum, qumtosh va shunga o'xshash cho'kindi jinslar eng yaxshi kollektorlik xususiyatlariga ega. Ular donador kollektorlar deyiladi. Ularning kollektorlik xossalari g'ovaklik va o'tkazuvchanlilikdadir. G'ovaklik - jinsdagi hamma bo'shliqlar (kovakchalar) hajmining yig'indisi. Qumtosh va qumlarning

g'ovaklik koeffitsiyenti 20 - 25% ni tashkil etadi, kimyoviy ohaktoshlarda bu qiymat 3 - 5% ga teng. Magmatik va metamorfik jinslarda esa kovakchalar deyarli yo'k. Agar neft g'ovakliklarni butunlay to'ldirsa, g'ovaklik koeffitsiyenti 20% bo'lgan 1 m<sup>3</sup> jinsda 0,2 m<sup>3</sup> neft, g'ovaklik koeffitsiyenti 40% bo'lgan 1 m<sup>3</sup> jinsda esa 0,4 m<sup>3</sup> neft bo'ladi va h.k.

O'tkazuvchanlik - jismlarning o'zidan suyuqlik va gazlarning o'tkazish xususiyatidir. G'ovak muhitdagi suyuqlikning harakati gidrodinamikaning asosiy qonuni - Darsi qonuniga bo'ysunadi. O'tkazuvchan tog' jinslari rezervuar vazifasini bajaradi, unda neft va gaz to'planadi hamda harakat qiladi. Biroq, agar cho'kindi jinslarning hamma qatlamlari kollektorlardan iborat bo'lsa, neft va gaz uyumda yig'ila olmas edi. Ular suvli muhitda, yuqoriga sizib, yer sirtiga chiqib bug'lanib ketar edi. Uyumlarning hosil bo'lishi uchun cho'kindi qatlamlarda neft va gazni o'tkazmaydigan jinslar -o'ziga xos to'siqlar bo'lishi zaruriy shartdir, bu to'siqlar flyuidlarning Yer sirtiga vertikal harakatlarini ushlab qolish xususiyatiga ega. Bunday o'tkazmaydigan jinslar qopqoq deb ataladi. Odatda qopqoq bo'lib gillar, tosh tuzi, gipslar ba'zan darzsiz ohaktoshlar va mergellar xizmat qiladi. Neft va gazning yig'ilishi uchun kollektorlar va qopqoklarning tez-tez o'rin almashib turishi ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Cho'kindi qatlamning bunday modeli "qatli pirog" deb ataladi. Faraz qilaylik, bizda neft yoki gaz flyuidlari harakatlanayotgan o'tkazuvchan qatlam, bu flyuidlarni ushlab turadigan gilli yaxshi qopqoq bor bo'lsin. Uyum hosil bo'lishi uchun bular yetarli emas. Maxsus shaklli qatlam -qopqoq bo'lishi shart, unga neft va gaz kirgandan so'ng, berk to'siqqa tushib qolgandek bo'ladi. Mana shundagina bu mahsulotlar yig'ilib, uyumlar hosil bo'ladi. Odatda qopqsqalar tuzilmali va tuzilmasiz bo'ladi. Tuzilmali qopqoqlarga antiklinal tuzilmali tektonik to'siq, tuzilmasiz qopqoqga stratigrafik nomuvofiqlik, ko'milgan riflarga litologik qiyiklanish misol bo'ladi. Antiklinal - qavariqligi bilan yuqoriga yo'nalgan egik qatlamdir. Antiklinalga teskari shakl sinklinal deyiladi. Tuz qubballi tuzilmalar ham antiklinal burmalarga kiradi. Ularning hosil bo'lishi tosh tuzining undan yuqorida yotgan tog' jinslarining



bosimi ostidagi plastik oqishi bilan bog'liq. Tuz yuqoriga ko'tariladi va o'z yo'lida joylashgan yuqoridagi qatlamlarni antiklinal egib qubba hosil qiladi. Antiklinal tuzilmaning o'lchamlari turlicha bo'lishi mumkin: uzunligi o'rtacha 5-10 km, kengligi 2-3 km, balandligi (amplitudasi) 50-70 m, bo'lgan yirik antiklinallar ham ma'lum. Masalan, dunyodagi eng katta neft koni Gavarning (Saudiya Arabistoni) o'lchamlari 225x25 km•km, balandligi 370 m ni tashkil etadi. Eng yirik gaz koni Urenguy o'lchamlari 120x30 km•km, balandligi esa 200 m ga teng. Tuzilmali turdagi qopqoqqa tektonik to'siqlar ham kiradi. Ular qatlamlarning tashlama yoki ko'tarilma uzilishlarida va kollektorlarning o'tkazmaydigan jinslarga birikkanda hosil bo'ladi. Odatda tektonik ekranlar bilan neft uyumlari (56%) va gaz neftli uyumlarni (41%) bog'liq. Gaz uyumlari ulushi ko'p emas (3%). Stratigrafik nomuvofiqlik cho'kindi yotqiziqlarining qatlamlanish ketma-ketligi buzilganda kelib chiqadi. Bunday qatlamlar turli egilish burchaklarini tashkil qiladi. Ba'zi hollarda o'tkazuvchan qatlam qopqoqqa taqalib qoladi, natijada zaruriy qopqon hosil bo'ladi. Odatda bunday qopqonlar katta ko'tarilmalarning yonbag'irlarida yoki botiqliklarning chekka qismlarida hosil bo'ladi. Bunday nomuvofiqliklar bilan bog'liq bo'lgan zahirasi ancha ko'p neft konlari ma'lum. Bunga Ist-Texas (AQSH) koni misol bo'ladi. Bu neft uyumining uzunliga 70 km, kengligi 20 km, yuzi 54 ming ga. 1930 yildan buyon bu kondan 1 mlrd.t. dan ortiq neft qazib olingan. Litologik qiyiqlanish - kollektorlarning o'tkazuvchanligi bo'lmagan jinsli qalinlikda qiyiqlanishi natijasi. Bunday xolat turli variantlarda bo'lishi mumkin. Eng soddasi - qumli qatlamlarning botiqliklar chekka qismlarida yoki ko'tarilmalar yon bag'irlarida qiyiqlanishi xisoblanadi. Bunday qopqonlar bilan bog'liq juda kagga uyumlar bo'ladi. Masalan, Pombina (Kanada) konining neft zahirasi 200 mln.t. dan ko'p, uyumning uzunligi 85 km, kengligi 25 km, yuzi 150 ming gektar. Ba'zan uyumlar ko'milib ketgan qadimgi daryo o'zanlarida hosil bo'ladi. Rossiyada birinchi marta bunday qopqon neft uyumlari I.M.Gubkin tomonidan 1910-1911 yillarda Kavkaz oldi Maykop rayonida (Neftli-Shirvan maydonida) aniqlangan. U bu uyumni yengsimon deb atadi. Bundan

oldin Oklaxoma va Kanzasda (AQSH) shunga o'xshash uyumlar topilgan edi. Bu yerdagi ayrim kengligi 2-Z km bo'lgan riflar zanjiri quruqlikda 180 km uzunlikkacha cho'zilib ketgan. Xuddi shunday yo'ylar Meksika ko'rfaziga yopishgan ekvatoriyada ham topilgan. Bu rayondagi ko'milgan riflar uglevodorod uyumlariga ega bo'lib, bu uyumlar neft quduqlarining juda katta debitlari bilan mashhur -Serro-Asul hududidan bir kunda 35620 t neft qazib olingan. Potrerodel-Lyano konidagi qudukdan kuniga 13700 t neft olingan, quduq jami 13 mln.t. neft bergan, bu esa bitta quduqdan qazib olingan yig'indi neft bo'yicha jahon rekordi hisoblanadi. Neft va gaz uyumlarining o'zi qopqonlarni turlariga qarab tasniflanadi. Ularni gumbazsimon uyumlar (antiklinallar bilan bog'liq), tektonik to'siqli, stratigrafik, litologik, rifli va aralash turlari ajratiladi.

Neft va gazning migrasiyasi kon shaklanishining muhim shartidir. Migrasiya o'tkazuvchan jinslarda, odatda g'ovaklarni to'ldiruvchi yer osti suvlari bilan birga bo'ladi. Neft va gazning qatlam bo'yicha migrasiyasi erigan yoki erkin holatda bo'ladi. Odatda suv erituvchi sifatida bo'ladi va suvning bu xususiyati qatlam sharoitlaridagi katta bosim va haroratda ortadi. Migrasiya yo'nalishi bosim farqi bilan aniqlanadi va katta bosimlil sohadan kichik bosimli soha tomon sodir bo'ladi. Mutaxassislar bu zonalarni pezometrik maksimum (pezomaksimum), pezometrik minimum (pezominimum) deb atashadi. Yer osti suvlari qatlamlar bo'yicha harakatlanib, pezominimum sohalariga tushib qoladi, bosimning kamayishi sababli suvning erituvchanlik xususiyati kamayadi. Bunday hollarda neft yoki gaz erkin fazoga ajralib chiqa boshlaydi, bosim qancha kamaysa, suvdan uglevodorodlar shuncha ko'p ajraladi. Neft va gaz erkin holatda ham harakatlana oladi, zichligi suvnikidan kichik bo'lgani uchun go'yoki suv ustiga suzib chiqadi. Qatlamlarda yonlama va vertikal migrasiya turlari uchraydi. Birinchi holda flyuidlar bitta qatlam ichida va qatdamlar oradiqlarida harakatlanadi, ikkinchi holda esa har xil ta'sirlar tufayli bir qatlamdan ikkinchi bir qatlamga tomon, odatda pastki qatalmdan yuqorisiga tomon harakatlanadi. Keltirilgan barcha omillarining ijobiy ta'siri natijasida

neft va gaz uyumlarining shakllanishi sodir bo'ladi. Yer qatlamlarida neft yoki gazlarning yagona to'plamlari deyarli uchramaydi. Ular qo'ziqorinday «oilaviy» bo'lib tarqalgan. Bir turdagi qopqon bilan bog'liq neft va gaz to'plamlari «oilasi» neft va gaz to'plamlari sohasini hosil qiladi. Yer po'stining bitta katta tuzilmali elementidagi bir qancha sohalar neft-gazli hududlarga, ular esa o'z navbatida neft-gazli provinsiyalarga birlashtiriladi. Neft va gaz to'plamlari regional va lokal (mahalliy) turlarga bo'linadi. Lokal to'plamlar toifasiga neft va gaz uyumlari va konlari kiradi. Uglevodorodlarning regional to'plamlari toifasiga neft va gaz to'planish zonalari, neftgazli viloyatlar va xududlar kiradi. Neft va gaz uyumi – neft va gazning g'ovak–o'tkazuvchan va darzli kollektorlardagi alohida tabiiy to'plamidan iborat. Uyum rezervuarining neft va gazni tabiiy rezervuarlarga haydovchi kuchlar bilan unga qarshilik ko'rsatuvchi kuchlar tenglashgan qismida hosil bo'ladi. Uyumning shakli va o'lchamlari tutqichning shakli va o'lchamlariga bog'liq. Neft va gaz koni – aniq maydonining o'lchamlari bilan chegaralangan va yer qobig'idagi bir yoki bir nechta tabiiy tutqichlar bilan bog'langan neft va gaz uyumlari to'plami. Gaz, neft va suv tutqichda o'zining zichliklariga muvofiq ravishda joylashadi. Gaz eng yengil bo'lganligiga sababli tabiiy rezervuarining yuqori qismida qopqoq tagida joylashadi. Undan pastdagi bo'shliqlarni neft va uning tagini suv egallaydi. Neft va gaz konlarini loyihalash va ishlatishni tahlil qilish hozirgi kunda to'liq kon geologiyasi ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi. Keyingi yillarda yangi neft va gaz konlarini aniqlashda quduqlar kesimini **mufassal** taqqoslash yo'li bilan yer osti qatlamlarini xaritalash ishlari kon geologiyasi tadqiqotlaridan foydalanilgan holda olib borilmoqda. Neft uyumlarini ishlatish jarayoni barcha texnologik ko'rsatgichlarning tuxtovsiz o'zgarishi bilan tavsiflanadi: neft qazib chiqarish darajasi, qazib chiqarish quduqlari fondi, qatlam bosimi, xaydalayotgan suvning xajmi va boshqalar. Bunda xar bir uyum ishlatishning butun muddati jarayonida bir nechta bosqichni utadi. Bosqichlar qatlamning geologik tuzilishi, neftning

kovushkokligi va ishlatish sharoitlariga karab uzining texnologik va texnik - iqtisodiy ko'rsatgichlarini o'zgarish xususiyatlari bilan tavsiflanadi.

### **Neft konlarini ishlatish jarayoni turtta bosqichga bo'linadi:**

**I bosqich** - ishlatish ob'ektini uzlashtirish - neft qazib chiqarishni usishi va kam suvlanganligi bilan tavsiflanadi. Birinchi bosqichda butun asosiy quduqlar fondi burqilanadi.

**II bosqich** - Neft qazib chiqarishning erishilgan Yuqori darajasini ushlab turish - favvora usulda nisbatan turgun Yuqori qazib chiqarish darajasi, davrning yakunida suvlanganlikni usishi va quduqlarni mexanizatsiyalashgan usulga utish bilan ajralib turadi.

**III bosqich** - neft qazib chiqarishni axamiyatli pasayishi - maxsulotning suvlanganligi birdan usadi, yillik qazib chiqarish kamayadi, quduqlarning axamiyatli qismi xarakatdagi fondan chikadi, quduqlarning deyarli xammasi mexanizatsiyalashgan usulda ishlatiladi.

**IV bosqich** - ishlatishni tugallash bosqichi - qazib chiqarish darajasini kam, sekin kamayishi, maxsulotni va qazib chiqarish quduqlarini Yuqori suvlanishi bilan tavsiflanadi.

### **XULOSA**

Neft va gaz uyumlarini ya'niy ularni rivojlantirish bosqichlarini georazvedka ishlarini tug'ri yulga quyishimiz kerak .Yer osti zaxiralarida neft va gaz mahsulotlarini sifatsizlanishini bartaraf etishimiz kerak. Neft quduqlarida gazlarni qazib olishda ularga berilayotgan bosimni tug'ri nazorat qilishimiz kerak.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. E.A.Likov, SH.X.Umedov. Avarii i oslojneniya v neftegazovom dele.
2. V.M.Murav'ev. Eksploatatsiya neftyanix i gavovix skvajin.
3. B.SH.Akramov, N.N.Maxmudov. "Neft va gaz kazib olish texnika va texnologiyasi" Toshkent - 2002 y.
4. A.S.Abdulin "Dobicha nefti i gaza" Moskva , 1976 g.
- 5.Бойко В.С. Разработка и эксплуатация нефтяных месторождений. -М.: Недра, 1990.
6. Муравьев В.М. Эксплуатация нефтяных и газовых скважин. -М.: Недра, 1973.
7. Ю.Ж.Желтов. Разработка нефтяных месторождений. -М.: Недра, 1986.
- tezavratsion - yer osti boyliklarini topish va qazib olish maqsadida amalga oshiriladigan investitsiyalar (oltin, kumush va boshqa qimmatbaho metallar va toshlar) [4, 29-b.].

Investitsiyalar turlari:

- investitsiyalar hajmi bo'yicha: haqiqiy; moliyaviy;

- investitsiya maqsadi bo'yicha: to'g'ridan-to'g'ri; portfel;

- investitsiyalar sohasida: ishlab chiqarish; noishlab chiqarish;

- investitsiya muddati bo'yicha: qisqa muddatli; o'rta muddatli; uzoq muddatli;

- mintaqalar bo'yicha: mamlakat ichida; chet elda;

- xavf bo'yicha: tajovuzkor; o'rtacha; konservativ;

- investitsiya resurslariga egalik qilish shakllari bo'yicha: xususiy; davlat; xorijiy; aralash [5, 22-b.].

Investitsiyalar muddati bo'yicha qisqa muddatli (1yildan kam) ajratiladi, o'rta muddatli (1 yildan 3 yilgacha) va uzoq muddatli investitsiyalar (3 yildan ortiq) [5, 54-b.].

Mulkchilik shakllari bo'yicha davlat, xususiy, xorijiy va qo'shma (aralash) investitsiyalar.

Xususiy investitsiyalar nodavlat mulkchilik shakllari va jismoniy shaxslar tomonidan korxonalariga pul mablag'larini investitsiyalashni nazarda tutadi. Davlat investitsiyalari deganda davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladigan davlat investitsiyalari, shuningdek shunga o'xshash mulkchilik shakliga ega tashkilotlar tushuniladi.

Xorijiy fuqarolar, firmalar, tashkilotlar, davlatlarning investitsiyalari asosiy investitsiyalardir [4, 22-b.].

Agar investitsiyalar xorijiy va mahalliy xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan birga amalga oshirilsa, bunday investitsiyalar aralash investitsiyalar deyiladi [6, 74-b.].

Bundan tashqari, investitsiyalarni mintaqaviy asosda ichki va tashqi (mamlakat tashqarisiga) bo'lish mumkin. Agar korxonada mamlakat hududida ishlaydigan va o'z mamlakatida mahalliy sifatida ro'yxatdan o'tgan holatda pul mablag'lari orqali sarmoya kiritilsa, masalan, filial qurilishiga mablag' ajratsa, bu ichki (milliy) investitsiyalar hisoblanadi.

Agar chet davlat norezidentlar tomonidan boshqa davlatning moliyaviy vositalariga va/yoki obyektlariga sarmoya kiritilsa bu tashqi investitsiyalar hisoblanadi.

Mamlakat va xorijiy davlatlar subyektlari tomonidan birgalikda sarmoya kiritilsa bu qo'shma investitsiyalar hisoblanadi [7, 55-b.].

Iqtisodiyotning turli sohalariga investitsiyalar tarmoqlar bo'yicha ajratiladi: qishloq xo'jaligi, qurilish, ulgurji va chakana savdo, transport va aloqa, umumiy ovqatlanish, sanoat va boshqalar [7, 28-b.].



Investitsiyalar umuman iqtisodiyotni rivojlantirish uchun kuchli vosita hisoblanadi. Investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati shundaki, ular iqtisodiyotga bevosita foydali ta'sir ko'rsatadi. Investitsiyalar fuqarolar, tadbirkorlar hayot sifatining o'sishiga va mamlakatning iqtisodiy siyosatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Chet el investitsiyalarning kirib kelishi mamlakat iqtisodiyotining mustahkamlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Hozirgi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida investitsiya faoliyati iqtisodiy faoliyatning muhim shakllaridan biri hisoblanadi. Har bir mamlakatning rivojlanish darajasi, investitsiya faoliyatining o'sishi ko'p jihatdan mamlakatdagi investitsiya jarayonlarga bog'liq. Bizga ma'lumki, mamlakatdagi investitsiya jarayonlar investitsiya siyosati orqali amalga oshiriladi va tartibga solinadi. Investitsiya siyosati mamlakatning investitsiya salohiyatini oshirishga va investitsiya faoliyatini yanada rivojlanishiga xizmat qiladi. Shundan kelib chiqqan holda, aytish mumkinki, O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq investitsiya faoliyatini rivojlantirishga katta e'tibor berildi.

Bugungi kunda O'zbekiston mamlakat iqtisodiyotini yanada isloh qilish asosida modernizatsiyalash, ayniqsa, bu jarayonni xususiy sektorda jadal amalga oshirishda, mazkur sektor vakillari bo'lmish xususiy sektor sinfini qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev o'z nutqlaridagi "Investitsiya bo'lmasa, iqtisodiyot rivojlanmaydi. Investorlarga muhit, infratuzilma yaratsak, ish joyi bo'ladi, mahsulot ko'payadi, soliq tushadi. Korxonalarining o'z mablag'ini yana aylantirib, faoliyatini rivojlantirishga rag'batlantirish kerak" [8] degan fikrlari bilan investitsiyaning davlatimiz ravnaqi hamda xalqning turmushida qanchalik muhim o'rin tutishini bildirib o'tganlar.

Xususiy sektor subyektlari alohida mulk egalari sifatida jamiyatning barcha ijtimoiy-iqtisodiy sohalariga ta'sir ko'rsatib, fuqarolar hayotining, shuningdek, davlatning iqtisodiy shart-sharoitlarini aks ettiradi.

Shunga muvofiq, davlatimiz iqtisodiyotining xususiy sektorini rivojlantirishda muhim omilga aylangan investitsiyalarni keng va faol jalb qilish, ulardan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda. Amalga oshirilayotgan islohotlarning ijobiy natijalari ko'lamini va darajasini yanada oshirish uchun iqtisodiyotning xususiy sektorida investitsiyalardan foydalanish samaradorligini yanada oshirish choralarini ko'rish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa mavzuning dolzarbligini ko'rsatib beradi.

Investorlarning xususiy sektorga kapital mablag'lari kiritishi ko'p jihatdan nafaqat korxonalar reytingi yoki xo'jalik faoliyati natijalariga, balki mamlakatning geosiyosiy joylashuvi va davlat tomonidan yuritilayotgan ichki siyosatiga ham bog'liq. Investorlar kapital mablag' yo'naltirish uchun eng barqaror mamlakatlarni tanlaydilar. Shuning uchun dunyoning barcha mamlakatlari imkon qadar investitsion riskni kamaytirishga oid ishlarni bajarishga harakat qiladilar. Jahondagi barcha davlatlar singari bizning mamlakatimizda ham xususiy sektorda investitsiya muhitining jozibadorligini oshirish uchun bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda xorijiy investorlarni jalb etish uchun qator shart-sharoitlar yaratilgan. Xususan:

- mamlakatdagi siyosiy barqarorlik;
- xususiy mulk va raqobatni himoyalaydigan qonunchilik bazasining shakllanganligi;
- investitsiya jarayonini qo'llab-quvvatlaydigan infratuzilmaning barpo etilganligi;
- mamlakatning qulay geografik joylashuvi;
- agrosanoat sektorini rivojlantirish salohiyatining yuqoriligi va mamlakatning mineral
- xomashyo resurslariga boyligi;
- yuqori malakaga ega mehnat resurslarining mavjudligi;
- savdo uchun ichki bozor hajmining yetarli darajada kengligi. [2]

Xorijiy investorlar uchun berilgan imtiyozlar va moliyaviy-iqtisodiy ragʻbatlantirish tizimi, investitsiyaviy jozibadorlikning muhim omili hisoblanadi. Bular esa, toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalarni ishlab chiqarish sohasida, xususan, eksport salohiyati yuqori boʻlgan sanoat tarmogʻiga yoʻnaltirilishini taʼminlaydi. Shu bilan birga, xorijiy investitsiyalarni xususiy sektorga jalb qilishning muhim yoʻnalishlaridan biri - maxsus iqtisodiy zonalarni shakllantirish hisoblanadi. Mamlakatimizda Navoiy, Jizzax, Angren, Gʻijduvon, Qoʻqon, Urgut, Xazarasp, erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilib, ular bugungi kunda oʻz faoliyatlarini samarali yuritishmoqda. XXI asrning birinchi oʻn yillikdan keyingi iqtisodiy rivojlanish davrida mamlakatimiz iqtisodiyotiga yoʻnaltirilgan kapital mablagʻlar hajmi va uning tarkibidagi oʻzgarishlarga eʼtiborimizni qaratsak, unda investitsiyalar hajmining keskin ortganligini va tarkibi sifat jihatidan yaxshilanganligini koʻrishimiz mumkin.

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 2016 yilda 51232,0 mlrd. soʻm boʻlib, moliyalashtirish manbalari boʻyicha – korxonalar va aholi mablagʻlari 49,4% ni, bank kreditlari va boshqa qarz mablagʻlari 7,8% ni, chet el investitsiyalari va kreditlari 38,6% ni, davlat byudjeti 4,2% ni tashkil etgan edi.

2021-yil uchun investitsiya dasturlariga kapital qoʻyilmalarning hajmi 239552,6 mlrd soʻmni tashkil etgan. Bunda toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalar va kreditlar 56,7%, hamda korxonalar va aholi mablagʻlari 31,0%, davlat byudjeti 7,3%, bank kreditlari va boshqa qarz mablagʻlari 5,0% ni, yuqori koʻrsatkichlarga ega. Shuningdek, soʻnggi yillarda mamlakatimiz amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatning bir yoʻnalishi boʻlgan, yaʼni aholini arzon uylar bilan taʼminlash uchun, “Har bir oila tadbirkor” dasturi asosida aholiga tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan imtiyozli kreditlar hisobiga kapital qoʻyilmalarning asosiy parametrlari tarkibida tijorat banklarining kreditlari va boshqa qarz mablagʻlari salmoqli ulushga ega boʻlgan [9].

Ko‘rinib turibdiki, ichki investitsiya mablag‘larini xususiy sektorga yanada jadal jalb qilish, mamlakatimizda mavjud kapital resurslarni iqtisodiyot tarmoqlariga jalb qilish mexanizmini takomillashtirish bilan bog‘liq bosqichni bosib o‘tishni taqozo etadi, ya’ni, birmuncha vaqtni talab qiladi. Xususiy sektorga investitsiyalar kiritish hajmini oshirishda ichki investitsiyalarni o‘rnini bosuvchi omil, bu albatta xorijiy investitsiyalar va kredit mablag‘lari hisoblanadi. Shunday ekan, bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni xususiy sektorga jalb etishni rag‘batlantirish va investitsiya jozibadorligini oshirish, chet el kapitalini milliy korxonalariga jalb qilish mexanizmini takomillashtirish borasida kerakli ish olib borish lozim bo‘ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, xususiy sektorning mamlakat iqtisodiyotida naqadar muhim o‘rin tutishini, uning ahamiyati ushbu sektor tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar, ko‘rsatilayotgan xizmatlar, bajarilayotgan ishlar bilan ichki bozordagi iste‘molchilar talablarini qondira olayotganligi hamda tashqi bozorga eksport qilayotganligi, bu bilan mamlakat import mahsulotlarini kamaytirishga va eksport salohiyatini oshirishga ko‘mak berayotganligi, iqtisodiyotning yetakchi sohalarida o‘z o‘rniga ega ekanligi, mehnatga layoqatli aholiga bo‘sh ish o‘rinlarini yaratayotganligi, mamlakatda raqobatchilik muhitini hamda investitsiya jozibadorligini oshirayotganligi, soliq to‘lovlari orqali davlat byudjetini to‘ldirayotganligi orqali ko‘rishimiz mumkin. Shu kabi sabablarga bog‘liq holda, iqtisodiyotda xususiy sektor va ushbu sektor investitsiya faoliyatining davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishini faollashtirish va rag‘batlantirish yuzasidan tadqiqot ishidagi ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar o‘zining ijobiy natijalarini berishiga ishonamiz

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Разумова Ю.В. Инвестиционный анализ и управление инвестициями: Учебно-методический комплекс / Разумова Ю.В., 2012. – 240 с.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida” O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son
3. Борисова О.В. Инвестиции. В 2 т. Т.1. Инвестиционный анализ: Учебник и практикум / О.В. Борисова. – Люберцы: Юрайт, 2019. – 218 с.
4. Бирман Г. Инвестиционный анализ / Г. Бирман. - М.: Банки и биржи.: ЮНИТИ, 2019. – 631 с.
5. Колмыкова Т.С. Инвестиционный анализ: Учебное пособие / Т.С. Колмыкова. – М.: НИЦ ИНФРА-М, 2018. – 214 с.
6. Чеботарев Н.Ф. Мировая экономика и международные экономические отношения: Учебник для бакалавров / Н.Ф. Чеботарев. – М.: Дашков и К, 2019. – 352 с.
7. Официальный сайт Высшей школы экономики [Электронный ресурс] Электрон.дан. – Режим доступа: <https://www.hse.ru> (дата обращения 26.11.2021).
8. [www.daryo.uz](http://www.daryo.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning birinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumining ochilish marosimidagi nutqi. 2022 yil 24 mart.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2019 - yilga mo‘ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4067-sonli Qarori.// Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.12.2018-y., 07/18/4067/2354-son

### List of literature

1. Razumova Y.V. Investment analysis and investment management: Educational and methodological complex / Razumova Y.V., 2012. - 240 p.
2. In the editorial of the law of the Republic of Uzbekistan “on investment and investment activities” dated April 21, 2021, OORQ-683 // National base of Legislative Data, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375.
3. Borisova O.V. Investments. In 2 vols. Vol.1. Investment analysis: Textbook and workshop / O.V. Borisova. – Lyubertsy: Yurayt, 2019. – 218 p.
4. Birman G. Investment analysis / G. Birman. - M.: Banks and exchanges.: UNITY, 2019. – 631 p.
5. Kalmykova T.S. Investment analysis: Textbook / T.S. Kolmykova. – M.: SIC INFRA-M, 2018. – 214 p.
6. Chebotarev N.F. World economy and international economic relations: Textbook for bachelors / N.F. Chebotarev. – M.: Dashkov and K, 2019. – 352 p.
7. Chebotarev N.F. World economy and international economic relations: Textbook for bachelors / N.F. Chebotarev. – M.: Dashkov and K, 2019. – 352 p.
8. [www.daryo.uz](http://www.daryo.uz) -speech of the president of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoev at the opening ceremony of the first Tashkent International Investment Forum. March 24, 2022.
9. PQ-4067 of December 19, 2018.// National base of legislative maelomotlar, 20.12.2018., 07/18/4067/2354.

## SIFATLI RESTAVRATSIYA - MUVAFFAQIYATLI DAVOLASH KALITI

**Tursunova G. J**

Magistrant, Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro

Davlat tibbiyot instituti,

Buxoro, 200100

### ANNOTATSIYA

*Restavratsiya jarayonida material va usulni tanlash muammosi hozirgi vaqtda dolzarbdir. Axir, stomatologiya bozorida kariyes bo'shliqlarini to'ldirish uchun turli xil plomba materiallari taqdim etiladi. Ushbu maqolada tishlarning chaynov yuzasini sendvich texnikasi (Filtek Ultimate & Vitremer (3M ESPE)) va CB Flow texnikasi (Filtek Ultimate & Filtek Flow (3M ESPE)) bilan to'ldirish samaradorligining qiyosiy tahlili o'tkazildi. Tadqiqot 60 ta olingan tishlar ustida o'tkazildi. Samaradorlikni baholash mezonlari sifat va miqdoriy (morfometrik) usullar edi. Tadqiqot natijalari ikkala o'rganilayotgan guruhning plomba materiallarining yuqori muhrlanish qobiliyatini ko'rsatdi, ammo oquvchan kompozitsion va pastaga o'xshash kompozitsiyaning kombinatsiyasi tish to'qimalariga yaxshiroq chegaraviy moslashishni ta'minlaydi.*

**Kalit so'zlar:** restavratsiya, germetizm, plomba materiali.

Stomatologiya bozorida paydo bo'lgan juda ko'p yangi materiallar bilan stomatolog oldida materialning tish to'qimalariga yopishishi, qisqarishi va eskirishini oldini olish tufayli mikroorganizmlarning ko'payishi uchun nomaqbul muhit yaratish asosiy vazifa sifatida turibdi. Aksincha, plomba va tish o'rtasidagi chegarada qoldiq chekka o'tkazuvchanlik paydo bo'lib, ikkilamchi tish kariesining rivojlanishiga olib keladi [3]. Ushbu masala bo'yicha munozara ilmiy va tibbiy adabiyotlar



ma'lumotlari, tadqiqotchilar, amaliyotchilar tomonidan olingan ilmiy faktlar bilan oldindan belgilanadi, ular o'z ishlari bilan "plomba tishlari" chegarasida chekka o'tkazuvchanlik hodisalarini ishonchli tasdiqlaydilar [1]. Yillar davomida turli xil plomba materiallari va karies bo'shliqlarini to'ldirish usullari taklif qilingan va foydalanish uchun tavsiya etilgan [4].

**Tadqiqot maqsadi.** Molyar va premolyarlarning chaynov yuzasida karioz bo'shliqlarni tiklash misolida CB-Flow usuli va sendvich texnikasi samaradorligini qiyosiy baholash.

**Materiallar va usullar.** Tadqiqotlar klinik ko'rsatkichlarga ko'ra olib tashlangan 60 ta tishda o'tkazildi, ularda Black bo'yicha I sinf bo'shliqlari dentinning o'rta uchdan bir qismida tayyorlangan. Keyinchalik, tayyorlangan material ikki guruhga bo'lingan. I guruhda (30 tish) Filtek Ultimate (3M ESPE) kompozit material bilan birgalikda Vitremer shisha ionomer tsement yordamida yopiq sendvich texnikasi qo'llanildi. II guruhda tiklash Filtek Ultimate kompozit (3M ESPE) bilan birgalikda Filtek Flow suyuqlik kompozit yordamida Cbflow texnikasi yordamida amalga oshirildi. Tugatish silliqlash va charxlash Sof Lex disklari bilan amalga oshirildi. Usul va materiallarning bunday tanlovi amaliy sog'liqni saqlashda keng tarqalganligi bilan bog'liq.

Keyinchalik, tishlar uch oy davomida 2% metilen ko'k eritmasiga joylashtirildi. Metilen ko'k eritmasi past molekulyar og'irlikka ega va boshqa bo'yoqlarga qaraganda ildiz plombalari bo'ylab chuqurroq kirib boradi. Bundan tashqari, u o'tkazuvchan tish segmentlariga osongina kirib boradi va tish matrisasi yoki apatit kristallari tomonidan so'rilmaydi. Belgilangan vaqtning oxirida, olmosni ajratish diskidan foydalanib, tishlar ularning uzunlamasiga o'qi orqali o'tadigan vertikal tekislikda ajratildi.

Bu bo'yoqning yaxshiroq ekstraksiyasini ta'minladi va bo'yoqning tish to'qimalariga kirib borish chuqurligini o'lchash imkonini berdi. Mikrooqishni tahlil qilish uchun sifatli usul ishlatilgan, ya'ni plomba / dentin chegarasi bo'ylab har

qanday bo‘yoq mavjudligi germetizmning buzilishi sifatida qayd etilgan. Plombalarning mikroqish chuqurligi eng uzoqdagi bo‘yash nuqtalari bilan o‘lchandi, ya’ni tekshirilgan tishlarning har bir guruhi uchun namunalardagi bo‘yoqning o‘rtacha kirib borish chuqurligi o‘lchandi - miqdoriy usul. Turli plombalarning moslashuv zonasini mikroskopik tekshirish o‘tkazildi. Statistik tahlil o‘rtacha qiymatni (M), uning o‘rtacha xatosini ( $\pm m$ ) aniqlash, guruhlardagi farqlarning ahamiyatini Student t-testi yordamida baholash bilan o‘zgaruvchanlik statistikasi usulida o‘tkazildi. Taqqoslangan ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi farq  $p < 0,01$  da muhim deb hisoblandi.

**Natijalar va uning muhokamasi.** Sifat ko‘rsatkichlarini baholashda shuni ta’kidlash kerakki, tishning bo‘ylama qismidagi har ikkala guruhdagi emal dentin zonasiga silliq o‘tadi, uning yo‘nalishi bo‘ylab emal prizmalari S shaklidagi burmalarni hosil qiladi, shuning uchun bo‘ylama bo‘limda ( tish bo‘limi) emal prizmasining ba’zi qismlari uzunlamasiga, boshqalari esa bo‘ylama kesilgan bo‘ladi. I guruh namunalarida (sendvich texnikasi - Filtek Ultimate & Vitremer (3M ESPE)) muqobil aloqa joylari va tirqishli bo‘shliqlar topilgan. II guruh namunalarida (CB Flow - Filtek Ultimate & Filtek Flow (3M ESPE)) oquvchan kompozitsiyaning aloqa zonasida, o‘rganilayotgan zona bo‘ylab plomba va tish to‘qimalari o‘rtasida bo‘shliqlarsiz silliq o‘tish kuzatiladi. Moylar va premolyarlarning chaynov yuzasini tiklashda mikroqimni miqdoriy tahlili shuni ko‘rsatdiki, barcha o‘rganilgan materiallar tish to‘qimalari bilan yuqori mustahkam bog‘lanish hosil qiladi, bu materialning yaxshi mahkamlanishiga va muhrlangan restavratsiya hosil bo‘lishiga yordam beradi. Plomba natijalarining qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatdiki, I guruhda bo‘yoqning tish to‘qimalariga kirib borishi qayd etilgan tishlar soni tadqiqot guruhidagi umumiy tishlarning 4 tasini (13%) tashkil qiladi. II guruhdagi shunga o‘xshash ko‘rsatkich 2 baravar kam va 2 (6,7%) ga teng. Tishlarni sendvich texnikasi (Filtek Ultimate & Vitremer (3M ESPE)) bilan tiklashda bo‘yoqning kirib borish chuqurligining o‘rtacha qiymati  $0,28 \pm 0,13$  mm ni tashkil etdi. II guruhdagi shunga

o'xshash ko'rsatkich (Filtek Ultimate & Filtek Flow (3M ESPE))  $0,11 \pm 0,08$  mm. Bu qiymat statistik ahamiyatga ega ( $p < 0,01$ ). Shuni ta'kidlash kerakki, CBFlow texnikasidan foydalangan holda guruhda aniq dentin - plomba chegarasi mavjud emas, bu vosita bondingini shakllantirmasdan mukammal bog'lanishdan dalolat beradi.

**Xulosa.** Tadqiqot natijalarini hisobga olgan holda, CBflow texnikasida (Filtek Ultimate & Vitremer (3M ESPE)) oquvchan kompozitlardan foydalanish shisha ionomer sement va kompozit birikmasi bilan solishtirganda optimal davolash natijalarini berishi mumkin degan xulosaga kelish mumkin. Sendvich texnikasidan asosiy astar sifatida foydalanish har doim ham intervalgacha aloqa tufayli materialning tish to'qimalariga ishonchli moslashuvini ta'minlamaydi. Filtek Ultimate & Filtek Flow kombinatsiyasi samarali gibril qatlamning shakllanishiga yordam beradi, uning o'zi izolyatsion funktsiyani bajaradi va izolyatsion astardan foydalanishni ixtiyoriy protseduraga aylantiradi. Gibril qatlam shaklida pulpa uchun mikroorganizmlarning kirib kelishidan germetik himoya yaratib, biz uning funktsional faolligini tiklash va mavjud infeksiyaga qarshi kurashish uchun sharoit yaratamiz, immunitet tizimiga muammoni o'z-o'zidan hal qilish imkonini beradi. Bunday holda, suyuq material moslashuvchan qatlam rolini o'ynaydi, uning funktsiyalari: amortizatsiyalanuvchi, polimerizatsiyadan keyingi stressni kamaytiradigan, pastaga o'xshash kompozitsiyani bo'shliq devorlariga moslashishi, materialning yaxshi chegaraviy mosligini ta'minlaydi..

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

1. Brats S. W&H Dentalwerk, Avstriya tomonidan ishlab chiqarilgan WD-74 M (128:8) endodontik qarama-qarshi burchakli tutqichni nikel-titanli fayllar bilan ildiz kanallarini tayyorlash uchun qo‘llash // Stomatologiyaning Maestro. 2006 yil. № 3. 49-51-betlar.
2. Firsova I.V., Poroykiy S.V., Makedonova Yu.A. Zamonaviy muhrlarning muhrlanish qobiliyatini baholash // Tinch okeani tibbiyot jurnali 2014 yil 3-bet. 74-75.
3. Firsova I.V., Poroikiy S.V., Makedonova Yu.A., Kamaletdinova R.S., Kobelev E.V. Zamonaviy stomatologik amaliyotda sifat va xavfsizlik printsiplari // Fan va ta’limning zamonaviy muammolari. 2014 yil, № 6; URL: <http://www.scienceeducation.ru/120-15530> (kirish sanasi: 24.11.2014)
4. Firsova I. V., Poroykiy S. V., Makedonova Yu. A., Dordjiev V. V., Dordjiev C. V. Endotizimlarni mahkamlash uchun materiallarning chegaraviy o‘tkazuvchanligini qiyosiy tahlil qilish // Bugungi kunda endodontika. 2015 yil. № 1. Bilan. 39-43
5. Peters S.I., Peters O.A. Kompyuter tomonidan boshqariladigan chaynash apparatida EBA va MTA plomba materiallarining okklyuzion yuki: skanerlash elektron mikroskop ostida o‘rganish / S.I. Peters, O.A. Peters // J. Endod. 2002. 35-jild. S. 22 - 29.
6. Stomatologiyada ishlatiladigan zamonaviy davolash tagliklarning arsenali Chen Vey, El Uazzani Muhammad, G. P. Kazantseva \ Akademik I. P. Pavlov nomidagi Rossiya tibbiy-biologik gazetasi, no 1, 2013 yil
7. Guryanova S. V., Kolesnikova N. V., Gudima G. O., Lejava N. L., Karaulov A. V. Kariesni davolashda og‘iz suyuqligining immunologik va mikrobiologik ko‘rsatkichlari dinamikasi \ Immunologiya 42-Jild № 4 , 2021

8. Bolalar stomatologiyasi amaliyotida profilaktika tadbirlarini o'tkazish imkoniyatlari to'g'risida dalillar va argumentlar\ Lev Mixaylovich Yanovskiy\ Sibir tibbiyot jurnali, 2014 yil, № 1
9. Lazer Doppler fluometriyasi va densitometriya ma'lumotlariga ko'ra dentin kariesini kompleks davolash samaradorligi Sufiyarov R. M. 1, Gerasimova L. P. \ Stomatologiya muammolari 2016, Vol. 12 № 4, p. © 2016, Yekaterinburg
10. Yosh bolalarda bo'shliq hosil qilmasdan kariozli zararlanishlarni davolash samaradorligi Shakovets Natalya Vyacheslavovna\ Zamonaviy stomatologiya \* N1 2018. 47
11. Kombinatsiyalangan infiltratsion davolanishdan so'ng demineralizatsiya qilingan tish emalining yorilishga chidamliligi ko'rsatkichlarini eksperimental tahlil qilish© O. S. Gileva\*, A. D. Levitskaya\ Пермский медицинский журнал 2021 \ № 3
12. Psixonevrologik kasalliklarga chalingan bolalarda og'iz suyuqligining Ekspress diagnostikasi stomatologik davolanishni personifikatsiya qilish manbai sifatida \O. V. Gulenko\ Sechenov medical journal No. 3 (33), 2018
13. Ftoridlar: Ularning zamonaviy sharoitda inson salomatligi uchun ahamiyati va ulardan foydalanish istiqbollari\ Iordaniyashvili A. K.\ Kursk ilmiy-amaliy gazetasi "inson va uning salomatligi". – 2019. – № 2.
14. Xeygetyan A. V. 1, Bragin E. A. 2, Maksyukov S. Yu. 1, Labushkina A. V. 1, Alutina E. L. 1, Xarseyeva G. G. Yon tishlarnig kontakt yuzalarida karies bo'lgan bemorlarda immunologik ko'rsatkichlar\ Klinik laboratoriya diagnostikasi, № 8, 2015 yil

## IBORALARDA METONIMIYA HODISASINING NAMOYON BO'LISHI

**G'aniyeva Dildora Azizovna**

Farg'ona davlat universiteti

Filologiya fanlari doktori, Ingliz tili kafedrası dotsenti

**Sharipova Shokhsanam Qodirjon qizi**

Fargona Davlat Universtiteti Magistratura yo'nalishi

Lingvistika ingliz tili 2-bosqich talabasi

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada frazeologik polisemiyaning metafora asosida shakllanishini tahlil qilish asosida muayyan xulosalarga kelingan. Mavzuning tadqiq etilishi tasniflangan va muayyan darajada munosabat bildirilgan. Frazeologik birliklarning kontekstda ifodalayotgan ma'nolari, iboralarning ko'p ma'noliligi va ma'nodoshligini farqlash, izohlashga doir misollar asosida ayrim taklif-mulohazalar bayon qilingan.*

***Kalit so'zlar:** metafora, metonimiya, polisemiya, frazema, iboralarda ko'p ma'nolilik, ma'nodoshlik, semantika.*

### **KIRISH**

Har qanday xalqning frazeologiyasi ushbu tilda gaplashadigan millat tarixi, madaniyati, urf-odatları va adabiyoti bilan uzviy bog'liqdir va shunga mos ravishda adabiy-badiiy asarlarda aks etadi.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklar o'ziga xos xususiyatlar bilan ajralib turadi, chunki rus frazeologik birliklari ko'pincha bir cho'qqili frazeologik birikmalar bo'lib, ularda eskirgan yoki kam ishlatilgan so'zlar saqlanib qoladi: *бить баклуши, точить лясы*. Ingliz tilidagi frazeologik birliklar odatda

ko‘proq moslashuvchan, ma‘no jihatidan shaffofroqdir va shuning uchun ko‘pincha tarkibiy qismlarni almashtirish yoki qo‘shimcha kiritish mumkin. Masalan, *Die Hard* («Крепкий орешек») beshinchi seriyasida *Good Day to Die Hard* gacha kengaytirildi.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Tilning ifoda vositalari orasida metaforalar alohida o‘rin egallaydi. Jumladan, N.D.Arutyunova ta’kidlaganidek, “leksika metafora asosida rivojlanadi” [1:33]. Metafora tilning, aniqrog‘i, insoniyatning muhim muloqot vositalaridan biridir. U tilda fundamental qiymatga ega bo‘lib, nisbatan aloqa munosabatlari yaqin bo‘lgan kishilar o‘rtasida qo‘llanadi. O‘zbek tilshunosligida o‘tgan asrning ikkinchi yarmida so‘z ma‘nosiga, ma‘no ko‘chish usullariga e‘tibor qilish boshlandi. Jumladan, tilshunos T.Aliqulov shunday yozadi: “Polisemiya tilshunoslikning aktual masalalaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham uning tildagi o‘rnini belgilash, tarixiy rivojlanish etaplarini kuzatib, qay usullar bilan vujudga kelish qonuniyatlarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega” [2:36]. Olim XX asrning ikkinchi yarmida “Polisemiyalarning hosil bo‘lishi haqida”gi maqolasida va o‘zbek tilida polisemiya hodisasiga bag‘ishlangan boshqa maqolalarida o‘z nuqtai nazarlarini bayon qiladi va natijalar darslik va qo‘llanmalardan o‘rin ola boshladi [3:31-37].

### TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Shu o‘rinda ma‘no ko‘chish turlari haqida ham mulohaza yuritishga to‘g‘ri keladi. Bugungi kunda o‘zbek tilshunosligida ma‘no ko‘chishining metafora, metonemiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, kinoya va tag ma‘no kabi turlari farqlanadi. Vazifadoshlik ham metafora kabi o‘xshashlikka asoslangani uchun til birliklarini farqlashda ayrim chalkashliklar yuzaga chiqmoqda. Shu ma‘noda O.Azizovning sinekdoxani metonimiya tarkibiga kiritishi [4:76], S.Usmonov, Sh.Rahmatullaevlarning mazkur yondashuvni yoqlashi muayyan asoslarga egaligini ko‘rsatadi. Biroq O.Azizov sinekdoxani metonimiya tarkibiga kiritgan holda vazifadoshlik haqida o‘z munosabatini bildirmaydi. M.Mirtojiev bo‘lsa, ma‘no



ko'chish usullarini metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik va tobelilik kabi 5 taturga bo'ladi [5:35].

Bizningcha ham, ma'no ko'chish turlarining tushunarli va ixcham bo'lishi ularning umumlashtirilishga bog'liq, bu borada metafora va metonimiyagagina ajratish to'g'ri yondashuv bo'ladi, vazifadoshlik metafora tarkibiga, sinekdoxa metonemiya tarkibiga kiritilgani ma'qul. Shunday tasnif qilinsa, ham ilmiy ham ta'limiy nuqtai nazardan foydali bo'ladi, qolaversa, boshqa til birliklari tadqiqida ham nisbatan qulaylik paydo bo'ladi, ma'lumki, frazeologizmlar ko'chma ma'noga asoslagan bo'ladi, ularni hosil bo'lish yoki shakllanish jihatdan tasniflashda ikkiga ajratish qulaylik tug'diradi. Maqolada frazeologik polisemiyaning metaforik asosda shakllanishiga doir kuzatish natijalari ayrim misollar orqali bayon qilindi. Bizningcha, iboralar yo aloqadorlik yoki o'xshashlik asosida ko'chma ma'nolar hosil qilsa-da, tahlillardan ma'lum bo'lishicha, frazeologizmlar orasida o'xshashlik, ya'ni metafora asosida shakllanish ustuvorlik qiladi.

Masalan, "bosh ko'tarmoq" FB 1) qaradi 2) qilib turgan ishini to'xtaldi 3)qo'zg'aldi, harakat qildi 4) kurashga chog'landi kabi ma'nolarni ifodalagan. Shuningdek quyidagi misollarda ham frazeologik birikmalar metaforik ma'no ifodalash asosida polisemiyaning hosil qilmoqda: Boshlarini bir joyga qovushtirdi – 1) hamjihat bo'lib birlashtirdi 2) oila qurdirdi.

Boshi aylandi – 1)behud bo'ldi, muvozanatini yo'qotdi 2)esankiradi. Bo'yniga qo'ydi -1) to'nkadi, ayb ag'dardi 2) bajarishga rozi qildi Bosh suqdi -1)gavdasi tashqarida qolib, boshini tiqqan holda qaradi2)aralashdi.

### **XULOSA VA MUNOZARA**

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, harakatni ifodlovchi, fe'l asosli ko'plab iboralar harakat yoki holat o'xshashligi asosida metaforik ma'no ifodalamoqda. Metafora va metonimiya tilda polisemiya bilan bog'liq asosiy vazifani bajaradi, frazeologik birliklarning shakllanishida ham metonimiyaga nisbatan metaforalar o'ziga xos muhim o'rinni egallaydi.

FB larning shakllanishida metaforalarning hissasini alohida tadqiq qilish frazeologik polisemiya metaforik va metonimik asosda shakllanishi, ularning darajasi nisbiy ekanligi, bir iboraning ba'zi hosila sememalari faqat metaforik, ba'zan faqat metonimik asosda bo'lishi dalillandi. O'zbek tilidagi polisemantik frazeologizmlarning leksikografik talqinida o'zbek formal leksikologiyasi yutuqlari ustuvor ekanligi, ulardagi semik farqlarning e'tiborga olinishida frazeologik birliklarning semasiologik talqini zarurligi asoslandi. O'zbek tilining umumiy izohli lug'atlaridagi frazeologik polisemiya talqiniga munosabat bildirildi va uni mukammallashtirish bilan bog'liq takliflar berildi, frazeologizmlarni til korpuslarida berish vazifalari ko'rsatildi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Arutyunova N.D. Metafora i diskurs. Teoriya metaforы. – M., 1990.– b. 5-33.
2. Aliqulov T. Polisemiylarning hosil bo'lishi haqida / - Toshkent: O'zbek tili va adabiyoti, 1963. 6-son. – 36 b.
3. Хайтов, Л. А. (2014). Значение эстетического воспитания в развитии личности студента педагогического вуза. *Наука. Мысль: электронный периодический журнал*, (10), 40-44.
4. Azamatovich, X. L. (2021). The Concept of Heart In The Treatises Of Hakim Termizi. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE*, 2(3), 63-67.
5. Azamatovich, K. L. (2020). The role of the Hakim Termizi architectural complex in visiting tourism in Uzbekistan. *Вопросы науки и образования*, (9 (93)), 27-31.
6. Yuldasheva, D. THE IMPORTANCE OF COOPERATIVE LEARNING AND GROUP WORK IN ENGLISH CLASSES. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych.*, 100.
7. Artikbayeva, Z. A., & Egamova, G. A. (2022). Boshlang 'ich sinf ona tili darsliklarida so 'z birikmasi yuzasidan berilgan bilimlar tahlili. *Science and Education*, 3(2), 734-739.
8. Sadikov, E. (2022). TIL O 'QITISHDA PRAGMATIKA MASALALARI: TA'RIFLAR, TANQIDLAR, TAHLILLAR VA TALQINLAR. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 24(24).

## METONYMY ANALYSIS INVOLVING SOME LEXICONS

**Ganieva Dildora Azizovna**

Doctor of Philology, Associate professor of Ferghana State University

**Sharipova Shokhsanam Kadirjon kizi**

Ferghana State University, Linguistics, 2nd year master's degree in English.

***Abstract.** The main goal of the article is to present a survey of recent research on the role of conceptual metonymy in grammar and discourse. A related goal is to argue that metonymy is more than just a lexical phenomenon. After defining conceptual metonymy from a cognitive-linguistic perspective, a detailed summary of recent research (including the author's own contributions) on the functioning of metonymy in conceptualization, phonology, grammar and discourse-pragmatic inferencing is offered.*

***Keywords:** metonymy, metaphor, cognitive linguistics, grammar, discourse.*

### INTRODUCTION

The goal of this paper is to present a brief survey of recent research in cognitive linguistics (CL) on metonymy aimed at (a) providing illustrative examples of the role of metonymy in grammar and discourse, (b) emphasizing the usually overlooked fact that metonymy regularly operates *under* (phonology, morphemics), *in*, and *above* (phrases, clauses, sentences, utterances and discourse) the lexicon. The reason for its multi-level operation is that metonymy is a fundamentally cognitive phenomenon.

## MATERIALS AND METHODS

Another problem is the status of certain WHOLE FOR PART metonymies, especially “active-zone” (AZ) metonymies [1]. This issue is connected to the controversial distinction between metonymy and “facets” or “modulation”. Only those AZ phenomena which are clearly metonymic will be considered, that is, instances like *The Times criticized the minister* [where a mapping of COMPANY (NEWSPAPER) onto EMPLOYEE(S) (JOURNALIST(S))] occurs, but not unclear instances like *Your dog bit my cat*, where the conceptual shifts

ANIMAL (DOG) to ANIMAL’S BODY PART (DOG’S SET OF TEETH) and ANIMAL (CAT) to UNSPECIFIED PART OF ANIMAL’S (i.e. CAT’S BODY) are not clearly metonymic (it is not clear whether there is a stable pragmatic function relating source and target in these shifts). In any case, the difference between AZ and metonymy is a *gradual* one. The characterization of metonymy presented is very broad, but only uncontroversial instances will be discussed.

## RESULTS AND DISCUSSION

One of the main tenets in CL is that “invisible” conceptual operations and conceptual structures often underlie online linguistic structure at all levels of linguistic processing [2]. The role of metonymy in them is evidence both of the conceptual nature of metonymy and of the fact that metonymy is not confined to lexical meaning.

Among the various types of metonymic models, Lakoff (Lakoff 1987: 77-90) cites what he calls “social stereotypes”.

An example of the MOTHER stereotype is the “housewife-mother” who metonymically stands for the whole MOTHER category. See this instance of reasoning in terms of this stereotype (the concessive conjunction is quite revealing): *Jane is an excellent mother although she has a very demanding job outside her home.*

Another example is the BACHELOR stereotype, which presents bachelors as dating a lot, frequenting single bars, and being only interested in sexual conquest,

stands for the whole BACHELOR category. It motivates such examples as *Mary's husband is a real bachelor*, which does not constitute a logical contradiction in the metonymic model. It would count as a contradiction in the “standard”, “rigid” BACHELOR model, whose prototype is an *unmarried* male adult human who has reached marriageable age. There are many more examples of metonymic cognitive models in the literature.

An example is the metonymic motivation of nominal morpheme {*ful*}, as in *armful* (Barcelona 2005a: 320-21). This morpheme occurs in this text in Eugene O'Neill's play *Long Day's Journey into Night*: TYRONE. *You're a fine armful now, Mary, with those twenty pounds you've gained*. This derivational morpheme derives nouns from nouns (*armful* from *arm*); other nouns with this morpheme are *bottleful*, *boxful*, *canful*, *worldful*, *churchful*. It historically originates in the adjective *full*. The meaning of the morpheme is “the quantity of X that fills or would fill Y” (adapted from the Webster's dictionary, 2<sup>nd</sup> edition, and the Oxford English Dictionary (OED), 2<sup>nd</sup> edition.. This sense of the morpheme seems to have been motivated in part by the metonymy DEGREE OF FILLING OF A CONTAINER FOR QUANTITY OF CONTENT FILLING IT, related to HEIGHT FOR QUANTITY. The domain of quantity is not directly activated by the subdomain of content within the FILLING ICM / frame, but by the subdomain of the degree to which the container has been filled by the content. In O'Neill's example, “the container” is a metaphorical one, namely Mary's arms.

Lexical metonymies are extremely frequent although they seem to be less frequent than purely inferential discourse-level metonymies (Barcelona 2005a). Therefore, most of the examples of metonymy usually offered in rhetoric and semantics handbooks are lexical metonymies, many of them of the sort that motivates polysemy, such as those motivating the extended senses of *hand* as manual worker or sailor, *nose* as the sense of smell illustrated by *this dog has a good nose*, or *chicken* as in *chicken meat*. These metonymies are well-known in historical linguistics,

rhetoric and lexical semantics, and they have been the object of detailed research in CL. Additional examples of lexical metonymies are discussed in sections six and seven on metonymy in grammar and discourse. We are mainly concerned here with the grammatical consequences of lexical metonymies (especially with regard to the morphosyntactic categorization of the respective lexemes) and with their discourse function (especially with regard to their role in reference-maintenance, discourse-pragmatic inferencing and, in general, in the creation of discourse coherence).

### CONCLUSION

A rich amount of evidence and information has been provided to illustrate the role of metonymy in grammar and discourse and to emphasize the often overlooked fact that metonymy also regularly operates *under* (phonology, morphemics), *above* (phrases, clauses, sentences, utterance and discourse) the lexicon and *outside* oral language (such as sign languages, gestures, art), and that it is a primarily *conceptual mechanism*.

This conceptual nature explains why we regularly find the same general types of conceptual metonymies (EFFECT FOR CAUSE, PART FOR WHOLE, RESULT FOR CONDITION, ENTITY FOR SALIENT PROPERTY) operating at very different linguistic levels and in very different expressive and communicative modes.

Metonymies, on the other hand, chain to each other and to other conceptual factors such as metaphors and other types of contextual information to guide the processing of discourse.

## REFERENCES

1. Alm-Arvius, Christina 2013: *Figures of Speech*. Lund: Studentlitteratur.
2. Хайтов, Л. А. (2014). Значение эстетического воспитания в развитии личности студента педагогического вуза. *Наука. Мысль: электронный периодический журнал*, (10), 40-44.
3. Azamatovich, X. L. (2021). The Concept of Heart In The Treatises Of Hakim Termizi. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE*, 2(3), 63-67.
4. Azamatovich, K. L. (2020). The role of the Hakim Termizi architectural complex in visiting tourism in Uzbekistan. *Вопросы науки и образования*, (9 (93)), 27-31.
5. Yuldasheva, D. THE IMPORTANCE OF COOPERATIVE LEARNING AND GROUP WORK IN ENGLISH CLASSES. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych.*, 100.
6. Artikbayeva, Z. A., & Egamova, G. A. (2022). Boshlang 'ich sinf ona tili darsliklarida so 'z birikmasi yuzasidan berilgan bilimlar tahlili. *Science and Education*, 3(2), 734-739.
7. Sadikov, E. (2022). TIL O 'QITISHDA PRAGMATIKA MASALALARI: TA'RIFLAR, TANQIDLAR, TAHLILLAR VA TALQINLAR. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 24(24).



## INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI VARVARIZMLARNING LINGVOMADANIY ASPEKTI

**Xumoraxon Begmatova Omonjon qizi**

Lingvistika: Ingliz tili yo‘nalishi magistranti(FarDU)

*Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi varvarizmlarning lingvomadaniy tahlili va aspekti ochib berilgan.*

*Kalit so‘zlar: psixolingvistika, kognitiv, aspekt, S.A. Kuznetsov tahlili, ong, lingvomadaniy, varvarizmlar.*

Zamonaviy psixolingvistika, kommunikatsiya va kognitiv lingvistika uchun kognitiv ong tushunchasi tasnifini o‘rganish dolzarb masalalardan biri bo‘lmoqda. Ong tushunchasi zamonaviy fanning qiyin ta’riflanadigan tushunchalariga kirsada, doimiy ravishda barcha ijtimoiy va aniq fanlarning aksariyat qismi tomonidan foydalaniladi. Bu bilan birga fanda xanuzgacha tafakkur va ong atamolari o‘rtasida aniq chegaralanish mavjud emas. Bu tushunchalar, ba’zan turlicha talqin qilinib qarama – qarshi ma’nolarda berilsa, ba’zan sinonimlar sifatida ishlatiladi.

Bizning fikrimizcha, ong tushunchasi turg‘un holat jihatini, tafakkur esa dinamik aspektga urg‘u beradi. Ong bu miyaning o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, tafakkur esa onnga ega bo‘lgan miyaning faoliyatidir (ya’ni tafakkur qilish fikrlash faoliyatidir). Aynan shu jihatdan biz tafakkur va ong o‘rtasidagi, bu ikki tushuncha mavjudligi sababli ular o‘rtasidagi chegarani aniqlab berish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Quyidagi izlanishda biz diqqat- e’tiborimizni ongning tilga bo‘lgan munosabatini o‘rganishga qaratamiz.

Falsafiy va psixologik adabiyotlarda ong yuqori tashkil qilingan materiyao‘z ichida hissiy va aqliy qobilyatlarni jamlagan miya xususiyati (funksiyasi) sifatida

belgilanadi. Shu bilan bir qatorda, ongning tafakkur timsollari insonning maqsadga yo'naltirilgan faoliyatini aniqlab beradi, shaxsning atrofdagi tabiat va ijtimoiy haqiqat bilan o'zaro munosabatini tartibga soladi, shaxsning mavjud ekanligini, ichki ma'naviy dunyosini anglab olishga imkoniyat beradi va ijtimoiy-amaliy faoliyat jarayonida voqelikni mukammallashtirish sharoitini yaratib beradi.

Ong so'zi zamonaviy tilda ko'p ma'noli so'z hisoblanadi. S.A. Kuznetsov tahriri ostidagi "Rus tilining izohli lug'ati" ong so'zini shunday izohlaydi:<sup>18</sup>

1. Tafakkurda insonning reallikni tasvirlash qobiliyati;
2. Insonga xos bo'lgan atrof voqelikni anglash va tafakkur etish; fikrlash faoliyati, aql, idrok, voqelikni ongli ravishda qabul qila olish qobiliyati (hushdan ayrilish)
3. Inson, bir guruh insonlar tomonidan ijtimoiy hayotni anglab yetish; ijtimoiy tabaqa vakillari sifatida insonlarning dunyoqarashlari.
4. Biror narsani anglash, fikr, hissiyot, his qilish (burch hissi), aniq anglash.
5. So'zlashuv nutqida onglilik (Kallang qayerda edi ?)

Shuni tushunish qiyin emaski, barcha ma'nolar so'nggi ma'noni qo'shgan holda ham ongni voqelikni aksi sifatida ko'rsatib uni turli tomondan ochib beradi holos. Bunday holda ko'p ma'nolik degan narsani nisbiy desa bo'ladi. Ong to'g'risidagi tasavvurlar turlarning ko'pligi va ongning shakillaridan kelib chiqadi.

Ongning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatish mumkin: Tafakkur faoliyati bo'yicha siyosiy, ilmiy, diniy, ekologik, maishiy, tabaqaviy, estetik, iqtisodiy va xak. Ong subyektiga asosan gender yoshga oid, ijtimoiy (kaspiy, gumanitar, texnik), shaxsiy, jamoaviy, guruhli va hakoza.

Shakllanish jihatidan rivojlangan va rivojlanmagan ong; ong asosidagi tamoyilga nisbatan global, demokratik, konservativ, progressiv, reaksiyon va hakoza ongga ajratiladi; Aqliy faoliyat asosida kelib chiqadigan ko'nikmaga asosan kreativ, texnik, everestik, badiiy va hakoza.

---

<sup>18</sup> Axmanova O.S. Slovar lingvichiskiy terminov, M. Se. 1966.

Shu tarzda tasnifni davom ettirish mumkin, lekin bu biz oldimizga qo‘ygan vazifaga kirmaydi. Ong turlarining barchasi “umumiy anglash “yoki” shunchaki anglash “turli ko‘rinishlarida bo‘lib, ular kompleks tarzda global korib chiqiladi. “Umumiy ong” ni uning yetakchi “bilim orttirish“ tomonini hisobga olgan holda kognitiv deb atalishi taklif qilinadi, chunki ong subyekt tomonidan voqelikni o‘rganish natijasida paydo bo‘ladi, ongning o‘zi esa subektni bilim olish faoliyati paytida ega bo‘lgan bilimlar jamlanmasidir. Milliy ong va uning til bilan bog‘liqligi ustidan olib borilgan tadqiqotlar boy lingvistik tarixga ega bo‘lib, bular V.Gumboldt, V.Vundt, A.A.Potebnya, etnotilshunoslar, L.Veysgerber va boshqalar olib borgan ilmiy taqdiqotlarda uchraydi.

Oxirgi paytlarda “lisoniy ong” degan tushuncha keng tarqalmoqda va u asosan tilshunos, madaniyatshunos, etnograf va shu kabilar tomonidan ishlatilmoqda.

Masalan: Lisoniy ongning etnomadaniy xususiyatlari.<sup>19</sup> M. 1996; Lisoniy ong: uning shakllanishi va ishlatilishi. M.,1998: Tilli Lisoniy ong va dunyo tasiri. M.2000 va boshq. Shuningdek, bu sohada olib borilgan tadqiqotlar “Til va milliy anglash” (1.soni, Voronej, 1998; 2.soni, Voronej, 1999, 3.soni, Voronej, 2002, hamda “Til va milliy ong. Nazariya va metodologiya masalalari kalliktiv monografiyasi. Voronej, 2002) to‘plamlarida chop etilgan.

“Lisoniy ong” atamasi biror faktni belgilash uchun moddiylashtirilishi samarali natijalarga olib kelmaydi. Bu holatda u masalaga yangicha yondashmaydi va “Lisoniy ong” ning o‘ziga hos xususiyatini topib bera olmaydi. Shu bilan birga, haligacha lingvistika va psixolingvistikada inson nutqi faoliyati, til haqidagi bilimlar majmuini ta‘minlab beruvchi nutqning psixik mexanizmlari atama sifatida kiritilmagan.

---

<sup>19</sup> Reformatitskiy V.V. Vvedeniye yazykoznanije. M. Prosvesheniye. 1967

**Adabiyotlar:**

1. Axmanova O.S. Slovar lingvitichiskiy terminov, M. Se. 1966.
2. Reformatitskiy V.V. Vvedeniye yazikoznaniye. M. Prosvesheniye. 1967
3. G'ofurova M. O'zbek tilidagi varvarizmlarning funksional- semantik tahlili// Ilm sarchashmalari. - Urganch, 2019.
4. Oxford Advanced American Dictionary. 2020. Oxford University Press
5. <https://new.tdpu.uz/articles>
6. <https://library-tsul.uz/category/ilmiy-maqolalar/>

